

Sh.S.IMYAMINOVA

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA
FRAZEOLOGIK SINONIM VA
ANTONIMLARNING
LISONIY XUSUSIYATLARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Sh.S.IMYAMINOVA

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA
FRAZEOLGIK SINONIM VA
ANTONIMLARNING
LISONIY XUSUSIYATLARI**

MONOGRAFIYA

**Toshkent
"Ma'rifat"
2025**

UO'K: 811.112.2'373.7+811.512.133'373.7

KBK: 81.2Nem-3+81.2O'zb-3

I-45

Imyaminova Sh.S. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonim va antonimlarning lisoniy xususiyatlari. Monografiya.

–T.: “Ma’rifat”, 2025. 140 bet.

Monografiyada nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonim va antonimlarning xususiyati hamda ularning struktur-semantik jihatlarini to'g'risida olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonim va antonimlarning morfologik hamda ularning semantik xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimlarda ekspressiv-ta'sirchanlik va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik hamda buning ta'siri natijasida frazeologik sinonimlarning semantik jihatdan o'zgarishi tadqiq qilingan.

Mazkur monografiya tilshunoslik sohasi bakalavriat va magistratura talabalari hamda shu soha mutaxassislari va tadqiqotchilari uchun mo'ljallangan.

UO'K: 811.112.2'373.7+811.512.133'373.7

KBK: 81.2Nem-3+81.2O'zb-3

I-45

Mas'ul muharrir:

A.E.Mamatov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

G.S.Qurbanova – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.A.Bekmuratova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 07-sonli bayonnomasi 2025-yil 25-iyuldagi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-590-12-2

© “Ma’rifat” nashriyoti, Toshkent, 2025 y.

MUNDARIJA

T/r	Mavzular	Sahifa
	KIRISH	4-6
I BOB	NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI	7
1.1.	Tilshunoslikda frazeologik sinonimiya hodisasi va uning o'rganilishi	7-19
1.2.	Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning struktur-semantik xususiyatlari	20-30
1.3.	Nemis tilida frazeologik sinonimlarning morfologik xususiyatlari	30-36
1.4.	O'zbek tilida frazeologik sinonimlarning morfologik xususiyatlari	37-44
1.5.	Frazeologik sinonimlarning semantik xususiyatlari	44-45
1.6.	Nemis tilida frazeologik sinonimlarda ekspressiv-ta'sirchanlik va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik	45-46
1.6.1.	Nemis tilida frazeologik sinonimlarning semantik jihatdan o'zgarishi	47-54
1.6.2.	O'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarda ekspressiv-ta'sirchanlik va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik	54-55
1.6.3.	O'zbek tilida frazeologik sinonimlarning semantik jihatdan o'zgarishi	55-60
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar	60-61
II BOB	NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK ANTONIMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI	62-63
II.1.	Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonim tushunchasi	63-76
II.2.	Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning turlari va ularning xususiyatlari	76-88
II.3.	Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning strukturasi tahlili	88-119
II.4.	Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning semantik xususiyati	119-124
	II bob uchun xulosa	124-126
	UMUMIY XULOSA	126-129
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	130-139

KIRISH

Jahon tilshunosligining muhim vazifalaridan biri tilshunoslikda muhim sanalgan jarayonlardan biri frazeologizmiyaning rivojlanish tendensiyasi va frazeologizmlarni tillarda hosil bo'lishi hamda yozma va og'zaki nutqda qo'llanishining muhim hisoblanishi o'ta murakkab masalalarning yechimiga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, frazeologiya tilshunoslik fanining tinimsiz, doimiy rivojlanayotgan bo'limlaridan biridir. Frazeologizmlarning xususiyatlari, frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyati, ularning sinonimik, antonimik jihatlarini hamda tarjima qilish imkoniyatlari, prinsiplarini tadqiq qilish, bu frazeologiya sohasidagi etakchi yo'nalishlardan hisoblanadi. Ushbu sohada jiddiy o'rganilishi va bir to'xtamga kelishni talab qiluvchi muammolar yetarlicha.

Dunyo tilshunosligida frazeologizmlarning tarixi, nazariyasi va ularning struktur-semantik tarkibi hamda frazeologizmlarning lisoniy tadqiqi masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Zotan, til, shu jumladan, nemis tilining ham o'ziga xos jihatlarini frazeologik sinonim va antonimlarning struktur-semantik tarkibi va ularni tarjima qilish prinsiplari bilan bog'liq muammolarni har tomonlama tahlil qilish zarurati mavjud. Hozirgi zamon tilshunosligining eng yosh va muhim yo'nalishlaridan biri frazeologizmiyaning mahsuli bo'lmish frazeologizmlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish muhim bo'lib turibdi. Bundan tashqari, frazeologizmlarning barcha lingvistik jihatlarini tadqiq etish nazariy va amaliy tilshunoslikning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan keng miqyosdagi islohotlar madaniyatlararo muloqot vositasi rivoji bo'lgan til ta'limi va tadqiqi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayni damda ilm-fanning barcha tarmoqlaridagi bo'lgani kabi o'zbek germanshunosligida ham tubdan ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Nazariy tilshunoslik sohasida chet tillarni o'rganishda amaliy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy asosi sifatida lisoniy tuzilmalarning funksional tavsiflarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib kelishi diqqatga sazovordir. Ilm-fan rivojining ilg'or yutuqlariga tayangan holda "ilmiy tadqiqotlar va innovasion faoliyatning yutuqlarini rag'batlantirish, ilmiy va innovasion faoliyatning yutuqlarini amaliyotga

joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish"¹ga katta e'tibor berilmoqda. Belgilangan vazifalar ushbu jarayonning amalga oshirilishida muhim bo'lgan nemis tilida frazeologizmlarning sinonimik va antonimik jihatlarini va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish mezonlarini shakllanish omillarini chuqur tahlil etishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi va Germaniya o'rtasidagi kelishuvlar ilm-fan va ta'lim sohalarida hamkorlikning yangi istiqbol va yo'nalishlarini ochib beradi, xususan, frazeologiya sohasini lisoniy muammolariga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmiyaning lingvistik fan sifatida shakllanishi tarixan fransuz olimi Sh.Balli² nomi bilan bog'liq. Frazeologiya nazariyasining rivojlanishiga rus tilshunos olimlari V.V. Vinogradov, N.M. Shanskiy, A.M. Babkin, I.I. Chernisheva, A.V. Kunin, A.D. Rayxshteyn³, nemis tilshunoslari G.Burger, E.Donalis, V.Flaysheer⁴, hamda o'zbek olimlari G.Salomov, Sh.Rahmatullayev, M.E. Umarxo'jayev, L.I. Royzenzon, A.M.Bushuy, A.E. Mamatov, B. Yo'ldoshev va boshqalar⁵ ulkan hissa qo'shganlar.

Nemis tili frazeologiya sohasini rivojlanishi va mustahkam o'rin olishida Fridrix Zeyler⁶ning "*Nemis tili frazeologiyasi*" ning semantik va strukturaviy tuzilishi buyicha nemis tili tilshunosligida yirik tadqiqot olib borganligini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, u o'z ishida nafaqat frazeologiya sohasini yoritishga, balki nemis tilining so'z boyligini maqol va matallar orqali ham ortib borishini mahorat bilan ko'rsatib bera olgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral.

² Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - М.: Эдиториал, 2001.

³ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. - М.: Наука, 1974. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. - М.: Учпедгиз, 1969; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1996. Бабкин А.М. Русская фразеология ее развитие и источники. - Л.: Наука, 1970. Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. - М.: Высшая школа, 1970. Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. - М.: Высшая школа, 1980.

⁴ Burger H. Phraseologie; eine Einführung am Beispiel des Deutschen. - Berlin: Schmidt, 1998. Donalis E. Basiswissen Deutsche Phraseologie. - Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag, 2009. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. - Tübingen: Niemeyer, 1997.

⁵ Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologizmiyaning ba'zi masalalari. - T.: Fan, 1966. Umarxo'jayev M.I. Основы фразеологии. - Т.: Fan, 1983. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. - T.: Fan, 1991. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. - Samarqand: SamDU, 2013.

⁶ Seiler Friedrich. Deutsche Sprichwörterkunde. - München: 1922.

Undan keyingi nemis tili frazeologiyasining rivojlanishi bo'yicha alohida tilshunos olimlarning A.Rixter⁷, R.Klappenbach va E.Agricola⁸ shuningdek boshqalarning qilgan yirik ishlari frazeologizmlarni mazmunan va tuzilishi jihatidan klassifikatsiya qilish bo'ldi. Keyinchalik quyidagi tilshunos olimlar W. Flaysher⁹, Wolf Fridrix¹⁰, V.N. Teliya¹¹, R. Ekert¹², H. Burger, B.Wotyak¹³, J.Hoyserman, W.Shmidt tomonidan qilingan oxirgi yillardagi ko'pgina ilmiy va amaliy ishlarning qilingani ayniqsa ahamiyatli. Biroq O'zbekistonda hali bugungi kunda nemis tilida frazeologik sinonim va antonim hamda ularning struktur-semantik jihatlari bo'yicha fundamental ishlar qilinmaganligi ushbu tadqiqotni yaratilishiga asosiy sabab bo'ldi, deyishimiz mumkin.

⁷ Richter A. Deutsche Redensarten. Sprachliche und kulturgeschichtlich erläutert. – Leipzig: 1989.

⁸ Klappenbach Ruth Klappenbach. Feste Verbindungen in der deutschen Gegenwartssprache. Beiträge zur Gesch.d.d.Spr. u. Lit., Sonderband, E. Karg. Gasterstadt gewidmet, Halle (Saale), 1961. Dr. E. Agricola Semantische Relationen E.Agricola unter Mitwirkung von H.Görner und R.Kufner. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1962.

⁹ Fleischer W. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. 4. Aufl. – Leipzig: 1976.

¹⁰ Friedrich W. Moderne deutsche Idiomatik. 2. Auflage. – Ismaniy: 1972. Friedrich W. Moderne deutsche Idiomatik Alphabetisches Wörterbuch mit Definition und Beispielen, 2. Aufl. – München: 1976.

¹¹ Teliya V.N. Die Phraseologie. // Allgemeine Sprachwissenschaft. Von e. Autorenkollektiv unter der Leitung von B. A. Serebrennikov. Bd. 2. – Berlin. – S.374.

¹² Eckert R. Aktuelle Probleme der Phraseologieforschung. // Aktuelle Probleme der Phraseologie. – Leipzig: Karl-Marx-Universität, 1976.

¹³ Wotjak B., Richter M. Deutsche Phraseologismen. – Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1988.

I BOB

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI

1.1. Tilshunoslikda frazeologik sinonimiya hodisasi va uning o'rganilishi

Har qanday til ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlar, iboralar hisobiga to'xtovsiz boyib boradi va bu jarayon ilm-fan, madaniyat, texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kelgan yangi tushunchalarni aks ettirish bilan tilning lug'at tarkibi ko'plab yangi so'zlar, frazemalar hisobiga kengayadi. Eski qolgan so'zlar asta-sekinlik bilan iste'moldan chiqib ketadi, Qolaversa, til bu uzoq tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, undagi sinonim so'zlar va iboralar kishi tafakkuri rivoji bilan bog'liqdir. Ma'nodosh so'zlar kishilarning so'z ma'nolarini har tomondan to'laroq, mukammalroq ochishga urinish natijasida vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday tilning lug'ati tarkibidagi asosiy vositalardan biri sinonim so'z va iboralarni tashkil etadi.

Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, voqea-hodisa shaxs va predmetlarni ifodalovchi til birliklarining eng nozik ma'no bo'yoqlarini yuzaga chiqaradi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, sinonimlar fikrlarni ifodalashda takrorli jarayoni amalga oshmaydi. So'zlarni takror qo'llanilishi esa nutqqa putur yetkazib, uslubiy g'alizlikka olib keladi. Sinonimiya semantik hodisa sifatida «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati» da shunday ta'rif beriladi: «Til birliklarining (so'zlar, iboralar va boshqalar) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi asosidagi guruhlanishga sinonimiya (yunoncha *synonymia* – bir xil ma'noga egalik) deyiladi¹⁴. Boshqacha qilib aytganda, bir predmet belgisi shaxs, voqea bir necha nomda aytilishidir: Masalan, *odam-inson-kishi-bashar*.

Sinonim so'zlar bir xil predmetlarni (*ovqat, osh, taom*), predmetning bir xil belgisini (*ishchan, harakatchan, tirishqoq*), bir xildagi harakatni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi.

¹⁴ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'z. ml. ensiklopediyasi, 2002. 588 b.

Tilshunoslikda sinonimlarni o'rganish juda erta boshlanganligini ko'rsatadi. Qadimda grek olimlari sinonimlar haqida gapirar ekan, u til boyligi bo'lishi bilan birga sinonim so'zlar fikrlarni turli shaklda ifodalash imkonini berishini alohida ta'riflaydilar. Shuningdek, rim olimlari sinonim so'zlar orasida farqlar mavjudligini ham e'tirof etadilar.

Umuman olganda, ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikda sinonimiya hodisasi XVIII asrda tilga olingan bo'lsa-da, XX asrga kelib keng qamrovda o'rganila boshlandi. Tilshunoslikda leksik sinonimiya tushunchasi paydo bo'lgandan shu kunga qadar bu muammo bilan shug'ullangan olimlar sinonim tushunchasiga shunday ta'rif beradilar.

Sinonimlar deb turli jaranglaydigan, lekin bir xil yoki juda yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlarga aytiladi. Masalan: *hamma joyda – har joyda, jasur – botir, bepoyon – cheksiz*.

Yana bir guruh, olimlar ta'rifiga ko'ra, sinonimlar shunday so'zlarki, ular bir xil ma'noni anglatuvchi bir yoki birdan ortiq so'zlar, lekin bu so'zlar ma'no nozikligi va stilistik jihatidan bir-biridan farqlanadi. Tilshunos olim V.V. Vinogradov nemis tilidagi sinonimlarning asosiy xususiyatlarini quyidagi turlarga ajratadi:

- turli tovushlardan iboratligi;
- turli so'z turkumiga tegishliligi;
- asosiy ma'no bilan aloqadorligi;
- turli ma'no ko'rinishlariga egaligi;
- bir xil yoki o'xshash distributsiyasi;
- bir xil yoki o'xshash valentliklar;

Matnda faoliyat va qarama-qarshi almashtirishlarni prinsipial ravishda qalbakilashtirilmasligi lozim.

Sinonimik qatorda dominant yoki asosiy sinonimlarga farqlanadi. Bu odatda shunday sinonimki, u stilistik jihatdan neytral bo'ladi: *yuz, bashara, aft*.

Shuningdek, sinonimlarni turlarga ajratar ekanmiz:

- Bir yoki bir nechta nominativ ma'nolarga ega bo'lgan ideografik sinonimlar turli xil qo'shimcha ma'no orqali bir-birlaridan farqlanadi. Masalan: *Ermattung (hoch)-Ermüdung*. Bunday sinonimlar ikki guruhga ajratiladi: mustaqil, narsa predmetning o'xshash asosiy xususiyati matndan mustaqil bo'ladi, lekin ular o'ziga xos xususiyati bilan ma'no nozikligi

bilan farqlanadi. Masalan, *Ufer, Strand, Küste, Erdrand* so'zlari suv yig'iladigan joy ma'nosini beradi. Kontekstual faqat aniq matnda so'zlar sinonimligi. Masalan, *ledig- frei single* so'zlari matnda o'ylanmagan so'z bilan sinonim.

-stilistik sinonim ob'ektiv reallikni ko'rsatib, funksional stilistik va emosional ekspressiv bo'yoqdorlik orqali farqlanadi. Masalan, *ticken-verstehen; kapieren-begreifen*;

-mutlaq sinonimlar denotativ komponentlari orqali farqlanadi. Ular bir-biriga juda yaqin ma'noga ega. Masalan, *Sonnabend-Samstag*.

Sinonimlar funksiyasiga ko'ra quyidagi vazifalarni bajaradi:

-denotativning xususiyatlarini ochib beradi;

-ko'tariluvchi funktsiya;

-vazifasini yoritib berish (boshqa so'zni sinonim ekanligini ko'rsatish *prüfen- testen*);

Sinonimik leksemalarning barcha funksiyalari til belgilarining asosida yotuvchi funksiyalarni o'zida namoyon etadi.

Sinonimlar — bir yoki bir nechta voqelikni anglatadi. Ba'zida sinonimlar bir biriga yaqin so'zlar bo'lsalar-da, o'sha atalayotgan narsani bir xil ko'rinishda har xil nuqtalardan ta'riflayotgan yoki ifodalanayotgan fikrni turli nuqtayi nazardan baholayotgan bo'lishlari mumkin. Shuning uchun sinonimlar, qoidasiga ko'ra bir xil ma'noni anglatishda, so'zlar bir biriga semantik munosabatda, shuningdek, emosional bo'yoqdorlik xususiyatlari jihatdan ham mutlaq mos kelmasliklari mumkin. Doim ular bir-biridan ba'zida leksik ma'no jihatdan farq qilishi, o'zining emosional-ekspressiv bo'yoqdorligi bilan, nutqning aniq uslubiga mansubligi bilan, o'zining qo'llanilishida boshqa so'zlar bilan birikib, munosabatga kirishishida farqlanishi mumkin. Bu tafovutlar sinonimlar orasida bir nechta chegaralar borligini ko'rsatadi.

Ikki yoki undan ortiq sinonim so'zlar guruhidan iborat bo'lgan so'zlarni sinonimik qator deb ataladi. Masalan, *chiroyli-go'zal-suluv-zebo* kabi so'zlar bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Shu qatordagi **chiroyli** so'zi **dominant** bo'ladi. Ya'ni bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z asosiy (dominanta) deb ataladi. Ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin:

Masalan, *o'qishni bitirmoq - o'qishni tugatmoq; ishni bitirmoq-ishni bajarmoq; sotib bitirmoq- sotib yo'qotmoq.*

Sinonimik qator bir o'zakli so'zlardan ham tuzilishi mumkin: Masalan, *unutish - esdan chiqarmoq, oldinga o'tib ketish - o'zib ketish, vatan - diyor, jimlik - sukunat* kabi.

O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining o'rganilish tarixi S.Isamuxamedova, U.Tursunov, N.Rajabov, A.Doniyorov, Yo.Tojiyev, H.Shamsiddinov, B. Doniyorov singari olimlarning ishlarida keng tahlil qilingan¹⁵.

Tilimizda leksik sinonimiya masalalari S.Usmonov, S.Isamuxamedova, I. Qo'chqortoyev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, grammatik sinonimiya masalalari yuzasidan professor M.Asqarova, R.Qo'ng'irov, V.Egamberdiyev, M.Sodiqova, E.Zikrillayevlarning kuzatishlarini, stilistik sinonimiyada esa A.Doniyorovning nomzodlik ishini keltirish mumkin.

XX asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek tili materiallarida grammatik sinonimiya ham o'rganila boshladi. Bu sohadagi dastlabki qadam Y. Tojiyevning nomzodlik ishi¹⁶ bo'lib, u ishida ot turkumiga oid so'zlardan ega ekanlik va ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi sifat yasovchi affikslar, ba'zi forma yasovchi affikslar sinonimiyasi ilmiy asosda o'rgangan.

Tilshunoslikda sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

- **Leksik sinonimlar.** Bular ikki xil, to'liq va ma'noviy sinonimlarga bo'linadi. Har jihatdan teng keladigan, o'zaro farq qilmaydigan, birining o'rniga ikkinchisini bimalol qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar to'liq sinonimlar deb yuritiladi. Tilshunoslikda bunday sinonimlarni leksik dubletlar deb ham yuritiladi: Masalan, *kosmos-fazo*;

- ayrim ma'no nozikliklari bilan farq qiladigan, birini ikkinchisining o'rnida har doim ham qo'llab bo'lmaydigan sinonimlar ma'noviy

sinonimlar guruhiga kiradi: Masalan, *ovqat-taom-yemish-xo'rak; kuldi-jilmaydi-tirjaydi-irjaydi-ishshaydi-xoxoladi*;

- frazeologik sinonimlar: *boshi osmonda-og'zi qulog'ida-do'ppisini osmonga otmoq. (o'ta xursand)*

- leksik-frazeologik sinonimlar so'z va iboralar o'rtasidagi ma'nodoshlikdir: Masalan, *yuvosh-qo'y og'zidan cho'p olmagan*;

- grammatik sinonimlar ikki xil bo'ladi: a) morfologik sinonimlar: Masalan, *adabiyotchi-adabiyotshunos, keldilar-kelishdi*; b) sintaktik sinonimlar erkin so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi sinonimlikdir: Masalan, *dala ishlari- daladagi ishlar, kitobni o'qidi-kitob o'qildi*.

-shartli sinonimlar ma'lum gap yoki matn ichidagina o'zaro sinonim bo'lgan so'zlardir: Masalan, *Nega kerak edi shu chiroy, shu o't? Shu yoniq yulduzni ko'zda yashirmoq?* Bu misoldagi *chiroy, o't* va *yoniq yulduz* so'zlari o'zaro shartli sinonimlar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi frazeologik birliklar orasidagi sinonimik munosabat bo'lganligi uchun tahlillarimizni frazeologik sinonimlar tushunchasiga oydinlik kiritish bilan davom ettiramiz.

Frazeologik sinonimiya ko'pgina tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan masala. Bunday sinonimiya dastlab, rus olimlari tomonidan g'arb tillaridagi, jumladan, nemis, ingliz va fransuz tillaridagi materiallar bilan taqqoslangan holatda yoritilgan. Nemis tilshunosligida tildagi frazeologizmlar bilan jiddiy shug'ullanish XX asrning 50-yillarida boshlangan bo'lsa, shu yillarda frazeologik sinonim (FS)¹⁷larga qiziqish kuchaydi.

Zamonaviy nemis tilida FSlar bilan shug'ullangan olim A.P.Xazanovichning fikricha, "nemis tilidagi FSlar tadqiq qilish borasida bir qator ishlar mavjud bo'lib, ular ushbu muammo bilan bog'liq savollarga yetarli javob olish imkonini beradi"¹⁸. Ushbu savollar, birinchidan FSlarning tub mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatini

¹⁵ Isamuxamedova S. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida sinonimlar; filol. fan. nom. ...dis. - Toshkent: 1963.; Tursunov U., Rajabov N. O'zbek tili leksikasining ba'zi masalalari - Samarkand: SAMDU, 1971. Doniyorov B.X. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М.: 1994.

¹⁶ Тожиёв Е. Синонимия словообразующих аффиксов со значением и наличием отсутствия в узбекском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. - Т.: 1974.

¹⁷ Bu va boshqa sahifalarda frazeologik sinonim o'rniga FS qisqartmasi qo'llaniladi.

¹⁸ Хазанович А.П. Синонимия во фразеологии современного немецкого языка. Канд. дисс., - Л.: 1958. Типы синонимов и идиоматике современного нем. языка. Уч. зап. ЛГУ, № 2, вып. 45, сер. Филологии, наук, 1959. Чернышева И.И. Явление синонимии и полисемии во фразеологии нем. языка. // № 6, «Ин. яз. в шк.», 1960; Краморенко Г.И. Фразеологические варианты в идиоматике современного нем. языка. - Смоленск: 1961. Фразеологические варианты современного нем. языка. канд. дисс., - М.: 1961.

tushunishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan FSlarning struktur, semantik va boshqa ko'rinishlarini aniqlash bilan bog'liqdir.

FSlar – tilda bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalagan turli frazeologik birliklar bo'lib, ular aniq kommunikasiya aktlariga qodir yagona ma'noni ilgari suradi.

Tildagi so'zlarning o'zaro almashinish hodisasi ham sinonimning ko'rinishlaridan biri bo'lib, leksik birliklarda sinonimik munosabatlarni olib kirgan sinonimiya bo'yicha qilingan ishlarni muhokamaga olib chiqqan voqealardandir. Masalan, A.P.Yevgenevaning yozishicha, "tildagi so'zlarning o'zapro almashinish hodisasi, biz odatda sinonim deb ataydigan, kelib chiqishidan stilistik, ekspressiv, bo'yoqdorlik va boshqa asosiy vazifalarini inkor etmagan sinonimlar nazarda tutiladi"¹⁹.

Frazeologiya uzoq vaqtlar davomida leksikologiyaning kichik bo'limlaridan biri bo'lgan. XX asrning 70–80-yillariga kelib, ko'pchilik olimlarning e'tiborini tortib, tilshunoslar tomonidan bir qator muammoli nazariyalarga asos solgan aniq bir yo'nalish sifatida ajralib chiqdi. Ushbu fanning tadqiq etilib, soha darajasiga ko'tarilishida shveysariyalik olim Sh.Ballining 1909-yilda roman tilida bosmadan chiqqan "*Tgade de stylistique française*", "*Fransuz tili stilistikasi muammolari*" asarida phraseologie²⁰ atamasini "stilistikaning so'z birikmalarini o'rganuvchi bo'limi" ma'nosida kiritdi. "*Bu to'plam o'z davrida frazeologiyadagi mavjud muammolarni tadqiq etish bo'yicha mukammal asar edi*"²¹.

Nemis tilining frazeologi H.Burgerning ta'kidlashicha, german va roman tillarida yarim asrlar oldin frazeologiya bo'yicha hech qanday tushuncha bo'lmagan. U nemis tili germanistikasi bo'yicha amaliy ish qilib, frazeologizmlarning yangi aspektlari, jumladan semantik kategoriyalar spesifikasi (polesemiya, sinonimiya, antonimiya va boshqalar)ni aniqladi²².

Nemis tili frazeologiyasini o'rganish borasida yana bir olim Volfgang Flaysherning 1997-yildagi "*Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache* (Zamonaviy nemis tilida frazeologizmlar)" asarini qayta to'ldirilgan ikkinchi nashrini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, yana bir nemis tilshunosi K.D.Pilsning maqolalaridan Sharqiy va G'arbiy Yevropa olimlarining frazeologiya bo'yicha ilmiy qarashlari (1978-yilgacha bo'lgan davr) bilan tanishish mumkin²³.

Nemis tilida frazeologik sinonimlar o'tran asrning 50–60-yillarida o'rganila boshlandi. Ma'lumki, frazeologiya ko'chma ma'noda ishlatiladigan erkin so'z birikmalaridan tarkib topadi. Asta-sekin ko'chma ma'nolik unutila boshlaydi, yo'qolib boradi, pirovardida, birikma turg'unlashib boradi. Frazeologiya qismlarining nominativ ma'nosi qanchalik yo'qolib borishiga qarab, shuningdek, undagi ko'chma ma'noning quvvatiga qarab, V.V.Vinogradov ularni uch qismga bo'ladi: "*frazeologik chatishmalar, frazeologik birlik va frazeologik ibora*"ga ajratdi. Nemis olimlari V.Flaysler, M.D.Gorodnikov, L.F.Zinder va T.V.Stroyevalar nemis tilidagi frazeologizmlarni V.V.Vinogradov klassifikatsiyasi bo'yicha tartibga soldilar. Masalan, M.D.Gorodnikov frazeologizmlarni semantik tahlil qilib frazeologik birlik va frazeologik iboralarni alohida guruhlariga ajratib chiqdi. R.Klappenbax frazemalar orasida o'rin almashtirish imkonini mavjudligi, bu holat frazeologik sinonimlarni qo'llash orqali amalga oshirilishi, so'zlarning almashtirilishi ma'no va mazmun mutanosibligini saqlab qolishi, qolaversa, ekspressiv bo'yoqdorligiga ham putur yetmasligini ilmiy asoslab berdi.

Masalan: *J-n ans Herz drücken = j-n an die Brust drücken oder an die Finger kriegen (yoki bekommen), ein langes Gesicht ziehen (yoki machen), nur (yoki nichts als) Haut und Knochen.*

FSlarga leksikolog olim V.Flaysler shunday ta'rif beradi: „FSlar deganda biz shunday frazeoleksemalarni tushunamizki, ular bir xil ma'noga ega bo'lgan bir yoki birdan ortiq frazemalarning o'zaro mos kelishi. Bu iboralar ikki darajada stilistik belgisi va sintaktik qurilishi

¹⁹ Евгеньева А. П. Проект словаря синонимов. – М.: АН, Ин-т русского языка, словарный сектор. 1964, с. 10.

²⁰ Bally C.A. Précisdestylistique. – Geneve: 1905. Bally, Ch. Traitede stylistique française. – Heidelberg, 1909. Brewer's Dictionaryof Phrase and Fable. – London: 1971.

²¹ Burger Harald. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 2. überarbeitete Auflage. – Berlin : Erich Schmidt, 2003.

²² Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache 2. durchgesehene und ergänzte Auflage. Tübingen, – Niemeyer, 1997.

²³ Pilz K.D. Phraseologie. Versucheinerinter disziplinären Abgrenzung, Begriffsbestimmung und Systematisierung unter besonderer Berücksichtigung der deutschen Gegenwartssprache. Göppingen, Kümmerle, 1978.

jihatdan bir-biridan farqlanishi mumkin²⁴. Masalan: Dummheit – „ein Brett vor dem Kopf haben, dumm sein wie Bohnenstroh, nicht bis drei zählen können“ va boshqalar.

Shu bilan birga, olim E.I.Zibutsayte o'z ilmiy ishida frazeologik sinonimiyaga shunday ta'rif beradi: „Frazeologik sinonimiya – bu aniq muloqot vaqtida bir tushunchali mazmun bilan qo'llaniladigan tildagi bir xil yoki ma'no jihatdan yaqin har xil frazeologik birliklardir“²⁵.

A.P.Xazanovich dastlab o'z maqolalarini nemis tilidagi FSlari tahliliga bag'ishladi²⁶. Unda FSlar ta'riflanadi va ikki xil tasniflanadi.

a) struktura jihatdan;

b) semantik-stilistik jihatdan.

Muallif o'z ta'riflarida FSlarning ma'nosiga emas, balki ularning tushunchasiga, mantiq hodisasiga ko'proq suyanadi, ya'ni ayni bir ma'noni anglatuvchilar qatoriga juda yaqin ma'no anglatuvchi iboralarni qo'shib qo'yadi.

Semantik stilistik jihatdan FSlar, avvalo teng qiymatli va noteng qiymatli deb ikki guruhga ajratiladi. Ikkinchi guruh o'z ichiga „ideografik“, „stilistik“ hamda „ideografik-stilistik“ kabi uch guruhga ajratiladi.

Nemis olimlari esa nemis tilidagi FSlarni guruhlarga ajratar ekan, bir ma'noni ifodalovchi, turli strukturali frazeologizmlarni nazarda tutadi. Bunda har bir sinonimik frazeologizm turli obrazlarda shakllanadi. Masalan: *den Mund, das Maul, die Klappe, die Fresse, den Rand, den Schnabel, die Schnauze halten* – mum tishlamoq, jim turmoq, og'ziga talqon solmoq kabi ma'nolarini beradi.

Semantik va stilistik jihatdan tilshunos olim I.I.Chernisheva nemis tilidagi FSlarni uch guruhga ajratadi²⁷:

- Teng ma'noli FSlar, bir xil tushuncha va bir xil fikrni anglatadi. Ularning moddiy tarkibi turli leksik va struktur munosabatlardan tarkib

topishi mumkin. Masalan; *es spukt bei ihm im Kopfe, bei ihm fehlt eine Schraube*.

Bu frazemalar turlicha tuzilishga, har xil leksik tarkib va turli obrazli bo'lishiga qaramasdan bir xil ma'no «g'alati, dovdur odam» (rus tilida (человек со странностями) ma'nosi va bir xil funksional stilistik bo'uyoqdorlikka ega bo'lib, kundalik so'zlashuv nutqida ishlatiladi.

- Zamonaviy nemis tilidagi frazeologik birliklar orasida shunday sinonimlar mavjudki, ular bir xil fikrni anglatadi, lekin bir-biridan semantik buyoqdorligi bilan farqlanadi. Bunday sinonimlar ideografik FSlar deyiladi. Masalan; *j-mden Kopf verdrehen = j-s Herz gewinnen = die Herzen brechen* frazemalari o'zbek tilida «qalbini egallamoq» ma'nosini beradi. Bu turdagi frazeologizmlar matn mazmuniga qarab foydalaniladi.

- Yana bir turdagi FSlar borki, ular bir xil ma'noli va qo'shimcha stilistik farqlari mavjud. Ular turli strukturali sinonimlarda o'zgaruvchan so'zlarning har xil funksional stilistik bog'liqligi oqibatida yuzaga keladi. Stilistik sinonimlar nomini olgan bunday frazemalar adabiy til, odatiy so'zlashuv nutqi, maxsus leksika yoki hududiy shevalarda foydalanishiga qarab o'zgarib boradi. Masalan: *den Mund halten - die Schnauze halten = die Pappe = die Gusche halten*. Ushbu misoldagi barcha frazemalar stilistik jihatdan bir xil „tilni tiymoq“ ma'nosini beradi. Agar „den Mund halten“ frazemasi adabiy so'zlashuvga xos bo'lsa, qolganlari qo'pol vaziyatni ochib berishda yoki kundalik so'zlashuvda qo'llaniladi va o'zbek tilida „og'ziga talqon solmoq-mum tishlamoq-damini chiqarmaslik- tilini yutib qo'ymoq“ ma'nolarida qo'llaniladi.

Olimlar L.E. Binovich va V.Grishin „nemis tilidagi FSlarning o'ziga xos xususiyati mazmunan o'zaro teng bo'lgan sinonimlar guruhidan iboratligidadir. Bu esa leksik sinonimlarga xos bo'lmagan holatlardir“ - deya ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, FSlar birinchidan tizim va komponentlar o'rtasidagi farqqa asosan, ikkinchidan frazeologik birliklardagi semantik va stilistik o'zaro aloqaga asosan, uchinchidan esa sinonimik holatlar tilda vujudga kelish uslubiga ko'ra farqlanishi kuzatiladi. Komponentlarning to'la mosligi va bitta yoki bir nechta o'zgaradigan komponentlardan tashqari leksik tarkiblarining deyarli to'laligicha o'xshashligini aks ettiruvchi FSlar tizimli sinonimlar deb

²⁴ Fleischer Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. 2. durchgesehene und ergänzte Auflage. – Tübingen: Niemeyer, 1997.

²⁵ Чернышева И.И. Некоторые особенности фразеологии немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1969. – 136 с.

²⁶ Хазанович А.П. Типы синонимов в идиоматике современного немецкого языка. «Ученые записки МГУ» серия филол. Наук. вып. 45/159, № 253, 1959 с. 113-127.

²⁷ Чернышева И.И. Некоторые особенности фразеологии немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1969. с. 136.

yuritiladi²⁸. Olimning fikricha, tilda tizimli sinonimlarning kelib chiqishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

-turli tizimli va bir tizimli frazeologik sinonimlar: ular nemis tilining turli qatlamida xos bo'lib, ma'nolarning mutlaq mos kelishini ko'rsatadi. M.: *j-m ans Herz gewacken sein = sein Herz an j-n hängen*.

-Tizimli frazeologik sinonimlar: *j-m den Mund stopfen = j-m den Mund verbieten*.

Biroq, sinxron tadqiqotlar jarayoni frazeologizmlarning struktur-semantik va funksional stilistik aloqadorligini ko'rsatadi.

Struktur belgilari turli sintaktik qurilish va obrazli motivlashtirilgan semantik asosga ega bo'ladi:

Es spukt bei ihm im Kopfe — er hat einen Vogel.

Bir tizimli frazeologizmlar — sintaktik qurilishi jihatdan bir xil, obrazli motivlashtirilgan semantik asosga yaqinroq va deyarli leksik tizim komponentlari bir xil bo'lgan sinonimlarni nazarda tutadi: *j-m in die Hand geraten = j-m in die Finger geraten*.

So'z va iboralar orasidagi FSning bayoniga bag'ishlangan maxsus ishlar ham mavjud. Masalan, E.M.Volf o'z maqolasida fe'l so'z va iboralar sinonimiyasi haqida fikr yuritadi²⁹. Bu maqolada frazeologizmlarning nominativ funksiya tashuvchi ekani, so'z va unga sinonim iboralarining o'zaro ma'no munosabatda iboralarining ma'nosi sinonim so'znikidan tor bo'lishi, iboralarining ma'nosi to'g'ri kelishi, iboralar komponentlarining distant holatda bo'la olishi, iboralar komponentlari ma'lum grammatik shakl o'zgarishiga yo'l qo'yish kabi fikrlar ilgari suriladi.

Nemis olimlarining frazeologik sinonimiya bo'yicha qilgan ishlari shuni ko'rsatadiki, frazeologiya lingvistikaning bir bo'limi bo'lib alohida fan sifatida shakllangandan so'ng frazeologik sinonimiya alohida o'rganib chiqildi hamda uning stilistik funksional morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi.

Yana bir tilshunos A.Isayev "O'zbek tilidagi somatik frazeologizmlar" mavzuidagi nomzodlik ishining alohida bobini somatik frazeologizmlar doirasidagi variantdoshlik, sinonimiya, antonimiya

hodisalarini o'rganishga bag'ishlaydi. Olim o'z ishida FSlarni quyidagi uch guruhga ajratadi.

Idiografik FSlar, ya'ni ma'no nozikligiga ko'ra farqlanuvchi iboralar: *oyoqqa turmoq-boshini ko'tarmoq* kabi;

Stilistik FSlar, ya'ni uslubiy nozikligiga ko'ra farqlanuvchi iboralar: *ko'z yummoq-qulog'i ostida qolmoq* kabi;

Struktura FSlar, ya'ni biror so'ziga ko'ra farqlanuvchi iboralar: *kallaga sig'dirmaslik-miyaga sig'dirmaslik* kabi.

A.Isayevning hisob-kitobiga ko'ra, 128 sinonimik qator 269 iboralarni birlashtiradi, ya'ni o'zbek tilidagi somatik frazeologizmlarning 18,9 foizi o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi, shunda ikki iborali sinonimik qatorlar 121 tadir. Masalan: *qo'li gul-qo'li oltin; oyog'iga bolta urmoq-poyini qirqmoq* kabi. O'zbek tilidagi somatik frazeologizmlar orasidagi 2,3,4,5,6 va 8 iborali frazeologik sinonimlar mavjudligi ham aniqlangan.

A. Hojiyev o'zining "Tilshunoslik terminining izohli lug'ati" da FSlar "bir xil ma'noga ega bo'lgan, ma'no nozikligi, uslubiy bo'yog'i va boshqa jihatlardan o'zaro farqlanadigan frazeologik birliklar"³⁰ deb qayd etadi.

E.Qilichev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" qo'llanmasida yozishicha, sinonimiya - bir xil nomga egalik quyidagi ko'rinishga ega:

1. Leksik sinonimiya, ya'ni so'z ma'nodoshligi; *ish, yumush*.
2. Iboralar ma'nodoshligi; *boshi osmonga etdi, terisiga sig'maydi*.
3. Affiksial, ya'ni grammatik shakllar ma'nodoshligi; *-yap, -yotir, -moqda*.
4. Sintaktik sinonimiya; *ona bolasiga qayg'uradi, ona bolam deb qayg'uradi*³¹.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida parafraza (perefraza)lar sinonimiyasi, ya'ni so'zlarning funksional semantik sinonimiyalarini o'rganish sohasida ham salmoqli ishlar qilindi.

Parafrazalarda sinonimiya ular tarkibidagi so'zlarning ko'chma ma'nolaridan kelib chiqadi. Tasvirlanayotgan so'z parafrazalar bilan to'g'ri

²⁸ Klappenbach R. Feste Verbindungen in der deutschen Gegenwartssprache. — Halle: 1971, S.300.

²⁹ Вольф Е.М. О синонимии глаголов и устойчивых словосочетаний. // — М.: Ин. яз. в школе, 1957, № 3, с. 23-31.

³⁰ Hojiyev A. Tilshunoslik terminining izohli lug'ati. — T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002, 125 b.

³¹ Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Buxoro: Buxoro universiteti, 1999, 69 b.

ma'noda hech qachon sinonimiya bo'la olmaydi. Parafrazalar sinonimiyasini funksional semantik sinonimiya deb atasak bo'ladi. Chunki parafrasa hosil qiluvchi so'zlarning umumiy ma'nolari tasvirlanayotgan so'z bilan o'zaro bog'liq bo'ladi³².

Tilshunos olim X.Shamsiddinov tadqiqotlarida sinonimiya hodisasi keng ma'noda talqin qilinadi. Olim so'zlarning funksional semantik sinonimiya bo'lishi mumkin bo'lgan til birliklarini o'ndan ortiq guruhlariga ajratib o'rganadi.

So'z funksional-semantik sinonim bo'ladi: *qalam (uslub), yaraqlagan (yangi), zarshunos (paxtakor), guldek (go'zal)* kabi;

Juft so'zlar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *it-mushuk (dushman), oldi-sotdi (savdo), qozon-tovoq (ro'zg'or)* kabi;

Takroriy so'zlar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *yugur-yugur (ovvoragarchilik), bora-bora (oxiri)* kabi;

Bir so'zni sintaktik aloqaga kiritib, yuzaga keltiradigan birliklar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *mardlarning mard (mard), yigitmisan-yigit (yigit), bekordan bekorga (sababsiz)* kabi;

Uyushiq bo'laklar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *yotsa ham tursa ham (doimo), kun sayin, soat sayin (uzluksiz), oq yuvib, oq tarab (avaylab)* kabi;

Sifatdosh oboroti funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh), tinim nimaligini bilmaydigan (ishchan, g'ayratli, harakatchan), tog'ni urib talqon qiladigan (azamat, pahlavon)* kabi;

O'xshatish ifodasi bo'lgan birliklar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *Uzukka ko'z qo'ygandek, pashsha uchsa eshitilgudek (juda, g'oyatda, nihoyatda tinch), igna bilan quduq qazishdek (sermashaqqat)* kabi;

Prefraza funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *oq oltin ustalari (paxtakorlar), kumush tola (pilla), zangori olov (gaz)* kabi;

Tojikcha izofali birikmalar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *obi-hayot (suv), oynai jahon (televizor), musichai beozor (yuvosh), sohibi-qalam (adiblar)* kabi;

Sodda gap ko'rinishidagi birliklar funksional semantik sinonimiya bo'ladi: *tili boshqayu dili boshqa (ikkiyuzlama), bitta gap kam, ikkita gap ko'p (nozik), yer tagida ilon qimirlasa biladi (sezgir)* kabi.

Ana shunday tasniflardan keyin so'zlarning funksional semantik hodisasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan narsa, hodisalarni, ularning belgisi, miqdori, holati, harakati va o'zaro munosabatlarini tasviri tarzda ko'pincha ifoda maqsadiga muvofiq qayta nomlab yoki narsa hodisaga xoslab ifodalaydigan va alohida sinonimiya bo'ladigan so'z va undan katta birliklar so'zlarning funksional semantik sinonimiyasi deyiladi³³.

Tildagi sinonimik vositalarga shunday funksional jihatdan yondoshishda B.Qilichev "*Frazeologik sinonimiya xususida*" nomli maqolasida "bosh" komponentli FS'larning miqdor jihatdan ko'pligi sabablarini tilda partanomiya (butun nom va bo'lak nom) hodisasining keng tarqalganligi bilan izohlashga intiladi. Bu ishda *bosh* komponentli frazeologizmlarni uch guruhga ajratib o'rganilgan.

a) faqat bosh so'zi qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: *boshiga etmoq-boshini emog, boshi ko'kka etdi-boshi osmonda, boshi shishdi-boshi qotdi* kabilar;

b) "bosh" so'zi bilan sinonim bo'lgan so'z qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: *boshi achidi-miyasi achidi, boshiga kelmoq-miyasiga kelmoq, boshida danak chaqmoq-miyasiga danak chaqmoq, boshi g'ovlab ketdi- miyasi g'ovlab ketdi* kabilar;

c) «bosh» so'zi bilan sinonim bo'lmagan so'z qatnashgan iboralarning o'zaro sinonimligi: *boshi(i)ga ko'tarmoq-shovqin solmoq, bosh(i)dan kechirmoq - ko'ngl(i)dan o'tmoq, bosh(i)ni bukmoq-yuzini yerga qaratmoq*³⁴ kabilar.

Demak, tilshunos olimlarning ilmiy qarashlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday til, jumladan o'zbek tili ham sinonimlarga boy va bu boylik tilning ohangdorligini, rang-barangligini namoyon etadi. Sinonimlar tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko'rsatib turadigan

³² Umirov I. O'zbek tili parafrazalari. Filol. fan. nom.dis. – Toshkent: 1996, 52 b.

³³ Shamsiddinov X. So'zlarning funksional semantik sinonimiyalari. // O'zbek tili va adabiyoti. № 1, 1995. 65-69 b.; Shamsiddinov X. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari. Filol. fan. dok-ri. ...dis. avtoref. – T: 1999, 14-35 b.

³⁴ Qilichev B. Frazeologik sinonimiya xususida // Ilm sarchashmalari, - № 3, - Urganch: UrDU, 2005. 52-54 b.

hodalardan biri. Sinonimlar yordamida nozik ma'no qirralari anglatiladi, voqelikka turlicha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma'lum bir qirrasini bo'rttirib anglatiladi, ifodalanadi. Sinonimlarni ishlatishda ular orasidagi ayirmalari bilan hisoblashishga to'g'ri keladi. O'z fikrini anglatishda, voqelikka o'z munosabatini ifodalashda yagona o'rinli frazeologik sinonimlar orasidan tanlay ola bilish kerak. Shuningdek, frazeologik sinonimlardan nutqni ixcham, ravon tuzishda va albatta, talaffuzni qulaylashtirishda ham foydalaniladi.

Umuman olganda, FSlar — frazeologik birliklarning g'ayrioddiy mohiyatga egaligi va ahamiyatining semantik o'ttenkasida, funksional-semantik munosabatda va birikmalarda uchrashi mumkin bo'lgan farqlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, bir xil ahamiyatga ega bo'lgan turli tizimli frazeologik birliklardir. Sinonimiya hodisasi leksemalar doirasida bo'lgani kabi frazemalar doirasida ham tez-tez uchraydi va dunyodagi, jamiki tillar orasida o'zining jozibadorligi, ohangdorligi bilan xalqlar, millatlar til boyligini o'zida namoyon etib boraveradi.

I.2. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik sinonimlarning struktur-semantik xususiyatlari

Sinonimiya termini frazeologik birliklarga nisbatan birinchi bo'lib A.V.Kunin tomonidan taqdim etilgan³⁵. Bu muallifning maqolasida struktural sinonimiya tushunchasi va termini beriladi. Muallif frazeologik birliklarning variantlarini shunday ataydi. Struktural sinonimiyaning turlari deb, leksik sinonimiya, grammatik sinonimiya, leksik-grammatik sinonimiya turlari ko'rsatiladi. Frazeologik sinonimiya bo'yicha birinchi bo'lib Y.D.Apresyan frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar masalalariga chuqur yondashgan. Frazeologik sinonimiyaning belgilovchi o'lchovlar sifatida iboralarning ma'nosi, sintaktik funksiyasi, sintaktik formasi, kontekstual xoslanish kabilarni kiritadi. Ma'no³⁶ jihatdan tasnif

qilishda muallif sinonim iboralarni to'liq va qisman sinonimlar guruhiga kiritadi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir masalalar XX asrning 50-yillarida o'rganilgan bo'lsa, frazeologik sinonimlar o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Frazeologik sinonimiya ko'pgina tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortgan masala. Bunday sinonimiya dastlab rus olimlari tomonidan g'arb tillaridagi, jumladan, nemis, ingliz va fransuz tillaridagi materiallar bilan taqqoslangan holatda yoritilgan. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar dastlab tilshunos olim Shavkat Rahmatullayev tomonidan o'rganila boshlandi, va uning 1966-yildagi doktorlik dissertatsiyasi shu asosda nashr etilgan. Olimning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasi bilan o'zbek tilidagi frazemalari lug'aviy birlik sifatida o'rganishga asoslandi. Olim asarda frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin shunday xulosalarni chiqaradi. "Har bir frazeologik sinonimga to'g'ri va to'liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichidan olib, boshqa sinonimlar bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasida o'xshashlik, farqlar ham ta'kidlanadi. Sinonimlar orasidagi farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi. Bunday almashtirish bilan nimadir yo'qotiladi, nimagadir ega bo'linadi. Xuddi shunday "nimadir" sinonimi iboralarning har biriga tilda yashash huquqini beradi³⁷.

Shunday qilib, barcha tillarda bo'lgani kabi nemis va o'zbek tillarida ham frazeologik iboralar mavjud bo'lib, ular nutqda turlicha mazmun va ma'no bo'yoqlarni olgan holda qo'llaniladi. Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning frazemalari doirasida uchraydi³⁸.

Ma'lumki, har bir millatning xalq og'zaki ijodi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelar ekan, asrlar davomida yashab, takomillashib, yangi so'zlar bilan boyib, kengayib boraveradi. Bu borada o'zbek va nemis tillari ham turli iboralar, maqol va matallarga boy bo'lib, ularda xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odat va ma'naviyati o'z ifodasini topgan. Ikki yoki

³⁵ Kunin A.V. Некоторые вопросы английской фразеологии. Англо-русский фразеологический словарь. — М.: Госиздат ин. и научной словарей, 1955, с. 444.

³⁶ Апресян Ю. А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке. Автореф. кандидатский дисс., — М.: 1956.

³⁷ Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. — T.: Fan, 1966, 131 b.

³⁸ Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2011, 34 b.

undan ortiq soʻzdan tarkib topgan, yaxlit bir maʼno ifodalaydigan lugʻaviy birliklarni iboralar yoki frazeologizmlar yoxud frazeologik birliklar deyiladi. Maʼlumki, frazeologik birliklar deyilganda, tilda tayyor holda mavjud boʻlgan va nutqqa shundayligicha olib kiriladigan, shaklan soʻz birikmasi yoki gapga oʻxshaydigan, mazmuni koʻchma maʼnoga asoslangan til birliklarini yoki lugʻaviy birliklarni tushunamiz.

Hozirgi oʻzbek frazeologiyasida qabul qilingan qarashlarga koʻra, frazeologik sinonimlar muayyan nutqqa kiritilgunga qadar ham mazmun, ham ifoda planida shakllanib boʻlgan va til isteʼmolchilari tomonidan shu holatda anglab yetilgan hamda qabul qilingan boʻladi. Shuningdek, frazeologik sinonimlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam boʻladi, ular chuqur va boy maʼnoga ega boʻlishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida koʻrk, tarovat bagʻishlaydi. Frazeologik sinonimlar va ularning morfologik va semantik xususiyatlarini oʻrganish oʻziga xos uslubni taqozo etadi, shuningdek, boshqa bir qator tilshunoslik fanlari – leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, leksikologiya, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik fanlari maʼlumotlariga tayangan holda oʻrganishni talab etadi. Frazeologik sinonimlarning baʼzi muammolari boʻyicha mutaxassislarning fikrlari turlicha. Binobarin, frazeologiya sohasida ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilarning oldida turgan vazifalardan biri – mavjud nazariy va amaliy fikrlarni umumlashtirib, toʻgʻri ilmiy tadqiqotni amalga oshirishdan iboratdir.

Frazeologiya va uning masalalari borasida izlanishlar olib borgan V.V.Vinogradov, Y.D.Polivanov, B.A.Larin, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, L.P.Smit va Sh.Balli, Sh.Raxmatullayevlarning mazkur sohaning taraqqiyotida xizmatlari kattadir.

Nemis va oʻzbek tillaridagi sinonimiya hodisasining lugʻaviy sinonimiya, grammatik sinonimiya, affiksial sinonimiya kabi turlari boʻyicha bir qancha ishlar yaratilgan. Nemis va oʻzbek tillarida frazeologik sinonimlarning tuzilishi, komponent tarkibi, soʻz turkumlariga boʻlgan munosabati, ularning semantik va uslubiy xususiyatlari, individual-muallif frazeologik sinonimlar, frazema komponentlarining turli struktur-semantik oʻzgarishlarga uchrashi asosida frazeologik sinonimlarning vujudga kelish omillarini tadqiq etish monografiyaning asosiy maqsadi qilib olindi. Shuningdek, frazeologik sinonimlarni oʻzbek tiliga tarjima qilishdagi

muammolarni hamda ularga ekvivalent va muqobil va muqobil boʻlmagan frazeologizmlarni aniqlash borasida izlanishlar olib borildi.

-nemis va oʻzbek tillaridagi sinonimiya hodisasining keng tarqalish sabablarini aniqlash;

III - frazeologik sinonimiya hodisasining tilshunoslikda oʻrganilishi masalasiga munosabat bildirish;

IV - frazeologik sinonimlarning soʻz turkumlariga boʻlgan munosabatini tadqiq etish;

V - frazeologik sinonimlarning semantik xususiyatlarini aniqlash va tahlil etish;

VI - nemis tilida mavjud frazeologik sinonimlarni oʻzbek tiliga tarjima qilish muammolari hamda ularni ekvivalent, qisman mos kelish yoki umuman mos kelmaslik holatlarini tahlil qilish va asoslash.

Bunda turli badiiy asarlardan olingan frazeologik sinonimlar va ayrim frazeologik lugʻatlar tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Frazeologik sinonimlarni toʻplash, oʻrganish va morfologik va semantik sistemalash, shuningdek, ularni nemis tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish muammolari oʻrganildi.

Frazeologik sinonimlarning original tildan tarjima tiliga asl maʼnosini saqlagan holda tarjima qilish, birikmalar birikishida va morfologik – semantik uygʻunlik va mantiq muvofiqligiga erishish frazeologik sinonimlarning original tildan tarjima tiliga asl maʼnosini saqlagan holda tarjima qilish, birikmalar birikishida va morfologik - semantik uygʻunlik va mantiq muvofiqligiga erishiladi.

Frazeologik sinonimlar komponentlari semantik yaxlitlik jihatidan tasniflandi va misollar asosida koʻrsatib berildi. Frazeologizmlar tarjimasi amaliyotida hukm suruvchi uch prinsip orqali hamda mavjud frazeologik lugʻatlardan foydalanish asosida bilvosita tarjima, toʻla mos kelish, qisman mos kelish va umuman mos kelmaslik holatlari misollar orqali ochib beriladi.

Monografiyada frazeologik sinonimlarning struktur – semantik, funksional-uslubiy xususiyatlarini yoritishda izohlash, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Frazeologik sinonimlar morfologik va semantik tahlillar asosida toʻgʻridan toʻgʻri yoki ekvivalentlari asosida, yoxud soʻzlarning mos

kelishi orqali tarjima qilish, bevosita tarjima orqali amalga oshirildi. Asosiy tahlil metodikasi fakt va dalillari qiyosiy-tipologik hamda uslubiy jihatdan tekshirildi.

Tadqiqotda nemis va o'zbek tillaridagi sinonimiya hodisasining keng tarqalish sabablari funksional-semantik va struktural jihatdan tadqiq etildi. Frazeologik sinonimlarning so'z turkumlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra fe'l so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar, sifat so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar va ravish so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar va ot so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlarga guruhlab o'rganildi. Olib borilgan tadqiqot natijasi xulosalari va materiallaridan frazeologizmlarni qiyosiy-tipologik o'rganishda va ularning umumiy nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Mazkur tadqiqot frazeologik sinonimlarni morfologik tasniflashda ichki va tashqi tuzilishini o'rganishda, semantik jihatdan frazeologizmlar va ularni original tildan tarjima tiliga o'girish muammolari haqida tushuncha va ko'nikmalar yaratadi, shuningdek, frazeologiya va leksikologiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlar uchun material sifatida qo'l keladi.

Ushbu monografiyada nemis tilidagi frazeologik sinonimlar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlarini topish va ikki tildagi sinonimlarni qiyoslash masalalari o'rganilgan.

Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda frazeologik sinonim tushunchalarining ta'rif, xususiyatlari, frazeologik sinonimlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi va muqobil tanlash hamda uni tahlil qilish, ularning morfologik hamda semantik jihatdan farqi, o'xshashligi va boshqa xususiyatlar tahlil qilinadi.

Ma'lumki, har bir narsa – buyum, har bir harakat, xususiyat, narsa – buyum orasidagi munosabat tilda alohida so'z yoki so'z birikmasi ko'rinishida o'z nomiga ega. Biror narsa-buyum, hodisa, xususiyat kabilarga oid biror bir tushuncha uchun tilda to'liq yoki to'liqsiz ma'no bo'yicha mos keluvchi boshqa so'z hosil bo'ladi.

Ba'zan so'zlar boshqa tildan yangi ma'no bilan birga o'zlashtirib olinadi. Mavjud bo'lgan tushuncha uchun qo'llaniladigan boshqa nomlar esa, har doim ham boshqa tildan o'zlashtirib olinavermaydi, ular shevalardan kirib kelgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, mavjud tushunchaning boshqacha nomi so'z ma'nosining o'zgarishi natijasidan

ham kelib chiqadi. Masalan, nemis tilida "bosh" tushunchasini "Haupt" so'zi ifodalaydi. "Kopf" so'zi esa avvallari "ichimlik uchun idish" ma'nosini anglatgan. Turli tarixiy sabablarning ta'sir kuchi natijasida "Kopf" so'zi o'z ma'nosini o'zgartirib bordi va hozirgi zamonaviy nemis tilida bu so'z "Haupt" so'zi kabi "bosh" ma'nosini anglatadi va "Kopf" so'zi stilistik jihatdan neytral va yuqori so'zlashuv uslubiga xos. "Haupt" so'zidan farqli o'laroq "Kopf" so'zi keng qo'llaniladi.

Xullas, biror bir yoki aynan shu tushunchani ifodalash uchun tildagi ikki yoki undan ortiq so'zlar ma'no jihatdan to'liq mos kelishi hamda ma'no turi, uslubiy bo'yoqdorligi va qo'llanilishi jihatidan ham farqlanishi mumkin. Bunday so'zlar sinonimlar deb ataladi. Sinonimlar har doim gapning bir xil qismiga tegishli bo'ladi. Masalan, *hübsch – schön*.

Sinonim so'zi grek tilidan olingan bo'lib, "bir xil nomli" degan ma'noni bildiradi. Qoida bo'yicha biror so'z bir qancha ma'noga ega, odatda, o'zining bir ma'nosi bilan boshqasiga sinonim bo'ladi, bunday holda, so'zning bir xil ma'nodagi varianti yoki ma'nodosh so'zlar sinonim hisoblanadi.

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham ko'p miqdorni tashkil etadi. Ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gap yuritib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolikni teng ma'nolik deb tushunib bo'lmaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'nodan tashqari, o'ziga xos ma'noga ega bo'ladi³⁹.

Sinonim tushunchasi zamirida asosan sinonim so'zlar emas, balki so'zlarning ma'no sinonimlari tushuniladi. Ko'pgina so'zlar ma'no jihatdan boy bo'lishini hamda asosiy va ikkilamchi, ya'ni variant ma'nolarga ega bo'lishini hisobga olib so'zlarning ma'no sinonimlarini bir necha qismlarga ajratish mumkin:

a) ikki so'zning asosiy ma'nosidagi sinonimiya: *das Meer – die See; die Frau – das Weib*. Bu so'zlarning ikkalasi ham bir ma'noni "daryo" va "ayol" ma'nolarini anglatadi va gapda bir-birini sinonim sifatida to'ldirishi mumkin.

b) asosiy ma'nodagi bir so'zning ikkilamchi ma'nodagi boshqa so'zga sinonimligi: *fahren – gehen*.

³⁹ Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978, 6 b.

c) ikkilamchi ma'nodagi ikki so'zning sinonimligi: *sich aufklären* va *sich aufhellen* so'zlari ob-havoga nisbatan yorishmoq ma'nosini bildiradi.

Sinonimning bu uch ko'rinishiga yana ikki asosiy qismlar mansub:

d) o'z ma'nosidagi bir so'zning frazeologik ibora bilan sinonimligi: "faulzen" fe'li "auf der Bärenhaut liegen" iborasiga sinonim bo'lib, "bekor yurmoq", "tanballik qilmoq", "dangasalik qilmoq" ma'nolarini bildiradi.

e) ikki va undan ortiq frazeologik iboralarning sinonimiyasi; Masalan: *den Mund voll nehmen*; *eine grosse Klappe haben*; *grosse Bogen spucken*; *auf die Rauke hauen* frazeologik iboralari bitta ma'noni, ya'ni "maqtanmoq" ma'nosini bildiradi.

Biz esa ushbu monografiyada asosan frazeologik iboralarning o'zaro sinonim bo'lib kelishi haqida to'xtalib o'tamiz.

Frazeologik sinonimiya va polisemiya muammolarining o'rganilishi 50-yillar o'rtalariga taalluqli bo'lib, tilshunoslik fanlari kabi frazeologiyaning rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Ayniqsa, bu ikki muammolardan frazeologik sinonimiya chuqur o'rganilib borilmoqda⁴⁰.

Leksik birliklarga xos bo'lgan va bir-biriga yaqin mantiqiy ma'no kasb etgan til birliklari singari, frazeologizmida ham to'laligicha mos keladigan yoki umumiy ahamiyati ma'lum semantik ko'rinishlarni aks ettiruvchi turli tizimga xos xususiyatlariga ega muhim birikmalarni kuzatish mumkin. Semantik ko'rinishlardan farqli o'laroq, umumahamiyat jihatidan mos keluvchi frazeologik birliklar funksional-stilistik jihatdan farq qilishlari hamda turli birikishga ega bo'lishligi mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, frazeologik sinonimlar bu – frazeologik birliklarning g'ayrioddiy mohiyatga egaligi va ahamiyatining semantik ottenkasida, funksional-semantik munosabatda va birikmalarda uchrashi mumkin bo'lgan farqlar mavjudligiga qaramasdan, bir xil ahamiyatga ega bo'lgan turli tizimli frazeologik birliklardir.

Frazeologik sinonimiya frazeologiyaning muhim bir bo'limi bo'lib, nemis va o'zbek tilshunosligida uning roli beqiyosdir.

Frazemalarning ayni bir ma'noni anglatishi asosida guruhlanishi frazeologik sinonimiya deyiladi⁴¹. Ya'ni, bunga biroz aniqlik kiritadigan bo'lsak, frazeologik sinonimiya – frazeologik birliklarning o'zaro sinonim bo'lishidir.

Frazeologik sinonimiya lug'aviy sinonimiyaning bir turi hisoblanadi. Ushbu tushunchaga ko'pgina tilshunos olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. "Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashtirishdir", deb ta'rif beradi H.Jamolxonov o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili"⁴² nomli kitobida.

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi. Masalan: *Von A bis Z*, *Von Kopf bis Fuss* boshidan oxirigacha, ipidan ignasigacha, miridan sirigacha.

Bu frazemalar o'zbek tilida "to'liq, batafsil" ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida ham yuqorida keltirilgan frazemalarning bir nechta muqobili mavjud: *ipidan ignasigacha*; *boshdan oyoq*; *miridan sirigacha*; *qilidan quyrug'igacha*.

Bu frazeologizmlar tubida qanday ma'no yashiringanini bilish unchalik mushkullik tug'dirmaydi. Chunki, "A" harfi alifboning boshida, "Z" harfi esa oxirida keladi hamda "Kopf" va "Fuss" ya'ni "bosh" va "oyoq" inson tashqi organlariga tegishli so'zlar bo'lib, ularning biri yuqorida, biri esa pastda joylashgan. Demak, o'z-o'zidan bu frazeologizmlar "boshidan oxirigacha" ma'nosini bildiradi, degan xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, *von A bis Z* va *von Kopf bis Fuss* frazeologizmlari bir-biriga sinonim hisoblanadi.

Nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning o'ziga xos xususiyati mazmunan o'zaro teng bo'lgan sinonimlar guruhidan iboratligidir. Bu esa, albatta, leksik sinonimlarga xos bo'lmagan holatdir.

Frazeologik sinonimlar birinchidan tizim va komponentlar o'rtasidagi farqqa asosan, ikkinchidan esa, frazeologik birliklardagi semantik va stilistik o'zaro aloqaga asosan va uchinchidan, ularning tilda vujudga kelishi uslubiga ko'ra o'rtasidagi farqlar kuzatiladi.

⁴⁰ Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. – Москва: Высшая школа, 1970, с. 80.

⁴¹ Tursunov U., Muxtorov Y., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992, 113 b.

⁴² Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005, 222 b.

Komponentlarning to'la mosligini va bitta yoki bir nechta o'zgaradigan komponentlardan tashqari leksik tarkiblarining deyarli to'laligicha o'xshashligini aks ettiruvchi frazeologik sinonimlar tizimli sinonimlar deb yuritiladigan bo'ldi. Frazeologik sinonimlarning semantik, stilistik, funksional jihatlardan teng ahamiyatga egaligi ham turli tizimdagi, ham bir xil tizimdagi birliklarga xos bo'lgan holatlardir. Demak, tizimli sinonimlar ikkiga: turli tizimli, ya'ni turli xil komponentlardan tashkil topgan frazeologik sinonimlar, hamda bir tizimli, ya'ni tarkibidagi komponentlar bir tartibda bir xil qo'llangan frazeologik sinonimlar. Bunga misol tariqasida "dumm sein", ya'ni "jinni bo'lmoq" va "j-n zur Ordnung rufen" – "tartibga chaqirmoq" iboralarining umumiy mohiyatini yoritish uchun shu iboralarga tegishli bo'lgan frazeologik sinonimlarni tizimli sinonimlarga ajratgan holda kundalik so'zlashuvdagi frazeologizmlar bilan qiyoslaymiz:

1) turli tizimli : *dumm wie Bohnenstroh sein; j-d ist dummer, als (es) die Polizei erlaubt; (Heu und) Stroh im Kopf haben; ein Mondkalb sein; ein Brett vor dem Kopf haben; j-d hat eins mit dem Holzhammer abgekriegt*⁴³.

2) bir tizimli: *j-m den Kopf waschen; j-m auf den Kopf kommen; j-m die Leviten lesen; j-m den Marsch blasen; j-m über den Mund fahren; j-m die Linie verpassen*⁴⁴.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har ikkala turli va bir tizimli sinonimlar qatorini tahlil qiladigan bo'lsak, "dumm sein", ya'ni "jinni bo'lmoq" ma'nosini anglatuvchi yuqorida keltirilgan barcha frazeologik sinonimlarning tarkibiy komponentlari turli xil tizimda tuzilgan hamda grammatik jihatdan ham har xil joylashgan. Birinchi keltirilgan "dumm wie Bohnenstroh sein" frazeologizmida komponentlar Adj + S + V tarzida joylashgan bo'lsa, ikkinchi frazeologizmida S + Adj + S + V tarzida va uchinchi "Stroh im Kopf haben" frazeologizmi tarzida joylashgan. Ushbu "dumm sein", ya'ni "jinni bo'lmoq" iborasi o'zbek tilida ham bir nechta muqobiliga ega. Masalan: *aqlidan ozmoq; aqlini yo'qotmoq; tomi ketgan; esini eb qo'ymoq; esidan og'moq; esi kirdi-chiqdi bo'lib qolmoq*.

Biroq, ushbu keltirib o'tilgan frazeologizmlar nemis tilidagi frazeologik muqobillaridan farqli o'laroq, tizim jihatidan bir tizimli hisoblanadi va ot + fe'l (S+V) tarzida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan keyingi bir tizimli sinonimik qator turli tizimli frazeologik sinonimlardan farqli o'laroq, grammatik jihatdan hamma komponentlari bir xil tartibda tuzilgan, ya'ni barcha frazeologik sinonimda S+V formulasini uchratish mumkin. Demak, shuning uchun ham bu frazeologik sinonimlar bir tizimli sinonimlar, deb yuritiladi.

Bu frazeologizmlarda qatnashuvchi komponentlardan faqatgina ot komponenti har xil sinonimik qatorlar bilan almashtirildi. Ammo barcha sinonimlarning mazmun-mohiyati o'zgargani yo'q. Eng muhimi, bunday frazeologik sinonimlar turli kontekstlarda qo'llaniladi.

Sinonim yoki komponentlarning frazeologik birlik tarkibidagi o'zaro almashuvi asosida ular tizimda, leksik tarkibda umumiylikka erishadi va bir-ikki komponentlarining leksik ko'rinishi bilan bir-birlaridan farq qiladi.

Ko'rib chiqilgan "j-n zur Ordnung", ya'ni "kimnidir tartibga chaqirmoq" iborasini anglatuvchi o'zbek tilidagi frazeologizmlar nemis tilidagiga nisbatan biroz kamroq uchraydi: *qulog'idan tortib qo'ymoq; nasihat qilmoq; ma'ruza o'qimoq*.

Tilda tizimli sinonimlarning paydo bo'lishi yoki bir tizimli sinonimlarning vujudga kelishi ikki jarayon natijasida amalga oshishi mumkin:

1. Frazeologizmlarning turli komponentlarini mos kelishi asosida paydo bo'lgan sinonimik qatorlar.

2. Tilda va iste'molda mavjud frazeologizmlardan paydo bo'lgan frazeologik birikmalarning vujudga kelishi.

Mazmunan teng bo'lgan frazeologik sinonimlar nafaqat turg'un, balki uzluksiz kengayish xususiyatiga ham egadir. Frazeologik sinonimlarning bunday alohida xususiyatga egaligiga sabab ularning frazeologizmlardan iborat obrazli semantik butunlikka ega bo'lganligidir. Frazeologizمنى tizim jihatidan o'ziga xosligi, ya'ni alohida shakllanishi, frazeologizmlarni sinonimik jihatdan boshqarish uning konnotativ xususiyatini kuchaytirish uchun asos bo'la oladi. Bu frazeologik birliklarning til va so'zlashuvdagi xususiyati, mohiyatan komponentlarni

⁴³ Касландзия В.А. Синонимия в немецкой фразеологии. - Москва: 1990, 27 с.

⁴⁴ O'sha asar 89 с.

yangilash bilan bog'liqdir⁴⁵. Demak, frazeologik sinonimlar nutqimizga xos bo'lgan muhim til vositalaridan biridir.

1.3. Nemis tilida frazeologik sinonimlarning morfologik xususiyatlari

Yuqorida fe'lli frazeologik sinonimlar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari ko'rsatib o'tildi. O'z navbatida, fe'lli frazeologizmlar birga qo'llaniladigan so'z komponentlarga ko'ra yana bir necha qismlarga ajralgan holda ko'rsatib o'tildi.

Ushbu monografiyada inson tana a'zolariga (Auge, Haare, Kopf, Lippen, Mund, Nase, Ohren, Stirn, Zahne, Zunge) oid frazeologizmlar va ularning sinonimlari ko'rib chiqilayotgani bois va tahlil natijasi asosida ularning orasida otli frazeologizmlar ancha kam miqdorni, ya'ni 3% ni tashkil etishi aniqlandi.

Bu frazeologizm predlog + ot formulasi asosida qurilgan. Biroq, uning sinonimlari fe'lli frazeologizmga kiradi. O'zbek tilidagi muqobili esa, nemis tilidagi frazeologizmga to'liq ekvivalent hisoblanadi. Masalan: *alle Nase lang, alle naselang - har soniyada, jede Nase lang - har daqiqa.*

Bu frazeologik sinonimlar ham otli frazeologizmlar tarkibiga kirib, ular son + ot + sifat formulasi asosida tuzilgan.

Quyidagi esa fe'lli va otli frazeologik sinonimlar strukturaviy klassifikasiya jihatidan tahlil qilingan. Ularning deyarli barchasida *ot + fe'l, ya'ni S + V* formulasini uchratish mumkin: *j-m nach dem Mund reden / S + V, tilyog'lamalik qilmoq / ot + fe'l, j-m um den Bart gehen / S + V/- tilyog'lamalik qilmoq / ot + fe'l.*

Bu frazeologik sinonimlar "*j-m schmeicheln*", ya'ni "*kimgadir xushomad qilmoq*" ma'nosida keladi. Darüber kann man sich nur wundern - hayratlanmoq, ajablanmoq: Darüber kann man nur den Kopf / S + V/, hayratdan yoqasini ushlamoq / ot + fe'l/, da greift man sich an die Stirn / V + S/, og'zi ochilmoq; hayratda qolmoq / ot + fe'l, mutlos werden - jur'atsiz bo'lmoq, den Mut sinken lassen / S + V/- ko'ngli cho'kmoq / ot + fe'l/.

Yuqorida ko'rib chiqilgan misollarning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning ko'p foizi (97%) fe'lli frazeologizmlardan iborat. Otli frazeologizmlarning sinonimlari ham fe'lli frazeologizmdan iborat bo'lishi mumkin.

Fe'lli frazeologizmlarda fe'l bosh ma'noni boshqarib keladi. Berilgan frazeologizmning tubida yashiringan asl ma'nosi ham ko'pincha fe'l bilan ifodalanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, frazeologizmlar va ularning sinonimlari fe'lli yoki otli bo'lishidan qat'i nazar, nutqimiz ko'rki hamda xalq donoligining ifodasi demakdir.

FSlarning struktural xususiyatlarini tashqi strukturasiga ko'ra, ya'ni frazema komponenti sifatida ishtirok etayotgan so'zlarning turkumli va miqdoriga qarab ham tasniflanadi. Ularning tashqi strukturasiga qarab guruhlariga ajratiladi. Frazeologik birliklar tarkibidan so'z (komponentlar) miqdori asos qilib olinadi. Bunday guruhlash natijasida FSlar tabiatiga ko'ra, necha so'z (komponentlar)dan tashkil topganligi aniqlanadi. Biz nemis va o'zbek tillarining gap qurilishi ikki xil bo'lganligi sababli ikki tildagi frazemalarni morfologik tasniflashda ularni alohida ko'rib chiqamiz.

Frazeologik sinonimlarni tahlil qilishda V.Flaysherning frazeoleksemalarni morfologik va sintaktik tasnifiga asoslanib ularni to'rt guruhga ajratamiz.

Ot so'z turkumiga oid FSlar;

Sifat so'z turkumiga oid FSlar;

Ravish so'z turkumiga oid FSlar;

Fe'l so'z turkumiga oid FSlar.

Endilikda FSlarning tuzilish komponent tarkibini yorqinroq tasavvur etish uchun ulardan har birini alohida o'rganish yaxshi samara beradi.

Ot so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar

Nemis tilida FSlar orasida ot frazeologik birikmalarni ko'plab uchratish mumkin. Ot FSlar da asosiy komponent *ot* bo'ladi va yordamchi komponentlar sifatida fe'l va boshqa leksemalar ishtirok etadi. Shuningdek, bu *ot* boshqa so'z turkumlari, masalan, sifat bilan, qaratqich kelishigidagi *ot*, qo'shimchali aniqlovchi bilan bog'lanishi mumkin. Nemis

⁴⁵ Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немско - русский фразеологический словарь. - Москва: 1975, с. 655

tilidagi frazeologizmlarni tartiblash jarayonida FSlarni quyidagi ko'rinishlarda uchratish mumkin.

1. Sifat + Ot komponentli frazeologik sinonimlar

dumme (od. *alberne*) *Gans* (umg.) - *dummes* (od. *albernes*) *Huhn* - *dumme* (od. *blöde*) *Ziege*. (Eine Dumme, alberne, (weibliche) Person.

1) Auf der Ausstellung werden zum Teil sehr merkwürdige Bilder gezeigt. Ich nehme daher nur diejenigen von euch mit, die sich ernstlich dafür interessieren. Dumme (alberne) Gänse kann ich dabei nicht brauchen.

2) Wie konntest du diesem dummen (albernen) Huhn glauben!

3) Lass sie schwatzen! Ich achte nicht darauf, was diese dumme (blöde) Ziege sagt.

2. Ot+sifat aniqlovchi komponentli frazeologik sinonimlar.

Bu turdagi FSlar juda kam uchraydi.

Kaffee verkehrt - *Kaffee komplett*. (Milch mit etwas Kaffee. Kaffee mit Zucker und Sahne.)

3. Ot+qaratqich kelishigidagi ot aniqlovchi komponentli frazeologik sinonimlar.

Bu turdagi FSlarni birinchi tur va to'rtinchi turlarda tez-tez almashtirib turiladi.

Der Abend des Lebens (Alter), *der Abschaum der Gesellschaft* (verkommene Menschen), *das Auge des Gesetzes* „Polizei“, *das Rad der „Geschichte“* „geschichtlicher Untergang“, *das grüne Herz Deutschlands* „Thüringen“, *das edle Blut der Reben* „Wein“ ko'rinishidagi frazeologizmlar ushbu turga mansubdir.

4. Ot + predlog aniqlovchi komponentli frazeologik sinonimlar asosiy tayanch komponent ot bilan ifodalanadi.

ein Wink mit dem Laternenpfahl - *ein Wink mit dem Zaunpfahl*, (*ein unmissverständlicher Hinweis*.)

Dr. Schmidts Bemerkung über die grosse Pünktlichkeit seiner Patienten war wohl ein Wink mit dem Zaunpfahl. Was? Wir müssen in Zukunft pünktlicher sein.

5. Ot+tuslanmagan ot komponentli frazeologik sinonimlar. Bunday FSlar ko'p hollarda atoqli otlarda uchraydi. Bu juda kam hollarda

ishlatiladi va takrorlanmaydi. Bunday FSlarda o'z nomi saqlanib qoladi.

Anno Tobak-Anno dazum!-(in,od. vor) *Olims Zeiten*. (Vor langer Zeit.)

1) Dieser Zylinder stammt noch von Anno Tobak.

2) Mein Enkel fragte mich, wann war denn das? Weil ich mich nicht genau erinnern konnte, sagte ich -in (vor) Olims Zeiten.

Ot vazifasidagi juft so'zli komponentli frazeologik sinonimlar.

Ot turkumiga kiradigan FSlarning yana bir o'ziga xos turi ot juft so'zlar ot vazifasida ham fe'l yoki ravish vazifasida ham kelishi mumkin.

Hab und Gut „Besitz“, *Das Wohl und Weh(e)* „das Geschick“, *das Tun und Treiben* „das Verhalten, Handeln“, *das Kommen und Gehen* „starker Publikumsverkehr“.

Sifat so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar

Nemis tilida sifat FSlar hakida gap ketganda aytish mumkinki, frazeologiyashunos olimlar I.I.Chemisheva va A.Rotkegellar sifat ishtirokidagi frazeologizmlarning asosiy qismi ot va ravish bilan kelganligi uchun ularni ot va ravish frazeologizmlar guruhiga kiritadi. Ular fe'l bilan kelganda esa fe'l tipidagi frazeologizmlar guruhiga kiritilgan.

Biz quyida sifat FSlarni bir qator turlarini misollar bilan ko'rib chiqamiz.

Blau sein-voll sein (betrunken sein)

1) Eigentlich wollten wir bei Werner Silvester feiern, aber als ich gegen 5 Uhr mal bei ihm hineingeschaut habe, war er schon blau wie ein Veilchen, sodass wir lieber daheim geblieben sind.

2) Sie sind nur voll. Voll wie eine Strandhaubitze (E.M. Remarque. „Drei Kameraden“).

Grau in grau - schwarz in schwarz (alle Dinge trostlos, hoffnungslos sehen).

1) Sie müssen ihm auch Bildung verkaufen, ich meine Bücher, ich denke an billige Romane, solche Sachen, die Leben nicht grau in grau, sondern in lichterem Farben malen. (B.Brecht. «Dreigroschenroman».)

2) Kroges alte Mitarbeiterin und Freundin bemerkte: «Du siehst wiederum alles schwarz in schwarz, Oskar! Es ist ja schließlich keine Schande, Dora Martin gastieren zu lassen». (H.Mann. «Mephisto»).

Armes Luder - armes Schwein - armer Teufel (ein bedauernswerter Mensch)

1) Die alte Blumenfrau, die bei uns an der Haustür verkauft, ist ein armes Luder. Sie hat niemanden mehr auf der Welt. (MDtI)

2) Er sagte «Guten Morgen!», und es fiel Yenttäuschung wie Schatten über sein Gesicht, als er den Platz hinter der Theke leer sah. «Guten Morgen!» sagte ich und dachte: «armes Schwein». (H.Böll «Und sagte kein einziges Wort».)

3) Er ist wirklich ein armer Teufel! Jetzt wohnt er allein in seinem Haus. (Konstr.)

Gut bei Liebe- dich wie ein Fass. (Dick sein)

1) Sonst war mein Freund immer gut bei Liebe, aber jetzt lag er lange Zeit im Krankenhaus und ist mager geworden. (Konstr.)

2) Die Frau war immer schlank wie eine Tanne, jetzt aber wurde sie dick wie ein Fass. (Konstr.)

Grosse Rosinen im Kopf haben- große Graupen im Kopf haben. (Grosse Pläne haben.)

1) Wie jetzt der Heine vor seiner Mutter redete, so dreist und kalt, derselbe Heini, der jetzt Rosinen im Kopf hatte von Führerschulen und von der SS (A.Seghers, «Das siebte Kreuz»)

2) Meine Mutter war immer sonderbar, und Arthur, der Jüngste, hatte stets grosse Graupen im Kopf, Astronom wollte er werden. (Br. Apitz, «Regenbogen».)

Glatt von der Lippen- glatt (od. leicht) von der Zunge. (Mit Leichtigkeit gesagt werden.)

1) Sieh dich bei ihm vor! Die größten Gemeinheiten gehen ihm glatt von den Lippen.

1) Die schwierigsten englischen Leute gehen ihm glatt von der Zunge. Frazologizmlar orasida sifat juft so'zlar kam uchraydi. Ular kamchilikni tashkil etsada lekin og'zaki va yozma muloqotlarda keng ishlatiladi.

Klipp und klar-doppelt-gemoppelt.

1) Er erschien eines Tages bei Fabian und wünschte klipp und klar zu wissen, welche Zeit nach Ansicht der Fachleute nötig sei, um den sämtlichen Schaden wieder auszubessern? (B.Kellermann «Totentanz».)

Ravish so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar.

Nemis tilida ravish so'z turkumi ishtirokidagi FSlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning asosiy qismida asosiy komponent otdan iborat bo'ladi.

1. Präposition + Substantiv. Predlog+ot ishtirokidagi ravish FSlarda ot artikl bilan yoki artiklsiz kelishi mumkin.

Auf einer Sprung - auf einen Huch (für kurze Zeit)

Am Bändel- unter dem Pantoffel- beim Kragen (Jemanden in der Gewalt haben)

1) Das Schlimme ist, er merkt gar nicht, wie sehr seine Frau ihn am Bändel hat.

2) Ich bin nicht so ganz überzeugt, dass ihn unter den Pantoffel hat. (KlddS)

3) Der Teufel spürt das Völkchen nie. Und wenn er sie beim Kragen hätte. (J.W.Goethe. «Faust»)

2. Präposition+attributiverweitertes Substantiv.

Predlog+aniqlovchi kengaytirilgan ot tipidagi ravish FSlar.

Auf einer falschen Fährte - auf der falschen Welle - auf dem falschen Dampfer, (sich irren)

1) «Es handelt sich nicht um ihn, sondern um seine Junge Frau»- «Ja, da sind Sie auch wieder auf einer falschen Fährte» (Th. Fontane «Der Stechlin»)

2) Auf diesem Wege kannst du die mathematische Aufgabe nicht lösen, da bist du nämlich auf der falschen Welle.

3) Glaube ja nicht, dass die jungen Leute Walzer tanzen wollen. Da bist du auf dem falschen Dampfer!

3. Substantiv + und + Substantiv: Ot + bog'lovchi+ OT tipidagi ravish FSlar.

Sage und schreibe - Höre und Staune (tatsächlich, obwohl es unglaublich scheint.)

1) Sage und schreibe 1200 fleißige Helfer fanden sich auf den Feldern der LPG, ein, um Erdbeeren zu ernten.

2) Neunundzwanzig Jahre, sage und schreibe, liegen die weißen Kniestrümpfe nun in schwarzen Moorloch. (M.V.Schulz. Triptychon mir sieben Brücken, 154.)

4. Adjektiv/Adverb + und + Adjektiv/ Adverb. Sifat yoki ravish + bog'lovchi+sifat yoki ravish tipidagi ravish FSlar.

Durch und durch- über und über, (völlig, ganz und gar)

5. Präposition+Substantiv+und+Substantiv: Predlog + ot + predlog tipidagi ravish FSlar.

Mit Ach und Krach-mit Mühe und Not-mit Hängen und Würgen- mit Hangen und Bängen. (nur mit Mühe, mit grösser Anstrengung.)

1) Wie ist denn die Prüfung eures Sprösslings ausgefallen? – Na ja, sagen wir mal, er ist gerade so mit Ach und Krach durchgekommen.

2) Aber da sei die Feuerwehr am Tatort erscheinen, und er hat nur mit äusserster Mühe und Notverhindern können, dass diese ihre Pumpe angesetzt gehabt habe, den langsam ausglühenden Jeep unter «Wasserbeschuss» genommen und soeventuelle Spuren und Beweise zerstört hätte. (H.Böll. «Ende einer Dienstfahrt».)

3) Ich bin gerade noch mit Hängen und Würgen fertig geworden; bei nahe hätte ich denn Zug nicht mehr gekriegt.

4) Er hat den Schulabschluss mit der Gesamtnote 4. erreicht, wahrscheinlich mit Hangen und Bängen.

6. Präposition + Substantiv + und + Präposition + Substantiv: predlog+ ot+ bog'lovchi+ predlog + ot ko'inishidagi ravish FSlar.

Vom Scheitel bis zur Sohle -vom Wirbel bis zur Zehe (durch und durch)

1) Er ist Gentleman vom Scheitel bis zur Sohle.

2) Börne war Patriot vom Wirbel bis zur Zehe. (H. Heine. «Ludwig Börne».)

Fe'l so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar.

Nemis tili frazeologiya tizimidagi frazeologik birliklarning asosiy qismini fe'l FSlar, ya'ni ular tildagi barcha frazeologik sinonimlarning 97 foizini tashkil qiladi. Bunday frazemalar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topib, asosiy tayanch komponent fe'l bilan, notayanch komponent esa ot (yoki boshqa) leksema bilan ifodalanadi. Tildagi fe'l FSlarning lug'aviy tarkibida fe'l so'z komponentidan tashqari ot ham ishtirok etib, bu komponent o'ziga sintaktik shakl yasovchi affikslarni qabul qiladi va buni isbotlovchi vositasida fe'l frazema uch shaxsdan biriga taalluqli bo'ladi. Tildagi frazeologizmlar ikki komponentdan iborat fe'l frazemalariga ajratiladi. Sintaktik tuzilishiga ko'ra, fe'l komponentlari ot-, sifat-, ravish guruhlarga ajratiladi. Ishimizda ularning asosiy qismini ko'rib chiqdik.

1.4. O'zbek tilida frazeologik sinonimlarning morfologik xususiyatlari

O'zbek tilida frazeologik sinonimlarni tashqi strukturasi qaray quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

- ikki komponentli FSlar;
- uch komponentli FSlar;
- to'rt va undan ortiq komponentli FSlar⁴⁶.

Frazeologik birliklarning ichki semantik xususiyatidan kelib chiqib, ularning ot, fe'l, sifat, ravish kabi turkumli semalari belgilanadi: o'zbek tilida *joni chiqdi – g'azabi qaynadi, yog' tushsa yalagudek – chinni chiroq qilmoq, daryodan bir tomchi – o'tdan bir uchqun* kabi frazemalarga morfologik jihatdan qaraganda, ulardan kelib chiqadigan ko'chma ma'no, (predmetning harakat holati, predmet belgisi, harakat belgisi) fe'l, sifat, ravish so'z turkumlarining lug'aviy ma'nosiga teng keladi. Shunga ko'ra, o'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarni professor Sh.Raxmatullayevning ilmiy qarashlariga tayangan holda morfologik semantikasi uchga ajratilgan holda tasniflanadi.

Fe'l frazeologik sinonimlar;

Sifat frazeologik sinonimlar;

Ravish frazeologik sinonimlar⁴⁷.

Fe'l so'z turkumiga oid frazeologik sinonimlar. O'zbek tilidagi frazeologiya tizimidagi frazeologik birliklarning asosiy qismini fe'l frazeologik sinonimlar tashkil etadi. Bunday frazemalar ikki yoki undan ortiq leksemadan tashkil topib, asosiy tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti esa ot (yoki bopqa) leksema bilan ifodalanadi. O'zbek tilidagi fe'l frazeologik sinonimlarning lug'aviy tarkibida fe'l so'z komponentidan tashqari ot ham ishtirok etib, bu komponent o'ziga sintaktik shakl yasovchi affikslarni qabul qiladi va bu nisbatlovchi vositasida fe'l frazema uch shaxsdan biriga taalluqli bo'ladi.

Endilikda fe'l frazeologik sinonimlarning tuzilish komponent tarkibini yorqinroq tasavvur etish uchun ulardan har birini alohida o'rganish yaxshi samara beradi.

⁴⁶ Рафиса А.Р. Структурно-функциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент: 1982. с. 18

⁴⁷ Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - T.: Universitet, 2006, 437 b.

1. Ikki komponentli ot + fe'l tipidagi fe'l FSlarning asosiy tayanch komponenti fe'l bilan, notayanch komponenti ot leksema bilan ifodalanadi: *ko'ngil bermoq* — yaxshi *ko'rmoq* frazemalari “sevmog” (O'TFL, 149) ma'nosini anglatadi: *Yigit bilan qiz bir-birlarini yaxshi ko'radi*. (P.Qodirov)

1.1. Ot (+nisbatlovchi) + fe'l tipidagi fe'l FSlarning asosiy tayanch komponenti fe'l, notayanch komponent sintaktik shakl yasovchi affiks (nisbatlovchi)ni olgan ot leksema bilan ifodalanadi: *abjag'(i) chiqdi -iyig'i chiqdi*; *yuzi yorishdi - chehrasi ochildi - ta'bi ochildi* sinonim fe'l frazemalari “qattiq jarohatlanmoq” (O'TFL, 292) va “xafachiligi tarqamoq” (O'TFL, 96) ma'nolarini anglatadi: *Asadbekning chehrasini silab o'tgan jilmayish Xongereyga ta'sir qildi. Tund yuzi yorishdi*. (T.Malik); *Anvar qo'l qovushtirib turgan qo'shnisini ko'rib, chehrasi ochildi*. (T.Malik); *Bu gapdan ikkovlarining ham ta'blari ochilib, ko'ngillari ko'tarildi, kema ustidagi zeb-ziynatlarga va ziyofat dasturxonlariga endi quvonib ko'z tashladi*. (P.Qodirov)

1.2. Ot + ot tipidagi fe'l FSlar. *Qulog'im siz (sen)da - qulog'im ixtiyoringizda* “gapiraver, eshityapman yoki eshitmoqchiman” (O'TIL, 5.372) fe'l FSlarning komponentlari ot (keng ma'noda) so'z turkumi bilan shakllangan bo'lib, har ikkala komponentda sintaktik shakl yasovchi affikslar ishtirok etmoqda: *Unday bo'lsa qulog'imiz sizda, sulton janoblari!* (P.Qodirov);- *Xo'sh? — dedi ikkovlariga bir-bir qarab, - qulog'im ixtiyorlaringizda*. (X.To'xtaboyev)

1.3. Ot + o'timli fe'l tipidagi fe'l FSlarning notayanch komponentida nisbatlovchini olgan tushum kelishigi ishtirok etadi, tayanch a'zo esa o'timli fe'l bilan ifodalanadi: *adab(i)ni bermoq - jazo(si)ni bermoq - tanobini tortib qo'yomoq* sinonim frazemalari “qilmishiga yarasha jazolamoq” (O'TFL, 18) ma'nosini anglatadi: *Ismoilov ular bilan yonmayon yurganidan, ularning adabini berolmaganidan nafratlandi* (O'.Umarbekov); *Xumoyun Said Halil bilan o'z munosabatlarini shu darajada keskinlashtirdimi, endi uning jazosini Sherxon bermog'i lozim* (P.Qodirov); *Ket degali yuz chidamaydi, kishi chaqirgali yana vaqt emas; mirzongiz bilan kengashib, emdi harchi ertalabgacha joy beraylik, tong otsa, bularning tatigini berguchilar topilar-ku, axir deyishdik* (A.Qodiriy).

1.4. Ot + o'timsiz fe'l tipidagi fe'l FSlarning tayanch komponentli fe'l bilan, notayanch ot komponent esa o'rin kelishiklaridan birini olganligi haqida bo'ladi: *ko'zga tashlanmoq - ko'zga chaqilmoq* (“aniq ajralib, sezilib turmoq” (O'TFL, 134) fe'l FSlarning somatik notayanch komponent (ko'z) jo'nalish kelishigi yordamida asosiy fe'l komponentga bog'langan: *Qorong'ida hech narsa ko'rinmadi, faqat yashin chaqnaganda Ganganing qirg'oqlariga toshib chiqqan oqish to'lqinlar tahdidli yaltirab ko'zga tashlanadi* (P. Qodirov); *Sag'ananing o'ng boshidagi toshdan o'yib yasalgan lavha ko'zga chaqilib turar edi* (A. Qodiriy).

Boshida aylandi - boshida o'ralashdi (“miyasida aynan bir fikr aylanmoq”) fe'l FSlarning komponentlari o'zaro o'rin-payt kelishigi yordamida bog'langan: *Bu xotinga boshqa shu xil xotinlarga qaragan singari qarayolmasligiga uning o'zi ham ishonib qolgan. Boshida o'raning boshida ko'proq o'ralashadigan bo'lib qoldi* (O'.Umarbekov).

Og'zidan chiqdi - og'zidan to'kildi (“kutilmaganda biror gap, fikrni aytib yubormoq” (O'TFL, 212) fe'l FSlarda sintaktik qurshov ot komponentdagi sintaktik shakl yasovchi (chiqish kelishigi) orqali vujudga keladi: *Hozir og'izdan chiqqan o'sha gap xonada momaqaldiraq singari guldiragandek bo'ldi* (T.Malik); *U ham gapirib ketdi gapirdi gapirdi og'zidan ajoyib ta'sirli so'zlar to'kiladi* (Cho'lpon).

Sifat + fe'l tipidagi fe'l FSlar. *Qora bermoq - qora ko'rsatmoq* kabi fe'l FSlarning tayanch komponenti o'timli fe'l, notayanch komponent esa sifat bilan ifodalanib, belgisiz tushum kelishigida shakllangan hamda bu frazemalar umumiy “ko'rinish bermoq” (O'TIL, 337) semasi ostida birlashadi: *Mehmonlar ko'cha boshida qora berishi bilanq Nabi oqsoqol ovoz berdi* (T.Murod); *Bunda na qush, na bir jonivor va na shamol ko'rsatar qora*. (A.Oripov)

2. Uch komponentli ot+ot+fe'l tipidagi fe'l FSlar. *Tirnoq orasidan kir izlamoq - qildan qiyiq qidirmoq - qildan qiyiq topmoq* (“yomon niyat bilan ayb, xato-kamchilik topishga harakat qilmoq” (O'TFL, 262) FSlarning tarkibidagi sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar komponentlar tarkibini yaxlitlashda muhim ahamiyat kasb etadi: *Do'stim ishning ko'zini biladigan yigit edi* (U. Hoshimov); *Nimalarni hayol qilib, qaysi tirnoq ostidagi qanday kirlarni izlayapti ekan?* (T.Malik); *Saida uning hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi* (A. Qahhor).

3. *To'rt va undan ortiq komponentli fe'l FSlar* tilimizda kam bo'lsa-da, uchraydi: *foniy dunyodan boqiy dunyoga ketmoq* – *foniy dunyodan ko'z yummoq* frazemalar “o'lmoq” ma'nosini anglatadi: *Agar ertaga kunim bitsa, bu foniy dunyodan boqiy dunyoga may mastligi bilan emas, imon pokligiyu tan halolligi bilan ketmoqchimen!* (P.Qodirov); *Agar men bu foniy dunyodan ko'z yumsam, hammangiz Bobur mirzoning amrini hozirgi mening amrim kabi bajo keltirgaysiz* (P.Qodirov).

4. *Komponent tarkibi turli xil bo'lgan fe'l FSlar*. Pashshadan fil yasamoq – ignani tuyadek, xasni xaridek ko'rmoq – ignaning teshigidan tuyani o'tkazmoq – burganing yo'talidan bo'ron ko'tarmoq – biriga besh qo'ymoq sinonim uyalaridagi birinchi frazemada notayanch komponentda vositali va vositasiz to'ldiruvchi belgili va belgisiz holatda shakllangan bo'lib, ularning barchasi uchun yaxlit ma'no semasi – mubolag'a yoki litotaga asoslanadi: *Arzimagan pashshaday gap sizlarga filday vahimali bo'lib etib borganga o'xshaydi*. (T.Malik); *Sizga bir so'zni aytib ham bo'lmaydi, deb kuldi Sultonali, – ignani tuyadek, xasni xaridek ko'rasiz*. (A.Qodiriy); “*Lozim bo'lsa ignaning teshigidan tuyani ham o'tkazib yubora olaman*”, deb katta ketuvchi “qozi” xo'jayinning fe'li aynib turganini fahmlab, barcha ehtiromini ta'zim orqali izhor eta qoldi (T.Malik); *Shundan keyin Qosim laylak ikkala mingboshi to'g'risidagi fikrini biriga besh qo'shib aytib berdi* (Cho'lpon).

Sifat frazeologik sinonimlar. O'zbek tilida sifat frazeologik sinonimlar orasida ham sinonimik munosabat keng tarqalgan. Frazemalarning semantik tasnifiga muvofiq shaxs va predmetlarning belgi xususiyatlarini bildiruvchi, kishilarning turli jismoniy va ruhiy holatini ifodalovchi ko'ngli yumshoq, to'g'ri so'z, yolg'iz qo'l, ochiq chehrali, boshi osmonda, almisoqdan qolgan, kayfi chog', kayfi buzuq, oxori to'kilmagan kabi frazemalar sifat frazemalarning asosini tashkil qiladi. Sifat frazeologik sinonimlarning tashqi tuzilishi, morfologik tarkibi, shakllanish jarayoni nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1.1. *Ikki komponentli ot+sifat tipidagi sifat FSlar*. Bu tipda shakllangan sifat frazeologik sinonimlarning birinchi komponenti – notayanch a'zo bosh kelishikdagi turdosh ot, keyingi komponent – tayanch a'zo esa turli belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat yordamida shakllangan.

Shu kabi sifat FSlarning shakllanishida va ikki komponentni grammatik jihatdan yaxlitlashda turdosh ot tarkibida sintaktik shakl yasovchi affiks asosiy vosita hisoblanadi. Bunday tipda shakllangan sifat frazeologik sinonimlar ko'pchilikni tashkil etadi: *Vaqti chog' – dimog'i chog' – kayfi chog' – ta'bi chog' – ko'ngli chog'* (“kayfiyati yaxshi” (O'TFL,59) sifat FSlarning shakllanishida tayanch komponent bir xil so'z (chog')dan; shuningdek, *nafsi buzuq – nafsi yoriq* (“ovqatdan o'zini tiya olmaydigan, ovqatni ortiq darajada iste'mol qiladigan” (O'TFL,180); *ko'zi ochiq – ko'zi tik* (“barhayot” (O'TFL,141); sifat FSlarda notayanch komponentlar bir xil so'z (nafs, ko'z) dan tashkil topgan. Bu frazemalar tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik aloqasi tufayli nisbatlovchi ishtirok etadi: *Solda Qalandarovning kabinetidan vaqti chog' bo'lib chiqdi, kechgacha o'sha majlisni tayyorlash, o'tkazish rejasini tuzdi* (A.Qahhor); *Er-xotin Sirojiddin olib bergan putyovka bilan yaxshi hordiq chiqarishgani bilinib turar, ikkovining ham dimog'i chog' edi* (O'. Hoshimov); *Chamamda hammamizning kayfimiz chog' edi* (O'. Hoshimov); *Lekin u, shu topda negadir o'zi ham xursand bo'lib allanechuk charaqlab ochilib ketdi. Miryoqub epaqa “hap ishni eplaydi” degan xayolga bordimi, har qalay ta'bining choqligidan bo'lsa kerak* (Cho'lpon); *Yengillik sezgaydir bunday chog' ko'ngil, Biroq payg'ambarning g'ussasi ortdi* (A.Oripov); *Tosh bersa yutuvchi ey, nafsi yoriq, Xayru ehsonimni mayli unutgin* (A.Oripov); *Ko'zim tirikligida sizning inilaringiz bilan inoq, ittifoq bo'lganingizni ko'rsam dunyodan bearmon ketardim* (P.Qodirov).

1.2. *Ot+ot tipidagi sifat FSlar*. *Og'zi qulog'ida – boshi osmonda – do'ppisi osmonda* (“nihoyatda xursand” (O'TFL, 215) sifat FSlarning shakllanishida birinchi komponentda nisbatlovchi, keyingisida kelishik qo'shimchalarining mavjudligi, grammatik jihatdan ikki komponentni yaxlitlashda muhim ahamiyatga ega: *Hoji boboning qo'liga yigirma bir so'm qirq tiyin naqd pul topshirdim. Hoji boboning og'zi qulog'ida*. (F. Fulom);

Poshshaxon bilan Xadichaxonning boshlari osmonda, Sultonxonning katta dang'illagan uylari bo'm-bo'sh, o'zi bu hangomalardan xabarsiz edi. (Cho'lpon)

1.3. *Ot + sifatdosh tipidagi sifat FSlar*. *Oxori to'kilmagan-oxori ketmagan-qirovi to'kilmagan-taxi bo'zilmagan-moyi buzilmagan-tesha*

tegmagan - *siyohi qurimagan* sifat sinonim frazemalarining tayanch komponenti o'tgan zamon sifatdoshining bo'lishsiz formasida shakllangan, yaxlit holda yangi, hozircha ishlatilmagan (O'TFL, 217) ma'nosini ifodalaydi *Almisoqdan qolgan* - *Daqqiyunusdan qolgan* - *Daqqiyunusni ko'rgan* - *Afrosiyobdan qolgan* - *Amir Temurdan qolgan* - *Mallaxon zamonidan qolgan* - *otam zamon(i)dan qolgan* sifat FSLari "juda eski, qadimgi" (O'TFL,20) ma'nosini anglatadi. Ularning shakllanishida asosiy komponentda o'tgan zamon sifatdosh shakli, notayanch komponentda kelishik qo'shimchasi ishtirok etmoqda: *Sen bola, Sunnatullayevning almusoqdan qolgan ishini nimaga kavlashtiryapsan?* (T.Malik); *Bu yerda joningizga o'rom beradigan hamma narsa topiladi: salloti shim deysizmi, poyma-poy sag'ri kavush deysizmi, biror yetti yilgina kiyilgan, asli matoi nima bo'lganligi ma'lum bo'lmagan guppi deysizmi, Mallaxon zamonidan qolgan mursak deysizmi, paytavabop mollarning va lungibop matolarning son-sanog'i yo'q* (G'. G'ulom).

1.4. Ot + ko'makchi + ot tipidagi sifat FSLar. "Juda katta, beqiyos" (O'TFL,81) ma'nosini bildiruvchi yer bilan osmoncha //yer bilan osmon qadar - ot bilan tuyacha sifat FSLarning har ikki komponentini yaxlitlashda asosiy vositachi bo'lib yordamchi so'z ishtirok etgan: *Yaxshiki ular Olmon polisi bilan Moskva milisasi orasida osmon bilan ercha farq borligini bilishmaydi* (T.Malik).

2.1. Uch komponentli ot+ot+sifat tipidagi sifat FSLar. *Aql ko'zi ko'r - aql ko'zi yumuq* sifat FSLar "fikrlash doirasi tor" ma'nosini anglatib, tayanch komponenti sifat, notayanch komponenti sintaktik shakl yasovchi affikslar bilan shakllangan ot so'z turkumi bilan ifodalangan: *Imorat sari yurayotganida aql ko'zi ko'r edi* (T.Malik); *Dardi faqat boyligu shuhrat bo'lgan bu yigit siyosatchilar olamining makkorona qiliqlari mavjudligini, ular ko'proq aql ko'zlari yumuq odamlar xizmatidan foydalanishlarini bilmas edi* (T.Malik).

2.2. Uch komponentli ot+ot+fe'l tipidagi sifat FSLar. *Ilonning yog'ini yalagan-ilonning oyog'ini sanagan* - *burganing ko'zini ko'rgan-shaytonning ilmini o'qigan-shaytonga dars beradigan* sinonim frazemalarining grammatik shakllanishida tayanch komponentda o'tgan zamon sifatdosh qo'shimchasi, notayanch komponentda nisbatlovchi va kelishik qo'shimchalarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shu uyaga

mansub shaytonni avragan - *shaytonning domlasi-shaytonning urgochisi-shayton ustasi* sinonim frazemalari ikki komponentli, *shaytonni jilovlab minib, iblisiga yo'l ko'rsatadigan* frazemasi qo'shma gapga tengdir. Bu frazemalar yaxlit holda "juda ayyor, mug'ombir, quv" (O'TFL,111) ma'nolarini anglatadi: *Yo'q, Oqsoqol ilonning yog'ini yalagan odam!* (O'.Hoshimov), *Shaytonga dars beradigan bu Qashqirning niyati ne?* (O.Yoqubov); *Obbo qiztaloq, shaytonning domlasi, ekan-a!* (Oybek); *Bu odam emas, shaytonning urg'ochisi, buni ham bilasizmi?* (T.Malik); *Shayton ustasi bo'lgan Homidning manim otimdan sizga yozgan taloq xatisi ila menga qarshi yonib ketgan yurakingizning nafrat o'ti ehtimol endi o'cha tushkandir* (T.Malik).

3. To'rt va undan ortiq komponentli sifat FSLar. Adabiy tildagi "o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olmoq" iborasi "dush kelgan kishiga ozor bermoq, bezorilik qilmoq" (O'TIL, 5.169) ma'nolarini bildirib, ko'proq salbiy ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qiladi. Lekin bu ibora yozuvchi Said Ahmad ijodida "o'taketgan sho'x, o'taketgan betinim" kabi ijobiy ma'no nozikligini ifodalash bilan birga "yerga ursa, ko'kka sapchimoq" frazemasi bilan bir sinonimik uyani hosil qiladi: *U Zirillamaning eng sho'x, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan, erga ursa ko'kka sapchiydigan bo'z bolalaridan* (S.Ahmad); *Buni, qarang-a, sho'x, yerga ursa osmonga sapchiydigan, bebosh bolasi bugun yurtning og'ziga tushibdi* (S. Ahmad).

Ravish FSLar. Tilimizda juda oz miqdorda bo'lsa-da, ravish FSLar mavjud. Ravish FSLarni struktural-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1.1. Ikki komponentli ot + ot tipidagi ravish FSLar. *Jon talvasasida - jon achchig'ida* iboralari "o'limga qarshi kurashish istagi bilan, o'limdan saqlanish umidi bilan" (O'TFL,102) ma'nosini anglatib, frazema komponentlarini yaxlitlashda tayanch so'zda sintaktik shakl yasovchi affiks ishtirok etadi: *Qe uning bag'rida tipirchilaganda ko'kragiga pichoq qadalib jon talvasasida yotgan xotini ko'ziga ko'rindi* (T.Malik).

1.2. Ot + fe'l tipidagi ravish FSLar. Adabiy tildagi "biror falokatning voqe bo'lishidan benihoya qo'rqqan holda" (O'TFL, 100) ma'nosini anglatuvchi *jon(i)ni hovuchlab* - *yurag(i)ni hovuchlab* frazemalarining shakllanishida tayanch komponentda ravishdosh, notayanch komponentda

sintaktik shakl yasovchi affiks ishtirok etgan: *Men endi rosa kaltakni ham yesam kerak, deb jonimni hovuchlab turgan edim, yo'q, qori pochcham to'satdan yumshab qoldi* (X.To'xtaboev); *Olti oydan beri qo'rg'ondan chiqmagan bir dasta otli-g'u piyoda odamlar qorong'i tunda yuraklarini hovuchlab, choh ko'prigidan o'tdilar* (P.Qodirov).

2. Uch va undan ortiq komponentli ravish FSLar. Hash-pash deguncha - ko'z ochib yumguncha — hay etti, huy etti, ikki koski to'y etti frazemalari "juda qisqa muddat, tezda" (O'TFL,373) semasini anglatadi: *Hash-pash deguncha o'laksa qilib machitning sahniga olib chiqadilar, bu erda ham ko'ziga qon to'lgan olomon sho'rlikni ura ketadi* (G'. G'ulom); *Ko'z ochib yumguncha Anvar o'zini safolik boqchalari bor go'zal manzarali bir erda ko'rdi* (T.Malik). «Hay etti, huy etti, ikki koski to'y etti» deganlaridek, *har* ikki to'y *ham* bir hafta ichida o'tti, *Naimaxonim u yoqqa ketib, Nigorxonim bu yoqqa keldi* (A. Qodiriy).

Shunday qilib, o'zbek tilida FSLar tashqi tuzilishi jihatidan ikki, uch, to'rt va undan ortiq so'z-komponentlardan tashkil topadi. Morfologik jihatdan fe'l FS, sifat FS, ravish FSLarga ajratiladi. Nisbat, ravishdosh, sifatdosh kabi lug'aviy shakl yasovchi affikslar FSLarning grammatik jihatdan shakllanishi uchun xizmat qiladi. Sintaktik shakl yasovchi affikslar esa bunday frazeologik sinonimlarning grammatik xususiyatlarini yanada konkretlashtiradi.

1.5. Frazеологик синонимларнинг семантик хусусиятлари

Tilning lug'at boyligini so'z va frazeologizmlar tashkil etadi. Lug'at tarkibida til birligi so'z hisoblansa, frazeologiya tarkibida frazeologik birlik yoki ibora til birligi sanaladi. So'z ham frazeologizm ham lug'aviy birlikdir. Har qanday tilning boyishi faqat yangi so'zlar hisobiga emas, balki turg'un birikmalar orttirib borish hisobiga ham sodir bo'ladi⁴⁸.

So'zlar to'g'ridan-to'g'ri predmetni nomlab, atab kelsa, frazeologizmlarda kuchli obrazli atash ma'nosi anglashiladi: *Nemis tilidagi sich den Kopf zergrübeln-sich das Hirn zergrübeln* (bir narsa ustida bosh qotirmoq, qattiq o'ylanmoq), *im Dreck setzen- im Schlamassel sitzen*,

⁴⁸ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. - М.: 1959, с. 187

(og'ir, qiyin holatga tushib qolmoq) *aus jmdm Gulasch machen -aus jmdm Hackfleisch machen* yoki o'zbek tilidagi *xursand - og'zi qulog'ida, hovliqma — tili tizzasida, mayda - ko'z ilg'amas, bezovta - ko'ngli bejo* kabi frazemalarda sinonimlari bo'lmish so'zlarga nisbatan ma'no kuchli va obrazli ifodalanganligi sezilib turadi. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, frazeologik va leksik birliklarning sinonimiya hodisasi asosan, so'z ma'nodorligi, ohangdorligi, maftunkorligini oshirishga xizmat qiladi. Qolaversa, ma'no ifodalaydigan ushbu birikmalar semantik va stilistik xususiyatlari bilan frazeologik sinonimlar adabiy so'zlashuvimizni badiiy ohangdorligini oshirish barobarida, kundalik nutqimizni, so'zlashuv munosabatimizni mazmundorligini ta'minlaydi.

Kuzatishlardan ma'lumki, frazemalar tilda tayyor, yaxlit holda mavjudligi sababli, bir qarashda ularning struktural tartibi o'zgarmasdek tuyulsa-da, ammo so'zlashuv nutqida, ayniqsa, badiiy asarlarda, publisistik nutqda oddiy qo'llanishdan tashqari yozuvchining badiiy mahorati natijasida frazemalar ma'lum tashqi — struktural va ichki-semantik o'zgarishlarga uchraydi, natijada frazema yangi-yangi ma'no nozikliklariga ega bo'ladi.

1.6. Nemis tilida frazeologik sinonimlarda ekspressiv — ta'sirchanlik va funksional-uslubiy bo'yoqdorlik

Umuman olganda, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng va murakkabligi bilan ajralib turadi. So'z ma'nosida bo'lmagan, uchramagan komponentlar ko'p frazeologizmlar ma'nosida mavjud bo'ladi.

Adabiyotda frazeologizmlar bir necha nuqtai nazarlarga ega. Y.D. Апресян frazeologik sinonimlar va struktur variantlilik bir xil turga mansubligini ta'kidlaydi⁴⁹.

Badiiy nutqda FSLardan foydalanganda, ularda mavjud bo'lgan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari inobatga olinadi.

⁴⁹ Апресян Ю.Д. Фразеологические синонимы типа «глагол+существительное» в современном английском языке. Автореферат канд. дисс., - М.: 1956.

Nemis tilida FSlar belgi anglatish, ya'ni biror jarayonning qay darajada voqe bo'lishini anglatishda ham o'zaro tarmoqlanadi: **"Erstaunt, verwundert sein"** ma'nolarini anglatuvchi *große Augen machen oder bekommen=j-nd groß ansehen oder anstarren, anschauen=j-m bleibt der Weckerstehen* FSlari bir-biridan ma'no anglatishdagi ekspressivligi bilan farqlanadi. Bunda birinchi frazemaga nisbatan ikkinchi va uchinchi iborada ekspressiv ma'no kuchliligi bilan xarakterlanadi: *Zwilling bekam Ansen, als die Waffen zum Vorscheinkamen.* (Br. Apitz „Nackt unter Wölfen“); *Sie stand mit weißem Gesicht, zitternd an der Wand. Sie starrte ihr groß an.* (H. Fallada. „Wolf unter Wölfen“); *Mir bleibt doch glatt der Weckerstehen, als er plötzlich in der Tür stand.*

Badiiy so'z san'atkorlari FSlarni tanlashda ma'no xususiyatlari bilan birga ularning uslubiy bo'yog'iga ham alohida e'tibor qaratadilar. Chunki FSlardagi uslubiy bo'yog' tasviriy xususiyatga ega. Sh.Balli qayd qilganidek, odatda, og'zaki nutqda so'zlovchi til vositalarini saralab ishlatmaydi, bunda uning vaqti va imkoniyati ham bo'lmaydi. Lekin yozuvchi (agar u haqiqiy yozuvchi bo'lsa) har bir so'z ustida boshqotiradi, til vositalarini saralab, tanlab ishlatadi. Yozuvchining bu ishi muayyan estetik maqsadga, ya'ni obraz yaratish maqsadiga bo'ysundiriladi⁵⁰. Shuning uchun bir FS u yani tashkil etgan FBlar bir-biridan o'zlarida ifodalanayotgan ma'no qirralari, uslubiy bo'yog'dorligi, obrazlilik darajasi bilan farqlanadi. Masalan, nemis tilida verwirrt werden (gapini yo'qotmoq, kalavani uchini yo'qotmoq) ma'nolarini beruvchi *aus dem Konzept kommen= den Faden verlieren* FS uyasidagi FBlarning ikkinchisi birinchisiga nisbatan obrazli bo'lib, intensivligi va belgi darajasining kuchliligi bilan ajralib turadi: *Ein so kennerischer Beobachter, freilich wie etwa Rechtsanwalt Löwenmaul, bemerkte, daß Dr.Geyer zweimal aus dem Konzept kam* (L. Feuchtwanger. "Erfolg"); *„Findest du nicht auch, dass der Vertrag sehr interessant war?“ - Das schon hast du aber gemerkt, wie der Redner zum Schluss den Faden verlor und sich gar nicht mehr an das gegebene Thema hielt?*

⁵⁰ Балли Ш. Французская стилистика. - М.: Изд-во иностранной литературы, 1961, с. 37

1.6.1. Nemis tilida frazeologik sinonimlarning semantik jihatdan o'zgarishi

Ko'pgina tilshunoslar frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi muhim belgisi deb, ularning semantik tuzilishidagi uslubiy bo'yog'ni bilishadi. Shu nuqtayi nazardan, A.V.Kuninning "Predmetlar va jarayonlarning ekspressivlik xarakteristikasi ko'pgina frazeologizmlarga xosdir, lekin bu xususiyat ularning nominativlik funksiyasini yo'qotmaydi, faqat ularga ma'lum uslubiy yo'nalish bag'ishlaydi"⁵¹ degan fikri o'rinnidir.

Umuman, bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi frazemalardan biri ikkinchisidan belgi, xususiyat anglatishda o'zining intensivligi bilan ma'lum darajada farqlanadi, shuningdek, FSlarda so'zlovchi va yozuvchining biror kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati ham ifodalanadi. Nemis tilida semantik stilistik jihatdan frazeologik sinonimlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- teng ma'noli sinonimlar;
- ideografik sinonimlar;
- stilistik sinonimlar.

Teng ma'noli sinonimlar bir xil ma'no va bir xil fikrni anglatadi. Uning moddiy tarkibi leksik va struktur munosabatda turli xil bo'lishi mumkin. Masalan: *der hat einen Knal, bei ihm fehlt eine Schraube- es spukt bei ihm im Kopfe, bei dem piept es wohl.*

Ushbu frazeologizmlar tuzilish, leksik tarkibi va obrazlilik jihatidan bir-biridan tubdan farq qilsa-da, ular bir xil ma'noni anglatadi.

Teng ma'noli sinonimlar frazeologik sinonimlarning barcha turlarida uchraydi. Bir xil ma'noli sinonimlar asosan har xil tuzilishga ega frazeologik birliklarda uchraydi. Bu degani, bir xil ma'nolik umumiy ma'no va funksional stilistikaga munosibli natijasida o'zgaruvchan so'z birikmasini hosil qiladi. Masalan: obrazlilikka asoslangan birliklar *den Sand pflügen, leeres Stroh dreschen, Holz nach dem Walde tragen.* Ushbu misollarda turli obrazlilikka qaramasdan ular bir xil semantik va funksional stilistik munosabatga egadir.

⁵¹ Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии, как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря. - М.: 1964, с. 752.

Kundalik soʻzlashuv uslubiga asoslangan frazeologik birliklar: *jmdn. zum besten haben-jmdn auf den Arm nehmen-jmdn. Auf die Schippe nehmen*. Ushbu birlikning umumiy “mazax (masxara) qilib birovning ustidan kulmoq, hazillashib birovning ustidan kulmoq” maʼnosini beradi.

Frazeologik birliklarni korporativ frazeologizmlar va juft soʻzli bir xil maʼnoli sinonimlardan ajratib turadigan strukturali belgilari strukturali birlik yoki bir strukturali koʻrinishligidan qonuniy ravishda ajratib turadi, masalan: *aus sehen wie die Gans, wenn es donnert aussehen, wie die die Katze, wenn es donnert*.

Bu ikki sinonim ham bir “qoʻrqqandek koʻrinmoq” maʼnosini beradi va oilaviy kundalik soʻzlashuv nutqiga toʻgʻri keladi.

Korporativ frazeologizmlar va juft birikmalar koʻrinishidagi teng maʼnoli sinonimlar odatda bir strukturali belgilari bilan farqlanadi, masalan: *sein Mund geht wie ein Muhlwerk = sein Mund geht wie eine Drehsperre*.

Zamonaviy nemis tili frazeologiya tizimida teng maʼnoli sinonimlar shunday frazeologik birliklarki, ular bir xil maʼnoni anglatadilar-da, semantik boʻyoqdorligi bilan farqlanadi. Shuningdek, teng maʼnoli frazeologik sinonimlarning turli koʻrinishlari hududiy shevalar, masalan, *der Schlächter, Fleischer* (shimoliy va oʻrta Germaniya) – *der Metzger, der Yerdapfel* (janubiy Germaniya va Avstriya hududi)da ham uchraydi. Bunday frazemalarning sinonimlari faqat oʻsha hududlar uchun tushunarli boʻladi. Ana shunday frazeologik birliklardan biri “farqi yoʻq, baribir” maʼnosini beradigan *es ist mir Wurst - es ist mir Powidl* (janubiy Germaniya va Avstriya), *es ist mir Piepe - es ist mir Pomade* (shimoliy Germaniya) hududida keng qoʻllaniladi.

Teng maʼnoli sinonimlarning nazariy asoslari xususida fikr yuritgan tilshunos olim A.P.Xazanovichning yozishicha: “frazeologiya, bu idiomalar, hattoki teng maʼnoli sinonimlarning “oʻziga xos” koʻrinishlaridan biri shundaki, har birining negizida aniq tasavvurlar barobarida asosida faqat unga xos boʻlgan obraz yotadi. Shu tarzda teng maʼnoli sinonimlar – idiomalar bir birini oʻrnini butunlay toʻldirmaydi, balki oʻrnida teng maʼnoli soʻz-sinonimlar munosabatga kirishadi. Ular

tilga ortiq yuk tushirmaydi, daxmaza boʻlmaydi, yanada boyitish barobarida, tilni yanada taʼsirchan, jonli boʻlishiga olib keladi”⁵².

Xulosa oʻrnida quyidagi til asoslarini keltirish mumkin: Birinchidan, teng maʼnoli sinonimlar zamonaviy nemis tili frazeologiya tizimida talaygina, ikkinchidan, yuz yillar davomida yashab kelayotgan, anʼanalarni yoʻq boʻlib ketmasdan, balki oʻrni sinonim soʻzlar toʻldirib borishini koʻrsatadi. Bu holatni quyidagi frazeologik sinonimlarda koʻrish mumkin: masalan, tilda “*die Nüsse gehen*” frazeologizmi XVI asrda *in die Haseln gehen* shakli qayd etildi. Oʻz davrida uning mavjud boʻlishi leksik tarkibning “zamonaviylashuvi” deb atalgan. “*In die Pilze gehen*” frazeologizmi XVII asrda qayd etilgan. Undan oldinroq bu birlik tilda “*in die Wicken gehen*” iborasi oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan. Xuddi shu frazeologizmning XIX asrga kelib “*in die Binzen gehen*” sinonimi qayd etildi.

Koʻrinib turibdiki, teng maʼnoli frazeologik sinonimlarning sinonimik qatori asrlar davomida anʼanalarga koʻra, bir-birini siqib chiqarmasdan toʻldirib borilgan. Asosiysi, ularning funksional-stilistik xususiyati tendensiyasiz oʻzgarib borgan.

Zamonaviy nemis tili frazeologik birliklar tizimida teng maʼnoli frazeologik sinonimlardan tashqari shunday sinonimlar borki, ular bir maʼnoni ifodalasalarda, bir-biridan semantik boʻyoqdorligi bilan farqlanadi. Bunday frazeologik birliklar ideografik frazeologik sinonimlar deb ataladi. FSlarning maʼnosi semantik belgisida ikkinchi darajali qoʻshimcha qismi boʻlib, u maʼnosini ajratib turadi. Ushbu semantik belgi FSlarni turli darajalarda ajratib turadi, birinchidan, taʼriflanayotgan harakatning qizgʻin, shiddatli munosabatini farqlab turadi: *j-m den Kopf verdrehen = j-s Herz gewinnen = die Herzen brechen*.

Semantik stilistik jihatdan frazeologik sinonimlarning yana bir turi stilistik sinonimlar deb yuritiladi. Ular shunday sinonim frazeologizmlarki, ularda umumiy maʼnodan tashqari stilistik tafovut mavjud. Ular birinchidan, bir strukturali sinonimlarning variantlilik komponentlarida turli funksional-stilistik soʻz variantlari mansubligini vujudga keltiradi.

⁵² Хазанович А. П. Явление синонимии в идиоматике современного немецкого языка. – Ленинград: Уч. Зап. ЛГУ, вып. 48, Серия филологич. наук, 1958, с. 16.

Frazeologik sinonimlarning bu ko'rinishi bo'yicha tadqiqotlar shuni ma'lum qiladiki, ayniqsa buning o'ziga xosligi otlashgan komponent variatsiyalarida ko'rinadi. Keyin ular bir-biriga metonimik munosabat yoki so'zni ot tematik guruhiga oid birikmalarida sinonimik munosabatga kirishadi⁵³. Bu turdagi birliklarning turli variantlari adabiy tilda, kundalik so'zlashuv nutqi, maxsus leksika, hududiy shevalarda – frazeologizmlar stilistik xususiyatini o'zgartiradi. Bu sinonimga yaqqol misol sifatida “*den Mund halten, die Schnauze halten, den Schnabel halten, die Fresse halten, den Rand halten, die Pappe halten, die Gusche halten*“, shuningdek, 1959-yilda yoshlar janri sifatida qayd etilgan “*die Pfeife halten*”⁵⁴ sinonimlarini kiritish mumkin. Bu sinonimlarning barchasi “mum tishlamoq, jim turmoq” ma'nosini beradi, lekin stilistik tomondan farqlanadi. Agar “*den Mund halten*” birligi muloqotning adabiy so'zlashuv doirasiga to'g'ri kelsa, qolgan barcha sinonim misollar oilaviy yoki qo'pol (dag'al) kundalik so'zlashuv nutqida ishlatiladi. Uning o'zbek tilidagi muqobillari sifatida “tilini tiymoq, ovozi o'chmoq, churq etmaslik” ma'nolarini keltirish mumkin.

Masalan: „*Der SA-Mann, den Gummi knüppel in der Faust, sprang Rose prügeln* dan: „*Willst du die Schnauze halten!*“ (B. Apitz. „Nackt unter Wölfen“).

Yoki „*Halt die Schnauze!*“ *brüllte Kluttig, durch den Spott gereizt*⁵⁵.

Ba'zida bu frazeologizm elliptik (qisqargan) ko'rinishda uchraydi. „*Schnauze? Das ist unsere Sache. Haut ab!*“

Keltirilgan misollarning barchasi B. Apits romanlari personajlaridagi oilaviy nutqqa oid. Masalan: “*den Rand halten*”, frazeologik birlik oilaviy-so'zlashuv nutqiga oid. Uning ishlatilishini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

„*Der Emil quasselt in einem fort; nicht mal beim Fernsehen kann er seinen Rand halten*“ “*Mensch, halt den Rand!*“

⁵³ Краморенко Г. И. Фразеологические варианты в идиоматике современного немецкого языка. Канд. дисс., - М.: 1961.

⁵⁴ Duden Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Hrsg. von der Dudenredaktion. 4., neu bearb. u. aktual. Aufl. - Berlin: Dudenverlag, 2013.

⁵⁵ Duden. Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Hrsg. von der Dudenredaktion. 4., neu bearb. u. aktual. Aufl. - Berlin: Dudenverlag, 2013.

Jami iste'moldagi so'z komponentlarining kelib chiqishi ushbu o'lchamlarda yoki shevada *Gusche* yoki jargon *Fresse, Pappe*) yoki boshqa ma'noga doir ko'chma ma'noni beruvchi *Schnauze, Schnabel, Rand, Pfeife* komponentlardan iborat.

Shu singari yana bir frazeologik birlikni qiyoslab tahlil qilamiz. *Jmdm. In die Hände fallen- jmdm. in die Klauen fallen*

Umumiy „*kimmidir tuzog'iga tushmoq, aldanib qolmoq*“ ma'nosini bergan ushbu frazeologik birlikma stilistik jihatdan leksik komponenti – otlashgan turlicha tushunchalar guruhiga kiradi. Ikkinchi frazeologizm kundalik so'zlashuv nutqida qo'llaniladi.

Stilistik jihatdan olib qaraganda frazeologik sinonimlarning yana bir jihati turli strukturali frazeologizmlardan iborat bo'ladi. Shakli har xil frazeologik sinonimlar deganda, o'zagi turli komponentlarga asoslangan frazeologizmlar nazarda tutiladi. Bu turda ma'no aynan o'xshash, lekin funksional-stilistik munosabat tabaqalangan. Ularning tilda ishlatilishi ma'lum qatlamlarda yoki nemis milliy tilida qat'iy chegaralangan. Masalan: *Die Platte putzen - das Weite suchen*. Bu frazeologizmni “*yashirinmoq, sezdirmay qochib qolmoq*” ma'nosini beradigan ushbu frazeologik sinonimlarning *das Weite suchen* formasi muloqotning adabiy so'zlashuv uslubiga mos kelsa, ikkinchi birlikma so'zlashuv xarakteriga egadir. *Die Platte putzen* o'zbek tiliga “*quyon bo'lmoq, g'oyib bo'lmoq*” ma'nosini beradi va bu frazeologik birlikma kelib chiqishi bo'yicha jargon hisoblanadi. *Rlatte* komponenti *Rlatte* ot so'z turkumidan iboratdir. Bu so'z qadimgi yevrey tilidagi *platte* so'zidan o'zlashtirilgan bo'lib, “*Flucht*” *qochish* ma'nosini beradi. Bu frazeologizm kundalik so'zlashuv nutqiga bevosita janubiy Germaniya yoki Shveysariya shevasidan jargon sifatida kirib kelgan⁵⁶. Aniq ma'lumot shuki, frazeologizm jargonmi yoki shevaga oidmi baribir u so'zlashuv xususiyatiga ega.

Keyingi misolimiz umumiy “*o'lmoq*” ma'nosini beradigan turli funksional stilistik ahamiyatga ega frazeologik sinonimlardir.

In den Himmel fahren - die Seele aushauchen - die Augen schließen.

Bu frazeologik birikmalar adabiy tilda o'zining stilistik jihatdan emotsionalligini oshirib boradi. Shu frazeologik sinonimlar qatorini davom

⁵⁶ Harald Burger. Zur Konfusion um die semantischen Merkmale von Phraseologismen. In: Gréciano (Hrsg.) 1989, S. 17-29.

ettirib, mavjud *ins Gras beißen - um die Ecke gehen- drang lauben müssen* frazeologizmlari kundalik so'zlashuvda muvofiqligini keltirish mumkin.

Ko'rib o'tilgan barcha frazeologik sinonimlar bir qator struktur variatsiyalar va so'z tuzilishi leksik tarkibi birikmalarning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan frazeologizmlarning moddiy tarkibi variatsiyasi bilan farqlanadi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tuzilishi bir xil bo'lgan sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

Ot turkumidagi variatsiyalar: *ein Haar yoki Haare in der Suppe finden, die Hand yoki die Hände im Spiel haben.*

Ot turkumi yoki uning kichraytirilgan ko'rinishidagi variatsiya: *etw. (wie) an der Schnur am Schnürchen haben.*

Predlogli yoki predlogsiz konstruksiyali variatsiya: *die Achsel zucken yoki mit den Achseln zucken, ihm brennen die Nagel yoki ihm brennt etw auf den Nageln.*

Predlogli konstruksiyada predlogli variatsiya: *mit Kopf durch yoki gegen die Wand rennen wollen.*

Predlogli konstruksiyada kelishiklar boshqaruvidagi variatsiya: *es brennt eine mauf die Nägel es brennt ihm etw. auf den Nägeln.*

Komponentlarning joyiga o'rnashish va o'rin almashish variatsiyasi: *mit Galle und Gift - mit Gift und Galle.*

Birikmalarda variatsiyaning so'z formasi funksional-stilistik frazeologizmlarning ma'nosiga ta'sir qilmaydi, shuningdek, u so'zning tuzilish strukturasiiga daxl qilmaydi. Biz keltirgan variatsiyaning turlari frazeologik sinonimlarni emas, balki frazeologik birliklarning variantlariga tegishli bo'ladi. Buni misollarda ko'rib chiqamiz.

„Gehen Sie mal zu der Königin, ihrer Mutter“

– „Was ist denn los, um Gottes willen!“

„Ich werde mir **den Mund nicht verbrennen**“ (H Mann, „Henri IV Jug“.)

Er gab dem Beamten sogar zu verstehen, er möge sich nur nicht **die Zunge verbrennen**, man könne nie wissen, mit wem man es zu tun habe (H. Mann).

„Ihre Nase ist zulang“, sagte Henri, als sie fort war. „Und meine erwiderte Margo abweisend, denn die Nase der anderen war nicht länger,

nur gerader war sie als ihre erogene. Er bemerkte, da? Ihm die Zunge ausgerutscht war (H. Mann).

Bu uchta frazeologik birikma bir - biriga sinonim hisoblanadi va umumiy „aytib qo'ymoq, og'zidan chiqib ketmoq“ ma'nosini beradi. Ular orasidagi farq shundaki, struktur xususiyatlari bo'yicha birinchi va ikkinchi misollarimizdagi birikmalar bir strukturali, birinchi va uchinchi frazeologik sinonimlar turli strukturali birikmalarga kiradi.

Keyingi misollarni ko'rib chiqamiz:

Wenn ich raufkom, sag ich. Aber **halt** deinen **Mund**. Das wird sonst schlimm, auch für dich und für Kinder. (A. Seghers. „Das siebte Kreuz“)
Der Mann sagte: „**Halts Maul**“. Er stampfte auf (A. Seghers. „Das siebte Kreuz“).

Wenn ihr **die Schnauze halten** konnte, dann konnte ich euch einen Rauchwaren besorgen (W. Bredel, „Die Prüfung“)

Ushbu sinonimlar stilistik belgisi jihatidan bir strukturali sinonimlar guruhiga kiradi: birinchi frazeologik birikma adabiy so'zlashuv tilidagi birlik bo'lsa, ikkinchi va uchinchi esa qo'pol oilaviy nutqqa tegishlidir. Bu o'ziga xos xususiyat ushbu turdagi sinonimlar guruhini stilistik sinonimlar qatoriga kirishiga asos bo'ladi.

Quyida bir xil ma'noga ega bo'lgan, lekin bir-biridan semantik xususiyatlari bilan farqlanadigan ideografik sinonimlarga mos keladigan misollardan keltirib o'tamiz: „Wie Kathrin“ dachte Henri „Ich will dich mahnen, da? du Gott liest, anstatt die Frauen“ das waren ihre Worte. Auch der andere Hugenottelag jetzt damit in den Ohren (H. Mann).

Umuman olganda, bu uchta FSlar umumiy „tez-tez gapirmoq, takrorlamoq“ ma'nosini beradi. Agar birinchi frazeologizm ma'lum darajada neytral harakat bo'lsa, uning sinonimi *in den Ohren liegen* shiddatni ifodalaydi.

FSlar deganda umumiy belgi va paradigmatic doirada ma'no nuqtai nazaridan yaqin va bir-biriga qarindosh frazeologizmlar tushuniladi.

V.G.Vilyuman frazeologik sinonimlarda birinchi o'rinda so'zlar o'rtasida semantik munosabat tenglashtiradi, bu degani so'zlarda semantik ma'no umumiyliigi bor bo'lishini ta'minlaydi, - deya ta'kidlaydi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, XX asrda nashrdan chiqarilgan G.Kyupper

lug'atining 25 foizdan ortig'ini kundalik so'zlashuv nutqiga oid frazeologizmlar struktur sinonimlarni tashkil etadi.

FSlarning yoshlarning so'zlashuv nutqida ishlatilishi borasida ba'zi mulohazalarni keltirib o'tamiz. Struktur sinonimlar bugungi kunda Germaniya yoshlarining kundalik so'zlashuv nutqida keng ishlatilmoqda. Yoshlarning frazeologik birikmalari orasida bir komponent o'rnini biri to'ldiradigan holatlar, ya'ni o'tning artiklli yoki artiklsiz kelishi, fe'l-kesim, sifat-aniqllovchi vazifasi o'zining o'rnini yo'qotsa-da, turli mavzularga sinonimlar bor. Semantik jihatdan esa yoshlarning frazeologik birikmalari o'zining funksional stilistik ohangdorligiga ko'ra rang- barang va jargon ko'rinishidagilar keng qamrovlidir. Masalan: *Bei ihm klappert es im Schädel* va *Bei ihm klappert es im Oberstübchen* struktur frazeologik birikmalari turli stilistik ohangdorlikka ega. „Schädel“ so'zi qo'pol so'zlashuv nutqida „Oberstübchen“ esa oilaviy munosabatlarda ishlatiladi. Yoshlarning so'zlashuv nutqida bu ikki so'zning o'rnini „Kopf“ leksemi egallagan. Yoshlar tilida bu ikki farq umuman sezilmaydi va mutlaq sinonim frazeologik birlik sifatida ishlatiladi.

1.6.2. O'zbek tilidagi frazeologik sinonimlarda ekspressiv-ta'sirchanlik va funksional-uslubiy bo'yqordorlik

Frazeologik sinonimlar so'zlarga nisbatan obrazli tasvirlash bilan birga ma'noni ham kuchli ifodalaydi: *joni chiqdi* – *g'azabi qaynadi* – *joni halqum(i)ga keldi* kabi FSlar „g'azablanmoq, darg'azab bo'lmoq“ so'ziga nisbatan ma'noni kuchli va obrazli ifodalaydi: *Keyin ayolning maqsadini fahmlab joni chiqib ketay dedi* (T.Malik); „...aytganingizdan bir so'm kam bergan nomard“, *deb gap boshlashining o'zidayoq Elchinning joni halqumiga keldi* (T.Malik).

Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanganda, ularda mavjud bo'lgan ma'no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari inobatga olinadi.

Umuman, bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi frazemalardan biri ikkinchisidan belgi, xususiyat anglatishda o'zining intensivligi bilan ma'lum darajada farqlanadi, shuningdek, FSlarda so'zlovchi va yozuvchining biror kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabati ham

ifodalanadi. Masalan, „qochib qolmoq“ ma'nosini bildiruvchi *juftakni rostlamoq* // *urmoq* – *quyon bo'lmoq* – *quyonning rasmini chizmoq* kabi FSlar qatori shunday xususiyatga ega, degan fikrdamiz: *Albatta, boshimga qalpoqchamni kiyib xayr-ma'zurni nasiya qilib bo'lsa ham juftakni rostlab qolishdan boshqa chora qolmagandi* (X.To'xtaboyev); *Papkani ko'tarib, sekin "quyon" bo'lib qolaman* (X. To'xtaboyev).

O'zbek tilida FSlar belgi anglatish, ya'ni biror jarayonning qay darajada voqe bo'lishini anglatishda ham o'zaro tarmoqlanadi: „katta baxtsizlikka yo'liqmoq, xarob bo'lmoq“ ma'nolarini anglatuvchi *sho'ri quridi* – *sho'riga sho'rva to'kildi* – *sho'ri qaynadi* FSlari bir-biridan ma'no anglatishdagi ekspressivligi bilan farqlanadi. Bunda birinchi frazemaga nisbatan ikkinchi va uchinchi iborada ekspressiv ma'no kuchliligi bilan xarakterlanadi: *Sho'rim qurib qoldi, Husan tog'a! – dedi-yu, ho'ngrab yitlab yubordi* (O'. Hoshimov). *Er-xotin bir-biriga qaradi va ikkovi baravar: "Sho'rimizga sho'rva to'kilgani rostga o'xshaydi-ku."* dedi (A.Qahhor); *Yana kambag'allarning sho'ri qaynaydi, deng, – dedi Yo'lchi g'azablanib* (Oybek).

Masalan, *jon achchig'ida* – *jon talvasasida, fikrini jamlamoq* — *esini boshiga to'plamoq* FS uyasidagi FBlarning ikkinchisi birinchisiga nisbatan obrazli bo'lib, intensivligi va belgi darajasining kuchliligi bilan ajralib turadi: *Oqibatda baliqning yarmigina ilon og'zida dam-badam jon achchig'ida dumini asabiy ravishda silkiydi.* (T.Malik); *Haligi bema'ni vahimalardan so'ng, nihoyat, mana shu keyingi natijaga kelganidan keyingina, mingboshi esini boshiga to'pladi* (Cho'lpon); *[Zohid] Lekin qancha o'ylamasin, fikrlarini jamlay olmadi* (T.Malik).

1.6.3. O'zbek tilida frazeologik sinonimlarning semantik jihatdan o'zgarishi

O'zbek tili badiiy nutqida Frazeologik sinonimlarning keng tarqalgan struktur – semantik o'zgarishlarining eng muhim ko'rinishlaridan biri individual – muallif frazeologik sinonimlar yaratish usullari. So'z ustalari nutqda mavjud frazemalardan o'z ijodida foydalanish bilan birga, yangi birikmalar, individual-muallif FBlarini ham vujudga keltiradi: tilimizda „kishini yuksak darajada izzat – hurmat qilmoq“ ma'nosini ifodalash uchun *bosh(i)ga ko'tarmoq* – *kafi(i)da olib yurmoq* FS lari qo'llanadi. Bu

FSlarning birinchisi og'zaki so'zlashuv nutqiga, keyingisi esa badiiy nutq uslubiga xoslangan. *Xolmat o'zi shuncha tirishib ishlab, katta ro'zg'orni yolg'iz boshi-la tebratgani uchun xotini ham, singlisi ham uni boshlariga ko'taradilar.* (Cho'lpon); *Myashsh, oyoq-qo'lsiz bo'sang ham, birov zambilda ko'tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim!* (O'.Xoshimov)

G'.G'ulom "Yodgor" qissasida *diydasi ustida saylamoq* (Haligacha jirkanib, xor tutilgan o'g'linga ham hech kim shamolni ravo ko'rmay, diydasining ustida saqlab, hurmat qiladigan bo'lib qoldi.); P.Qodirov "Humoyun va Akbar" romanida *qanotlari ustida olib yurmoq* (U. Hamida-bonuga atalgan muhabbatini mana shu mas'ud va yuksak bir yigitlik kuch-quvvatining qanotlari ustida olib yurishga intilmoqda); A.Oripov o'zining "Sohibqiron" she'riy dramasi xuddi shu FS qatoriga mansub *"kiprigida ko'tarmoq"* individual – muallif sinonimini yaratgan: *Olam yuki qadar buyuk qudratingizni kiprigimda ko'targayman muhabbat bilan.*

Badiiy nutqda keng tarqalgan usullardan yana biri frazema komponent(lar)ini almashtirib qo'llash usulidir. Gap tarkibidagi frazeologik birliklar o'zidan oldingi yoki keyingi so'z bilan munosabatga kirishganda, ba'zan o'sha gapga aniqlik kiritishni, o'sha sharoitga moslashishni talab qilgan hollarda frazeologik birlik komponentlaridan biri boshqa so'z bilan almashtiriladi, natijada FSning yangi varianti, individual-muallif ko'rinishi vujudga keladi: tildagi *pehona(si)ga bitmoq* frazemasini "Sohibqiron" dramasi *manglay(i)ga bitmoq* tarzida ko'llanadi. Frazema tarkibidagi "pehona(si)ga" komponentini uning og'zaki so'zlashuv uslubiga xoslangan sinonimi "manglay(i)ga" so'zi bilan almashtirilishi frazemaning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan hamda birinchi frazemaning leksik varianti vujudga kelgan: *Kishilikning manglayiga bitgan shoirni//Sohibqiron Amir Temur qabul aylagay* (A.Oripov).

Frezemani so'z bilan kengaytirish usuli nomi bilan badiiy nutqda keng tarqalgan tarkibda iborani oddiy qo'llanishdagi so'z bilan kengaytirish usuli ayrim ilmiy asarlarda "kiritish" yoki "komponent tarkibini kengaytirish" deb nomlanadi⁵⁷.

So'z va so'z birikmalarini mavjud frazeologik birlikdan oldin, keyin yoki frazema komponentlari o'rtasida qo'llash bilan o'sha frazeologik birliklarning tarkibi ham kengayadi, natijada bunday frazeologik sinonimlarning komponentlaridan biri izohlanib boradi, shu asosda umumtil iboralarining individual sinonimlari yoki variantlari vujudga keladi: *Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning hashagi ochilishiga oz qoldi* (G'.G'.Fulom); *Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog'ining peshayvoni tushib ketgan, to'g'ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi* (G'.G'ulom); Yuqorida keltirilgan misollarda adabiy tildagi *sir(i) ochilmoq* frazemasini tarkibiga "xashagi"; *qovog'(i) tushib ketgan* frazemasini tarkibiga "peshayvoni" so'zining kiritilishi bilan frazema ma'nosi kuchaygan hamda bu FBlarning badiiy uslubga xoslangan sinonimlari vujudga kelgan, adabiy tilimiz frazeologik sinonimiya doirasi yanada boyigan.

FB tarkibini kengaytirishda nafaqat so'z, balki so'z birikmalari ham faol ishtirok etadi: *Mana, o'z ko'zing bilan qara, opa: ko'nglim chilchirog' yoqqandek ravshan, ko'rdingmi?* (A.Qodiriy); *Faxr eturman men xalqimning san'ati bilan // Uning ko'ngli xuddi o'sha paxtasidek oq* (A.Oripov).

Yuqoridagi misollarda tilda mavjud bo'lgan *ko'ngli ravshan* frazemasini tarkibiga "chilchirog' yoqqandek"; *ko'ngli oq* frazeologizmi tarkibiga "xuddi o'sha paxtasidek" o'xshatishli so'z birikmalarini kiritish bilan umumtil frazemalari murakkablashib, ularning ta'sirchanlik, uslubiy mahsuldorlik darajasi yanada ortib boradi.

Frezemani sinonimi yoki yaqin ma'noli so'z yoki so'z birikmasi bilan yonma-yon qo'llash usuli. Yozma nutqda ba'zan badiiy asar tilining ta'sirchanligini oshirishda yozuvchi tilda mavjud frazemalarni o'z sinonimi (muqobili) bo'lgan so'zlarni qator keltirish bilan yoki ma'lum bir belgisi bilan yaqin turgan so'zlarni ham yonma-yon, uyushgan holda keltirib, muallif va personajlar nutqi tarkibida ham bimalol qo'llab, qahramonlar nutqini individuallashtirish maqsadida ishlatadi va fikrni ifoda etishning xarakterli vositasi bo'lib xizmat qiladi: *Bechora qiz shunday xafa. Dor - dunyosi qop-qorong'i* (A.Qodiriy); *Kimdan umid qilasan, nechuk hovliqasen, o'pkangni bos, birodar!* (O.Yoqubov).

⁵⁷ Купин А.В. Вклинивание как лингвистическое явление (на материале современного английского языка)// - М. - Иностранные языки в школе, 1973. - № 2. - С. 13-22

Soʻz ustalari frazeologik birikma maʼnosini kuchaytirish, boʻrttirish konkretlashtirish maqsadida ikki sinonim yoki bir-biriga yaqin maʼnoli FBni bir kontekst doirasida ketma-ket qoʻllaydilar: *Ammo bu bandalarining bani odamga nomunosib bu tubanligi dilimni xufton, yuragimni qon qildi.* (O.Yoqubov); *Dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qoʻysinda, men qoʻydek yuvosh, musichadek beozor boʻlib turaveraymi! Yoʻq! Qonga-qon! Jonga-jon!* (Oʻ. Hoshimov).

Frazema komponentini qisqartirib qoʻllash usuli. Frazemaning komponent tarkibini qisqartirish tildagi ellipsisning oddiy koʻrinishlari, holatlaridir, chunki ibora tarkibidagi ayrim komponentlarning qisqarishi uni yanada sodda, ixcham shaklga ega qiladi⁵⁸. Frazemalarning koʻpincha ot yoki feʼl komponenti qisqaruvga uchrab, ularning qisqaruvi nutq jarayonida sodir boʻladi. Maʼlumki, ogʻzaki soʻzlashuv nutqida erkin birikmalar tarkibidagi feʼl komponent koʻpincha tushib qoladi. Shunga koʻra iboralarning qisqargan variantlarini ogʻzaki soʻzlashuv uslubi uchun norma deb hisoblash mumkin⁵⁹.

Adabiy tildagi *figʻoni falakka chiqmoq, boyagi-boyagi, boy xoʻjaning mayogʻi* FB-lari badiiy asarlarda quyidagi koʻrinishga ega: *Tagʻin araz Oʻn begi oʻtmasdan yana Andijon safari, yana Oʻzbek oyimning figʻoni falakka* (A.Qodiriy); *[Qoʻchqor] Biz “yangi mashina kelar ekan”, deb doʻppimizni osmon- ga otib yuramiz. Qarasak oʻsha-oʻsha - Xolxoʻjaning tayogʻi* (Sh.Boshbekov).

Frazemani unga xos boʻlmagan maʼnoda qoʻllash usuli maʼlum bir matn talabi bilan bogʻliq holda yozuvchi FBning uslubiy semasini badiiylik mezoniga mos ravishda oʻzgacha maʼnoda yoki oʻzgacha uslubda qoʻllashi mumkin. Masalan, P.Qodirovning “Humoyun va Akbar” romanida *mehri bor* iborasi okkazonal qoʻllanishda oʻz maʼnosidan tashqari “yoqtirish istagi bor” maʼnosini ifodalashga boʻysundirilgan: *Bayramxon Salima beginning Akbarga mehri borligini ishonchli odamlardan eshitgan edi.*

Frazema tarkibida juft va takroriy soʻzlarni qoʻllash usuli. Frazelogik sinonimlarning notayanch komponentlari tuzilishida juft

soʻzlarning tarkibi quyidagicha boʻladi: a) juft soʻzning har ikkala qismi ham odatda, yakka holda mustaqil maʼno anlatadi: *ana-mana deb – erta-Indin deb: Said bu haqda Qalandarovga bir necha bor murojaat qilgan, lekin u ana-mana deb shu vaqtgacha tayinli bir ishini taklif qilmagan* (A.Qahhor); juft soʻzning ikkinchi qismi yakka qoʻllanmaydigan soʻz boʻladi: *jon-pon(i)ni chiqarmoq, lom-mim demaslik. Doʻstining salomiga javoban bir qarab qoʻyib, lom-mim demay oʻtirgan erida qoʻl uzatdi* (T. Malik); v) juft soʻzning har ikki qismi mustaqil maʼno anglatmaydi: *hash-pash deguncha – hayt-hoʻyt deguncha, adi-badiga bormoq/aytishmoq kabi: “Hayt-huyt” deguncha oʻzimizni shaharga ketadigan katta yoʻl ustida koʻrdik* (GʻGʻulom).

Shunday qilib, frazeologik sinonimlar uslubiy boʻyoqdorlikka ega boʻlgan til birligi boʻlib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qoʻllanadi va uni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi, ular matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv taʼsirchanlikni kuchaytiradi, ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi.

Demak, frazeologizmlarning sinonimik jihatlarini tahlil qilar ekanmiz, tahlillarimiz quyidagi xulosaga kelishni taqozo qiladi.

FS-larni nemis tilida morfologik tasniflash jarayonida ot, sifat, ravish va feʼl soʻz turkumiga oid ekanligi aniqlandi.

Nemis tilidagi FS-lar orasida feʼl soʻz turkumiga oid FS-lar asosiy oʻrinni egallashi, ular foizni tashkil etishi maʼlum boʻldi.

Oʻzbek tilidagi FS-lar tuzilish jihatida ikki, uch, toʻrt va undan ortiq komponentlarga ega ekanligi, morfologik tasniflashda esa sifat, ravish va feʼl soʻz turkumlariga oid FS-lar mavjudligi aniqlandi.

Oʻzbek tilidagi FS-lar orasida feʼl soʻz turkumiga oid FS-lar yetakchi oʻrinda ekanligi, ular jami FS-larning 82 foizini tashkil etishi maʼlum boʻldi.

FS uslubiy boʻyoqdorlikka ega boʻlgan til birligi boʻlib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qoʻllaniladi va tilni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi.

FS-lar matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv taʼsirchanlikni kuchaytiradi. Ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi.

Badiiy tasvirda FS-lar intonasion tugallik, nutqqa ohangdorlik tusini berish kabi vazifalarni ham bajaradi. FS-larda konnotativ maʼnolarning

⁵⁸ Бабкин А. М. Русская фразеология, её развитие и источники. - Л.: Наука, 1970. - С. 128-132.

⁵⁹ Oʻrinboyev B. Oʻzbek soʻzlashuv nutqi. - Toshkent: Fan, 1982. 45-64 b., Bozorboev K. Oʻzbek soʻzlashuv nutqi frazeologizmlari: Filol.fan. nom. ...dis. avtoref. - Toshkent: 2001. 6-20 b.

mavjudligi ularni emotsional ekspressiv buyoqqa ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologiya va frazeologik sinonimlar mavzusi keng darajada o'rganilgan va muayyan ilmiy qarashlar qo'lga kiritilgan. Lekin o'zbek tilshunosligida frazeologik sinonimiya hodisasi frazeologik omonim, frazeologik antonim va paronimlar bilan o'zaro munosabati ilmiy qarashlar asosida maxsus o'rganishni talab etadi.

Nemis tilshunosligida frazeologik sinonimlar ilmiy jihatdan o'rganilib, u asosida lug'atlar chiqarilgan, lekin o'zbek tilshunosligida frazeologik sinonimiya hodisasini yangi materiallar asosida hozirgi tilshunoslik ilmiy talablaridan kelib chiqqan holda yanada chuqurroq tahlil etish, shu asosda o'zbek tili frazeologik sinonimlarining izohli lug'atlarini yaratish o'zbek frazeologiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik sinonimlarning morfologik va semantik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan kuzatishlar bizni quyidagi umumiy xulosalarga olib keldi:

1. Har ikki, nemis va o'zbek tillarida frazeologiya, frazeologik sinonimlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bugungi kunda sohani o'rganilganlik darajasi keng ekanligini va bu borada bir qator izlanishlar qilinganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Nemis tilida frazeologik sinonimlar keng o'rganilgan va ularning morfologik tasniflanishi borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar natijasida nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning o'ziga xos struktural xususiyatlari ochib berilgan.

3. Frazeologik sinonimlarning komponentlari nemis tilida ham o'zbek tilida ham grammatik belgilarga ko'ra umumiy, yaxlit bo'lmasa-da, ular o'zaro kontekstual – ma'no jihatdan yaqin bo'ladi.

4. O'zbek tilida frazeologik sinonimlarni tashqi tuzilishiga ko'ra ikki komponentli, uch, to'rt va undan ortiq; komponentli frazeologik sinonimlarga ajratish mumkin.

5. Ayni bir turkum frazeologik birliklarigina frazeologik sinonimlar uyalarini hosil qiladi va o'zaro sinonim bo'la oladi.

6. Frazeologik sinonimlarning so'z turkumlariga nisbatan munosabatiga ko'ra, fe'l FSlar o'zbek tili frazeologik tizimida yetakchilik qiladi (82%); undan keyingi o'rinda sifat FSlar (9%) va ravish FSlar (7%) turadi. Modal ma'no ifodalovchi (*kim biladi- xudo biladi*) va ot (*turmush o'rtog'i – umr yo'ldoshi*) FBlar orasida FS juda kam miqdorda uchraganligi (2%) kuzatildi.

7. Ekspressiv-baho va funksional – uslubiy bo'yoqdorlik xususiyatiga ega bo'lgan FSlar so'zlashuv, publisistik va badiiy uslubda so'zlovchiga o'z fikrlarini obrazli va ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini yaratadi.

8. FSlarni nemis tilida morfologik tasniflash jarayonida ot, sifat, ravish va fe'l so'z turkumiga oid ekanligi aniqlandi.

9. Nemis tilidagi FSlar orasida fe'l so'z turkumiga oid FSlar asosiy o'rinni egallashi, ular foizni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

10. FS uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan til birligi bo'lib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo'llaniladi va tilni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi.

11. FSlar matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytiradi. Ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi.

12. Badiiy tasvirda FSlar intonasion tugallik, nutqqa ohangdorlik tusini berish kabi vazifalarni ham bajaradi. FSlarda konnotativ ma'nolarning mavjudligi ularni emotsional ekspressiya bo'yoqqa ega ekanligini ko'rsatib turadi.

13. FSlarning matn tarkibida tarjimada qo'llanilishi tilning badiiy-tasviriy imkoniyatlarini boyitadi, fikr ifodalashda takrorlarni bartaraf etadi, nutqning emotsionalligi va ekspressivligini kuchaytiradi, obrazlilikning yorqin ifodalanishini ta'minlaydi.

II BOB.

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK ANTONIMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATI

Bugungi kunda o'zbek va jahon tilshunosligida frazeologik birliklar talqini, ularning shakl va ma'no munosabati vositalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir.

Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologik birliklar uslubiya ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kungacha frazeologik birliklarning jahon tilshunoslari tomonidan tuzilgan ko'plab ma'nosini yorituvchi, sinonimlari berilgan lug'atlar mavjud. Ammo frazeologik birliklarning antonimlari hali ko'p tadqiq qilinmagan.

Hozirgi bosqichda frazeologik birliklarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo'llanib kelinayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqozo qiladi.

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi sababli, u hamisha tarixiy jarayonlarni boshdan kechiradi. Bir xalqning taraqqiyoti tufayli rivojlanadi, tanazzuli sababli yo'q bo'lib ketishi yoki o'lik tilga aylanishi ham mumkin. Xalqlararo siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalar orqali tildagi lug'at boyligining rivojlanishi yuz beradi. Lug'at boyligi chet tilidan so'z olish, tilda yangi so'zlarning yasalishi, qisqartmalar va h.k.lar bilan boyiydi. Bunda tildagi turg'un so'z birikmalari, frazeologik birliklar ham muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, ularni ham xuddi leksik birliklar singari sinonim va antonimlarini hamda omonimlarini topish, o'rganish, tahlil qilish muhimdir. Frazeologik birliklarning sinominlari haqida allaqachon bir talay ishlar qilingan. Nemis tilidagi frazeologik birliklarning o'zbek tilida qarama-qarshi ma'no anglatuvchi antonimlari borasida esa hali chuqur o'rganilmaganligi bu tadqiqot ishimizning dolzarbligidir.

Nemis tilshunosligida frazeologizmlar antonimlari keng o'rganilmagan soha. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotda nemis tili frazeologizmlarining antonimlarini tahlil qilish va ularni qiyosiy o'rganish asosiy maqsad qilib olindi.

Bundan tashqari izlanishlar va tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, nemis tilidagi frazeologik birliklarning antonim juftliklari mavjud ekan. Hatto, ko'rinishidan antonim bo'lgan ikki frazeologik birlik bir-biriga sinonim bo'lishi yoki butunlay boshqa-boshqa ma'nolarni anglatishi ham mumkin ekan.

Nutqning bo'yoqdorligini oshirish, uni yanada ta'sirli qilish uchun biz doimiy ravishda iboralardan foydalanamiz. Ziddiyatlarga boy hayotimizda "*chiroyli nutqlarga*" qarshi munosib ta'sirli javob qaytarish va maroqli so'z o'yinlari olib borish, keng davralardagi qochirimlarga zarba berish uchun tildagi iboralarning antonimlarini ham o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Ularni anglash, nutqda semantik va stilistik jihatdan to'g'ri qo'llash oson emas, chunki shunday iboralar borki, asl ma'nosini tushunish uchun izohli frazeologik lug'atlardan foydalanamiz. Ishimizning asosiy masalalari va farazi ham shundan iborat, ya'ni nemis tilidagi frazeologik antonimlarning semantikasini o'rganish hamda strukturasi tahlil qilish orqali ularning xususiyatini aniqlash.

Nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish uchun ko'plab nemis, rus va o'zbek tilshunos olimlarning ilmiy asarlariga murojaat qilindi, jumladan, nemis olimi Ch.Palmning "*Phraseologie. Eine Einführung*", Harald Burgerning "*Idiomatik des Deutschen*", hamda I.Chernishevaning "*Фразеология современного немецкого языка*" va M.Zavyalovanning "*Deutsche Antonyme*" kitoblaridir. Bundan tashqari, frazeologik lug'atlardan foydalanildi, asosiy tahlil qilingan frazeologizmlar L.E.Binovichning "*Немецко-русский фразеологический словарь*" lug'ati va H. Shemannning "*Deutsche Idiomatik*" lug'atlari tahlilga tortildi. X. Agrikolaning "*Wörter und Gegenwörter*", Host va Annelies Beerning "*Sprichwörterlexikon*", R.Shukurovning "*O'zbek tilida antonimlar*" va bundan tashqari Sh.Raxmatullayevning "*O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati*", Sh.Raxmatullayevning "*Hozirgi o'zbek tilida frazeologik antonimlar*" kitoblaridan ham foydalanildi.

II.1. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonim tushunchasi

Tilning so'z boyligi – bu real dunyo narsalari va hodisalarini, shuningdek, ushbu obyektlar va hodisalarning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi leksik birliklar tizimidir. Borliq obyektlari va hodisalari o'rtasidagi munosabat turlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatdir. Qarama-qarshi tomonlarning aloqasi bilan bog'langan so'zlar va o'zlarining ma'nolari bilan ifoda etadigan ushbu qarama-qarshiliklar so'z birikmasi tarkibida maxsus "qatlam" yoki "mikrosistema"⁶⁰ni tashkil qiladi. Tilshunoslikda bu so'zlar odatda antonimlar deb nomlanadi.

Antonimlar qarama-qarshi so'zlar, ifodalar va teskari ma'no anglatadigan so'zlardir⁶¹. Masalan: *reich* - *arm*, *Paradies* - *Hölle* va h.k. Antonim so'zi grekcha "*anti*" *qarama* - *qarshi*, *zid*, "*omona*"⁶² nom degan ma'nolarni anglatadi. Yangi davrda antonimlik leksemalar o'rtasidagi semantik zid ma'no sifatida ta'riflanadi⁶³.

Antonimiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan ishlardan kelib chiqadiki, antonimiya muammosini muhokama qilish tilshunoslik uchun hali ham qiziq. Antonimiya masalasi kam tadqiq qilingan mavzudur⁶⁴. Ushbu masalaning rivojlanishda oqsashi nazariy tomonga ham, amaliy tomonga ham taalluqli. Sohaning rivojlanmaganligiga nemis tili bo'yicha antonimlar lug'atlarining yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Antonimiyani ko'rsatmalari ba'zida boshqa turdagi lug'atlarda beriladi – ko'pincha sinonimik va uslubiy, bu albatta, ushbu lug'atlarni tuzuvchilarning asosiy maqsadi emas⁶⁵.

Antonimiya hodisasi tilshunoslarning doimiy qiziqishi va qo'shimcha izlanishlarni talab qiladi. Tildagi antonimlik tilning lug'at boyligini, undagi mavjud so'zlarni chuqur o'rganishga undaydi va so'zlarning o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabatlarini o'rganadi. Antonimiya ham tilda sinonimiya, omonimiya, giperonimiya, giponimiya

kabi lug'at boyligini oshirishga, til birliklarini – morfemalar, leksemalar, semalar va frazeologik birliklarning o'zaro qarama-qarshi munosabatlarini o'rganadi. Antonimiya muammolari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish davrida (L.R. Zinder, Ye.I.Rodicheva, M.D.Stepanova, T.V.Stroyeva - Sokolskaya, I.I. Chernisheva, N.M.Shanskiy va boshqalar) "antonim" tushunchasini talqin qilish, antonimlarni tasniflash va tizimlashtirish bo'yicha tilshunoslarning qarashlari bir xil emas degan xulosaga kelishga imkon beradi. Shunday qilib, N.M.Shanskiy antonimlarni "qarama-qarshi, ammo mos tushunchalar" deb ta'riflaydi⁶⁶. L.R.Zinder, T.V.Stroyeva-Sokolskaya asarlarida antonimlar "qarama-qarshi ma'no ifodalovchi xususiyati bilan bir-biriga bog'lanadigan so'zlar juftligi"⁶⁷ deb ta'riflanadi. Rus tilshunosi M.D.Stepanova, I.I.Chernishevalar antonimlar ostida, "qutb tushunchalarini" ifodalaydigan so'zlarni⁶⁸ tushunishadi.

Antonimlar tadqiqida mualliflarning qarama-qarshilik kategoriyasini mantiqan ham bir-biriga mos kelmaydigan tarzda mantiqiy talqin qilishi antonimiyani lisoniy mohiyatini aks ettirmaydi. Bitta konsepsiya yo'qligini tan olgan holda, masalaning ikkita yo'nalishini ajratib ko'rsatish kerak: birinchisi, semantik ma'nosi jihatidan qarshi qo'yish va ikkinchi yo'nalishdagi ishlarning maqsadi antonimiyani so'zlarning tizimli bog'lanishlari orqali o'rganishdir. Shubhasiz, ushbu turdagi tadqiqotlar samaraliroq va ko'p jihatdan muammoning mohiyatini ochib beradi.

Antonimiya hodisasini lingvistik jihatdan ko'rib chiqishga harakat qilingan dastlabki ishlardan biri V.N.Komissarovning ishidir⁶⁹. Antonimiyani lingvistik kategoriya sifatida ko'rib chiqishda muallif antonimlarni aniqlash uchun ikkita mezonni taklif qiladi:

- 1) kontekstda antonimdan foydalanishning muntazamligi;
- 2) so'zlar – antonimlar leksik muvofiqligining umumiyliigi;

Antonimiya masalasini hal qilishga lingvistik nuqtayi nazardan yondashishning navbatdagi urinishi L.T.Korneyevaning zamonaviy nemis

⁶⁰ Уфимцева А. А. Опыт изучения лексики как системы. – Москва: 1962.

⁶¹ Lewandowski Th. Linguistisches Wörterbuch I. – Heidelberg: Quelle & Meyer, 1973, S. 49.

⁶² Lewandowski Th. Linguistisches Wörterbuch I. – Heidelberg: Quelle & Meyer, 1973, S. 49.

⁶³ Metzler Lexikon. Hrsg. von H. Glück. – Heidelberg: J. B. Metzler S.45.

⁶⁴ Гельбл Я. И. Способы выражения антонимичности в современном немецком языке. – Л.: 1965.

⁶⁵ Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Hrsg. von Ruth Klappenbach und Wolfgang Steinitz. – Berlin: 1962.

⁶⁶ Шанский Н. М. Очерки по русскому словообразованию и лексикологии. – М.: Изд-во МГУ, 1959, с. 197.

⁶⁷ Зиндер Л. Р., Строева-Сокольская Т. В. Современный немецкий язык. – Л.: Учпедгиз, 1941, с. 303.

⁶⁸ Степанова М. Д., Чернышева И. И. Лексикология немецкого языка. – М.: Высшая школа, 1963, с. 201.

⁶⁹ Комиссаров В. Н. Семантическая характеристика слов-антонимов (на материале английского языка): автореф. дисс. канд. фил. н. – М.: 1962, с. 22.

tili fe'llari tizimidagi antonimiyaning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ishidir⁷⁰. U nemis tilining morfologik tuzilishini semantik omillar bilan ko'rib chiqqan Y.I.Shendels va leksemalarni amaliy jihatdan tahlil qilgan Y.D.Apresyanlar izidan borib, semantik tarkibi nuqtayi nazardan fe'llarning antonimini topish ustida ish olib borgan. Antonimlar uchun birinchi shart leksik-grammatik va leksemalarning umumiy semalari bilan bir qatorda ularni bir-biridan ajratib, farqlab turadigan semalar mavjud degan fikrga kelgan. Ikkinchi sharti esa bu so'zlarni xuddi shu kontekst ichida qo'llash imkoniyati mavjudligiga ishongan.

Ushbu ikkita pozisiya antonimlarni ikkita o'zaro bir-birini istisno qiladigan leksik semalar ishtirokida umumiy semalar majmuasi bilan tavsiflangan va bir xil tipologik sharoitlarda ishlatiladigan juft so'zlar sifatida aniqlashga asos bo'ldi. Ushbu yondashuv antonim masalasini hal qilishga katta hissa qo'shdi. Agar tahlil qandaydir umumiylik, o'ziga xoslik bilan birlashtirilgan lingvistik materialda olib borilsa, lingvistik tadqiqotlarning samaradorligi har doim sezilarli bo'ladi, chunki faqat o'ziga xoslik fonida alohida so'zlarning har xil farqlarini ajratish mumkin. Ko'rinishidan, bunday "umumiylik", ya'ni so'zlar guruhi eng umumlashtirilgan, mavhum ma'noga asoslangan nutqning bir qismi bo'lib, uning qulayligi A.I.Smirniskiy ko'rsatgan tilning leksik tarkibi semantikasini tizimli tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi⁷¹. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, antonimlarning nutqning turli qismlariga mansubligiga qarab (ma'nosi, vazifalari, so'z yasash qobiliyatlari) o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Endi monografiyaning asosiy mavzusi bo'lgan frazeologik antonimlarga to'xtaladigan bo'lsak, eng birinchi frazeologizmlar ham leksik birliklar kabi o'zining sinonimlari, omonimlari va antonimlariga ega ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, frazeologik sinonimlar frazeologik antonimlarga qaraganda keng o'rganilgan. Ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak frazeologik antonimlarning tilshunoslikda va qiyosiy planda juda kam o'rganilganligini guvohi bo'lamiz. Albatta, shu sohada olib borilgan

izlanishlar mahsuli natijasida tuzilgan nemis tilining antonim lug'atlari mavjud. Masalan, Karl Abelning „Gegensinn der Worte“, Wolfgang Mullerning „Das Gegenwörterbuch“, V.M.Zavyalovaning „Deutsche Antonyme“, X.Agrikolaning „Wörter und Gegenwörter“ kabi kitoblarni keltirish mumkin. Biroq ularning barchasida faqat so'zlarning antonimlari alfavit tartibida berilgan. Afsuski, hali nemis tilida frazeologizmlarning antonim lug'atlari tuzilmagan.

Aksariyat olimlar tomonidan (semantik nuqtayi nazardan) antonimlar ta'rifi asosida antonimlar qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar degan umumiy fikr yotadi. Ammo, "qarama-qarshi" tushunchasi noaniq bo'lib, turli tilshunoslar antonim – "qarama-qarshi" so'zlarni turli kategoriyaga kiritadilar.

Frazeologik antonimlar hayotning turli sohalarida paydo bo'lishi mumkin. Buni quyidagi nemis tilida berilgan misollar orqali tasdiqlash mumkin: Masalan: san'at va sport sohasidan (*die erste Geige spielen* "birinchi skripkani chalmoq, bosh rol o'ynamoq" – *die zweite Geige spielen* "ikkinchi skripkani chalmoq, ahamiyatsiz rol o'ynamoq"), transport sohasidan (*den Karren in den Dreck schieben* "ba'zi ishini buzish, chalkashtirish" – *den Karren aus dem Dreck ziehen* "to'g'rilash, qandaydir biznesni yo'lga qo'yish"), karta o'yini maydonidan (*alle Trümpfe in der Hand behalten* – barcha kozirlar qo'lida bo'lishi; *die Trümpfe aus der Hand geben* – barcha kozirlarni qo'ldan boy berish").

Frazeologik antonimlarning kelib chiqishi manbai turli xil hayotiy vaziyatlarni aks ettirishi ham mumkin: Masalan: *in Garn gehen* "to'rga, tuzoqqa tushish" – *durch Garn gehen* "tuzoqdan qochish", ritsarlik turnirlari (*mit offenem Visier* (visor ko'tarilgan, ochiq, to'g'ri) – *mit verschlossenem Visier* (visor pastga, yashirin, makkor).

Duden lug'atining IX jildida antonimlar toifasiga *kontradiktiv* yoki *qutbli* (gesund- krank; schwarz- weiß), *kontrastiv* (hell- dunkel), *korrelyatsion* yoki munosabatli (Bruder- Schwester; Angebot- Nachfrage) tushunchalarni ifodalovchi so'zlar kiradi. I.Knoblox antonimlarni quyidagi qarama-qarshi turlarni ifodalaydigan guruhga bo'ladi: *kontradiktiv* (gerade- krumm), *kontrastiv* (kommen- gehen), *korrelyasion* (Bruder- Schwester)⁷².

⁷⁰ Корнеева Л.Т. Глаголы-антонимы в современном немецком языке. Автореф. дисс. канд. фил. н. - М.: 1973, с. 24.

⁷¹ Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. - Москва: Изд-во литературы на иностранных языках. 1956, с. 260.

⁷² Завьялова В. М. Deutsche Antonyme. - Москва. Высшая школа, 1969, с. 5.

Antonimlarning asosiy xususiyatlardan biri ularning inkor soʻz yoki frazeologik birlik bilan bevosita bogʻlanishidir. Qarama-qarshilikning birinchi komponenti ikkinchisini inkor etadi, ikkinchisi birinчисini inkor qiladi. Masalan *j-m keine Ruhe lassen* (tinch qoʻymaslik) – *jmdn in Ruhe lassen* (oʻz holiga qoʻymoq). Birinchi misolda *kinnidir oʻz holi-joniga qoʻymaslik*, ehtimol unga halal berish nazarda tutilsa, ikkinchisida esa, *birovga tegmaslik, bezovta qilmaslik* ifodalanadi. Bu juftlik tuzilish jihatdan ham semantik jihatdan ham bir-biriga aynan oʻxshash, faqat *keine* inkor soʻzi orqali bir-biriga zid maʼno anglatadi.

Bu hodisa leksik antonimlarda ham frazeologik antonimlarda ham uchraydi. Faqat frazeologik antonimlar leksik antonimlardan farq qiladi. Paydo boʻlishi va qarama-qarshi leksik va frazeologik birliklarning faoliyati tashqi dunyo tomonidan belgilanadi. Bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan antonimik maʼnolar barcha mazmuni bilan paradigmatic jihatdan faqat bittasida farqlanadi. Har bir antonim oʻz ichiga qarama-qarshi differensial xususiyat kasb etadi. Antonimlarning oʻzaro semantik yaqinligi paradigmatic munosabatlar, yaʼni ularning sintaktik va leksik jihatdan boshqa soʻzlar bilan oʻxshashligi, ayniqsa, sintaksisda-sintagmatikada namoyon boʻladi.

Leksik antonimlar mantiqiy moslikni bildirsa frazeologik antonimlar esa fikrlarning toʻliq mos kelishi bilan tavsiflanadi. Qarama-qarshilikni ifodalovchi kontekstlarda ularni muntazam ravishda qoʻllash imkonini beradi, masalan, *alles durch eine schwarze Brille sehen* (pessimistik munosabat bildirish)– *alles durch eine rosa-rote Brille sehen* (optimistik munosabat bildirish). Aslida *pushti* rang bilan *qora* rang antonim munosabatlarga kirishmaydi, biroq kontekstda ular qarama-qarshi maʼno ifodalagani tufayli frazeologik antonim sifatida qabul qilinadi.

Frazeologizmlarning umumiy tarkibi bir xil boʻlsa, ammo ular antonimik kontekstlarda qoʻllanilsa, antonimik frazeologizmlar hisoblanadi. Nemis va rus tilshunosi A.Levin-Steynmannning fikriga koʻra, frazeologizmlar komponentlarining maʼnolari, qarama-qarshi, *kontradiktor*, *kontrar*, *vektorial*, semantik va kontekst jihatdan bir-biriga zid maʼno anglatayotgan boʻlsa, antonimik munosabatlarga kirisha oladi, bu frazeologizmlarning barcha komponentlariga amal qiladi.

Olim oʻz ilmiy ishida frazeologik antonimiya muammosi asosan leksik antonimiyani ifodalash yoki frazeologizmlarning tizimli kontekstida boʻlgan tavsifi uchun qabul qilinganligi aytadi⁷³. Frazeologizmlar oʻrtasidagi antonimlik munosabatini ular tarkibidagi leksik antonimlar orqali ham aniqlashga urinib koʻrish baʼzi hollarda samarali natija beradi. Masalan: *in Ordnung bringen - in Unordnung bringen*.

Frazeologik antonimlarni olimlar tomonidan tadqiq qilish motivlari bir-biridan katta farq qiladi. Masalan, rus olimi L.A.Novikov frazeologik antonimlarning badiiy nutqda asosiy vosita sifatidagi ahamiyatini qayd etadi va ularni formal strukturaviy tartibga soladi⁷⁴.

Frazeologik antonimlar muntazam semantik qarama-qarshilik, bir xil leksik-semantik paradigmaga tegishlik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ular odatda nutqning bir xil qismiga tegishli boʻladi va bir xil soʻzlar bilan ifodalanadi⁷⁵. Ushbu fikrlardan farqli oʻlaroq nemis tilshunosi V.Flaysherning taʼkidlashicha, koʻp frazeologizmlarning omonimik, sinonimik va antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyati tufayli frazeologik komponentlarning oʻziga xos xususiyati mavjud⁷⁶. Bu nuqtayi nazarni boshqa mualliflar ham qabul qiladilar, ular keltirgan misollarda tegishli frazeologik komponentlar bir-birining oʻrnini bosadi, deb taxmin qiladilar va shu bilan bir xil tuzilgan komponentlar uchun frazeologik antonim uchun asos yaratadilar.

Shu oʻrinda I.I.Chernishevaning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb topdik. „Biroq, oʻzgaruvchan soʻz birikmalarining frazeologizm sifatida vujudga kelishi turli tuzilgan birliklar misolida koʻproq aks etadi“, lekin shu bilan birga bir-biridan cheklaydi va xatto frazeologizmlar semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi va stilistik jihatdan bir xil boʻlishini taʼminlaydi.“⁷⁷

Levin Shtaynmann A. „*Antonymische Beziehungen in der russischen Gegenwartssprache*“ nomli kitobida frazeologik antonimlarning turli tarkibiy tuzilish turlarini qayd etgan va frazeologik antonimiya

⁷³ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S. 44.

⁷⁴ Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – М.: 1973, с. 257.

⁷⁵ Жуков В.П. О знаковости компонентов фразеологизма. // Вопросы языкознания. – Москва. № 6. 1975, с. 41.

⁷⁶ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig: 1982.

⁷⁷ Cernyseva I. I. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. – Moskau: 1980, S. 82.

muammosidan qilingan ishlarda, nashr etilgan maqolalarda frazeologik antonimlar to'g'risida so'z yuritilib, ularda tillarda frazeologik antonim hodisasi haqiqatda ham mavjud ekanligi ta'kidlanadi.

Ko'plab olimlar fikrlarini o'rganib, tilshunos Levin Shtaynmann rus tilidagi frazeologizmlar o'rtasidagi antonimlik munosabatlarini ham aniq turlarga ajratgan va misollar keltirgan. U frazeologik antonimlarni *kontrar*, *komplementar*, *konversiv* va *vektorial* antonimik munosabatlar hosil qiladi, degan fikrni ilgari suradi va rus tilidagi frazeologik antonimlardan misollar keltirgan. Misol uchun: kontrar munosabatdagi frazeologik antonimlar⁷⁸ *значительный человек - незначительный человек, важная птица - мелкая сошка* kabi frazeologik antonimlar ot frazeologik antonimlar tarkibiga kiritilgan.

Tilshunos N.B.Shvelidzening fikricha, frazeologik birliklarda nafaqat asosiy so'zlarning ma'nolari, balki qo'shimchalari ham qarama-qarshi turadi. Frazeologik birliklar agar ular aynan bir xil so'zlardan tashkil topgan bo'lsa, yoki ular tarkibida antonimlik munosabatini tashkil qiluvchi so'zlar bo'lsagina antonimlashtiriladi. Frazeologik birliklarning antonimiyasi ham ularning leksik va semantikligiga bog'liq bo'ladi. O'zbek tilida *esidan ko'tarilmoq - esiga kelmoq*, rus tilida *во вес золота - не своим голосом*, nemis tilida esa *auf der Bildfläche erscheinen - von der Bildfläche verschwinden*. Ushbu frazeologik antonimlar bir-biridan grammatik jihatdan farq qilishadi. Aynan nemis tili misolda berilgan *auf der* va *von der* predlog+artikel birikmalari ayni misollarda dativ kelishigini talab qilganligi uchungina har ikkala artikllar ham shu kelishikda qo'llaniladi. Aslida *auf* predlogidan keyin akkuzativ kelishigi ham qo'llaniladi. *Erscheinen* va *verschwinden* fe'llari wo? so'rog'iga javob talab qilgani uchun *auf* va *von* predloglaridan so'ng dativ kelishigi qo'llanilgan.

A.I.Molotkov frazeologik antonimlar birliklarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan:

- a) qarama-qarshi leksik ma'no;
- b) to'liq bo'lmagan komponentli tarkib;

c) bir xil tarkibiy qismli⁷⁹ quyidagi frazeologik antonimlarni fikrining isboti sifatida keltirgan: misollar, *гладит по шерстке - гладит против шерсти, проводит гран - стирает гран, жит своим умом - жит чужим умом, надеват/носит маску/личину - сбрасиват/скидиват маску/личину*. *Für jmdn die Hand heben - gegen jmdn die Hand heben, j-m die Zunge binden - j-m die Zunge lösen*. Keltirilgan ushbu misolda - *für jmdn die Hand heben - gegen jmdn die Hand heben* kimdir birov uchun yoki unga qarshi ish qilishi anglashiladi. Frazeologizmlar tarkibidagi *für* va *gegen* komponentlari qarama-qarshi ma'noni yoritib beradi. *J-m die Zunge binden - j-m die Zunge lösen* misolini to'liq bo'lmagan tarkibiy qismli frazeologik antonim sifatida qarash to'g'ri bo'lar ehtimol. Chunki bu frazeologik antonimlarning tarkibiy qismini aynan bir xil deb bo'lmaydi. Ularda qo'llanilgan fe'llar leksik antonim munosabatga kirisha olgani sabab frazeologizmlar komponenti sifatida ham antonimik munosabat hosil qilgan.

Ayrim frazeologik antonimlar qutbli qarama-qarshi ma'noga ega, bir xil tuzilish, o'xshash struktura, lekin uning leksik hajmi jihatidan ma'nolari har doim ham bir xil emas. Bu nemis tilida Harald Burger tasnifi bo'yicha bir frazeologizm ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *Gas geben* iborasini ham o'z leksik ma'nosida, ham ko'chma ma'noda tushunish mumkin. Deylik chekka bir qishloq gazlashtirilmagan va u yerga ham gaz yetkazib berildi. Bu leksik ma'noda qo'llangan. *Wenn Sie Gas geben, sparen Sie Kohle.- Agar gaz berilsa ko'mirni tejash mumkin*. H. Burgerning „Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen“ kitobida keltirilgan misolda kontekstda yana bir yangi ma'no kelib chiqayotganini⁸⁰ ko'rish mumkin. Shuning uchun frazeologik birliklar barcha ma'nolarda emas, balki faqat aynan bir ma'nosda antonimik bo'lib qoladi.

Inson xulq-atvori ma'nosiga ega frazeologik antonimlarning ma'lum bir guruhi mutlaq qarama-qarshiliklarni ifodalaydi: *мутит воду - проливает свет, затикает глотку - тянут за язык*. Tadqiqotchilar qarama-qarshiligi mutlaq antonimlarni ikki guruhga bo'lishadi. Birinchisi

⁷⁸ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. - München: Otto Sagner, 1992, S. 49.

⁷⁹ Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. - Ленинград, 1977.

⁸⁰ Harald Burger. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 2., bearbeitete Aufl. - Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010, S. 167.

denotatlar deb ataladi, ular borliqning bir-biriga mutlaq qarama-qarshiligi bilan xarakterlanadi, ya'ni barqarorligi bilan tavsiflanadi, ulardagi obyektlar o'zgarmas qarshilik darajasini bildiradi. Masalan: *валят дурака – злым злым*. Antonimlarning yana bir guruhi nisbiy qarama-qarshiliklarni aks ettirgani tufayli o'zgaruvchan belgilarga ega denotatlarni ifodalaydi: *летят в облаках – смотрят правде в глаза*.

Frazeologik antonimlarning semantik turlari so'z antonimlarining turlariga o'xshash bo'ladi. Frazeologik antonimlar *kontrar*, *komplementar* va *vektorial* bo'lishi mumkin. Kontrar antonimlar simmetrik tuzilishga ega bo'ladi. Mavjud antonimlar harakatning asta-sekin kuchayishi yoki zaiflashishi bilan antonimlik munosabatini hosil qiladi va qarama-qarshi ma'no anglatadi, masalan, *jemandes guter Geist – jemandes böser Geist*. Bu misolni izohi sifatida *hech kim yomon bo'lib tug'ulmaydi, yomon bo'lib shakllanadi* degan maqolni keltirish mumkin, chunki *gut* va *böse* o'rtasidagi farq leksik ma'noda kimningdir jahli chiqqani tufayli o'zgargan vaziyatni aks etiradi.

Antonimlarning strukturaviy turlari frazeologik birliklarning bir turga mansubligi yoki ularning turli modellarga ega ekanligi bilan belgilanadi. Frazeologik antonimlar tarkibiy jihatdan bir xil turdagi va tarkibiy xilma-xil frazeologik birliklarga bo'linadi.

Frazeologik antonimlarni qarama-qarshi ma'noli frazeologik birliklar deb hisoblanib, frazeologik antonimlar quyidagi majburiy belgilar bilan tavsiflanadi:

1) muntazam semantik qarama-qarshilik, masalan, *kaum drei Käse hoch* (pakana odamga nisbatan ishlatiladi) va *eine lange Latte* (bo'yi uzun insonga nisbatan qo'llanadi) har qanday kontekstda qarama-qarshi ma'noga ega;

2) ularning bir xil leksik-semantik paradigmaga mansubligi, masalan, *den Durchblick haben – den Durchblick verlieren*.

Frazeologiyada antonimik munosabatlar sinonimik munosabatlarga qaraganda kam rivojlangan bo'lib, eng e'tiborga loyiq jihat frazeologik antonimiya tarkibida qisman mos keladigan, ammo ma'no jihatidan qarama - qarshi bo'lgan tarkibiy qismlarga ega bo'lgan birliklar tomonidan shakllantiriladi: *ein gutes Herz – ein hartes Herz*. Bunday iboralarga qarama-qarshi ma'no beruvchi komponentlar ko'pincha leksik

antonimlardir. Bunday komponentlarning faqat iboraning bir qismi sifatida "kontekst" antonim bo'lib qolishi ham mumkin.

Ko'pincha iboraning antonimiyasi ularning leksik sinonimlarining antonimik bog'lanishlari bilan ifodalanadi. Shunday qilib, frazemalar ham so'zlar kabi sinonimiya va antonimiya munosabatlariga kiradi. Antonimiya bo'yicha fundamental ishlar L.A.Vedenskaya, Y.N.Miller, L.A.Novikova, Y.V.Fedosova antonimlarning tabiati, mohiyati va chegaralarini aniqlashda mavjud kelishmovchiliklarni ko'rsatadilar. Frazeologik antonimiya ustida A.I.Alexina, L.P.Zimoy, N.P.Kolesnikonoy, M.I.Sidorenko, A.M.Emirova, L.P.Zimina, A.Levin-Steynmann va boshqa olimlar izlanish olib borishgan. Ularning olib borgan tadqiqotlarida frazeologik va leksik antonimiyaning tilda haqiqatan ham mavjudligi isbotlangan. Shu bilan birga, ular o'rtasida sezilarli semantik, stilistik, tarkibiy, funksional o'xshashlik va farqlar mavjudligi ta'kidlanagan.

Leksikologiyada so'zlar o'rtasidagi ziddiyat kabi barqaror iboralar yoki frazeologik birliklarda ham qarama-qarshiliklar uchraydi. Masalan, in *Ordnung bringen* "tartibga solmoq" – in *Unordnung bringen* "tartibsiz qilib tashlamoq"; in *Mode kommen* "urf bo'lmoq" – aus der Mode kommen "urfdan qolmoq".

Antonimik tarkibiy qismlarga ega frazeologik birliklar aniq belgilangan. Ular yetarlicha samarali va ko'plab tillarning frazeologiyasida birinchisi frazeologizm komponentida antonimik tarkibiy qismlar mavjudligi sababli ular osongina tanib olinadi va frazeologiya mikrosistemalaridan birini yaratadi⁸¹.

Nemis tilidagi frazeologik antonimlar to'g'risida hozirga qadar mukammal tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, ammo bu borada qilingan ba'zi ishlar mavjud. L.P.Zimina "Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке" nomli o'quv qo'llanmasida frazeologik antonimlarni ta'riflab bergan. L.P.Zimina nemis tilida frazeologik antonimlarni ikkita guruhga ajratgan - tarkibiy va semantik guruhlar: bir komponentli (bir xil turdagi) va ko'p komponentli (har xil turdagi). Masalan: *dicke Ohren haben* "qulog'ini ding qilmoq" – *dünne Ohren haben* "qulog'ini ding qilmaslik"; *(alle) Herrschaft an sich halten*

⁸¹ Маннурова П.Г. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с антонимичными компонентами в английском и татарском языках. – Чебоксары: 2013, с.3.

“(mas’uliyatni) o’z zimmasiga olmoq” - (alle) *Herrschaft über sich verlieren* “bo’yin tovlamoq (mas’uliyatdan qochmoq)”.

Nemis tilida bir komponentli frazeologik antonimlar ustunlik qiladi. Bir komponentli frazeologik antonimlar ko’p komponentli frazeologizmlarga qaraganda o’zlarining qarama-qarshilik xususiyatini aniq namoyon qiladi. Ular tarkibi va ma’no jihatidan quyidagi xususiyatlar bilan farq qiladi. Bir komponentli frazeologik antonimlarning birinchi o’ziga xos xususiyati shundaki, ular frazeologik antonimlarning har bir turiga xos bo’lgan ma’lum rasmiy ko’rsatkichlari bo’yicha tashqi qarama-qarshilik orqali ichki qarama-qarshilikni ifodalaydi. Frazeologik qo’shilma ko’pincha ikki so’zdan, ba’zan undan ortiq so’zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo’shilma tarkibidagi bir yoki ikki so’z ko’chma ma’noda qo’llanib, boshqasi o’z leksik ma’nosini saqlagan bo’ladi. Ko’chma ma’noni ifoda etgan element yolg’iz o’zi kelganda ko’chma ma’nolik xususiyatini yo’qotib, o’z asl ma’nosini bildiradi.

Shuning uchun ham frazeologik qo’shilma tarkibidagi bir elementning ko’chma ma’no ifoda etishi uchun ikkinchi elementi o’z ma’nosida kelgan bo’lishi shart. Bundan ma’lum bo’ladiki, frazeologik qo’shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko’chma ma’no butun bog’lanmagan so’zlarda bog’langan ma’nodan yuzaga keladi. Frazeologik qo’shilma tarkibidagi erkin element bu iboraning erkin so’zlar bog’lanmasi va sintaktik bog’lanmalarga o’xshashlik tomonini ko’rsatadi, ammo frazeologik qo’shilmalarni sintaktik bog’lanmadan farqlay bilishi kerak. L.P.Zimina fikriga ko’ra, antonimiyaning ko’rsatkichlari quyidagilar bo’lishi mumkin:

leksik antonimlar;

antonim gaplar;

frazeologizmlarning birida tasdiq va ikkinchisida inkorning mavjudligi⁸².

Antonimiya frazeologizmlar komponentlari o’rtasida paydo bo’lganda u ob’ekt, hodisa, harakat va boshqalarning qarama-qarshi tomonlarini ko’rsatadi. Antonimik munosabatlar frazeologik birliklarda qarama-qarshi ma’noga ega bo’lgan bir xil narsalar, hodisalarni ifodalaydi.

Frazeologik birliklar bir-biri bilan taqqoslaganda bir xil leksik va grammatik xususiyatlarga ega antonim paydo qilishi mumkin.

Frazeologik birliklar yoki frazeologik iboralar kundalik muloqotda muhim rol o’ynaydi va o’ziga xos xususiyati bilan nutqqa ma’no, rang beradi. Shu nuqtai nazardan, ular kombinatsiyalarning maxsus guruhi sifatida tanilgan. Ular o’ziga xos leksikosemantik belgilarga ega bo’lgan har qanday milliy tilning so’z boyligidir. Semantikaga ega frazeologik iboralar tomonlar va emotsional-ekspressiv keskinlik mohiyat sifatida tanilgan har bir millatning o’ziga xos leksik va semantik til boyligidir⁸³. Qarama-qarshi ma’noga ega frazeologik birliklardan foydalanish tez-tez uchraydigan til hodisasi hisoblanadi. Doimiy ravishda bunday qarama-qarshi foydalanish kombinatsiyalarni frazeologik antonimiya deb atash mumkin.

Frazeologik antonimlar nominativ, metafora va obrazli fazilatlariga ega⁸⁴.

Tilshunoslikda frazeologik antonimlar hodisasi ko’plab olimlarning diqqat markazida bo’lgan va shu munosabat bilan ularning qarashlari bu hodisa bo’yicha tubdan farq qiladi. Frazeologik antonimlarni quyidagi tematika bo’yicha guruhlarga bo’lish mumkin:

1. Fe’llar qiymati ustun bo’lgan frazeologizmlar;
2. Ot so’z turkumidagi komponentlarning qiymati ustun bo’lgan frazeologik antonimlar;
3. Sifat so’z turkumidagi komponentlarning qiymati ustun bo’lgan frazeologik antonimlar;
4. Ravish so’z turkumidagi komponentlarning qiymati ustun bo’lgan frazeologik antonimlar;

P.Mannurova „Сопоставительный анализ фразеологических единиц с антономическими компонентами в английском и татарском языках“ nomli avtoreferatida ingliz va tatar tillarni solishtirib, ulardagi frazeologik antonimlarning quyidagi turlari mavjudligini ko’rsatgan:

1. Ingliz va tatar tillarida leksik antonimlar tushunchasini hisobga olgan holda antonimik tarkibiy qismlarga ega frazeologik birliklar;

⁸² Зимина Л. П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. Учеб. пособие по фразеологии. – Кемерово; 1977, с. 2.

⁸³ Айназарова Г. Каракалпак тилинде теңлес еки компонентли фразеологизмлер. – Нокис: Каракалпак университети баспаханасы, 2005, с. 85.

⁸⁴ Мусия Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук - Алма-Ата: 1970, с. 17.

2. Komponentlari kontekstli tarkibiy qismlarga ega bo'lgan antonimlar;

3. Frazelogik birliklar mikrosistemasining shakllanishidagi lingvistik omillar ta'sirida yuzaga keladigan antonimlar;

4. Taqqoslanayotgan tillardagi antonim komponentli frazeologizmlar mikrosistemasida yuzaga chiqadigan antonimlar;

5. Ikki tildagi frazeologik birliklar komponentlarining semantik jihatdan qarama-qarshi ma'noga egaligi⁸⁵.

Shunday qilib, frazeologizmlarda ham antonimlik munosabati borligini va uni nemis tilida yanada boyitish zarurligini ko'rish mumkin.

II.2. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning turlari va ularning xususiyatlari

Tilning naqshinkor, jozibali bo'lishida tildagi boshqa hodisalar kabi, antonimlarning ham o'rni katta. Ularni naqafat badiiy adabiyotlarda, balki kundalik hayotdagi og'zaki nutqda ham ko'p uchratamiz.

Antonimlar orqali turli kinoyali gaplar, qochirimlar, zid ma'nolar va shunga o'xshashlar ifodalanadi. Antonimlar haqida buyuk nemis faylasufi, yozuvchi, nemis shoiri Yohan Volfgang fon Gyotening ajoyib fikri bor: "Insoniy munosabatlarning tengligi afsuski, faqat qarama-qarshiliklar orqali ushlab turiladi".

Antonim so'zidagi anti old qo'shimchasi ko'pchilik lug'atlarda grekchadan tarjima qilinganda *gegen* - qarshi degan ma'noni ifodalanishi berilgan. Antonim so'zi o'rniga nemis tilida *Gegenwort*, *Gegensatzwort* va *Oppositionswort* kabi so'zlar ham qo'llanadi. Duden universal lug'atida bir-biriga zid turuvchi so'zlar qarama-qarshi juftlik deb nomlangan.

"Antonimlar qarama-qarshi ma'noli so'zlar" deb I.A.Solodilova o'zining 2004-yil chop etilgan "Лексикология немецкого языка" kitobida ta'riflaydi.

Bugungi kunga qadar leksik antonimlar borasida bir qancha ishlar qilingan. Turli tillarning antonimlar lug'atlari yaratilgan. Leksik antonimlar yuzasidan izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, antonimlar va

ularning turlari borasida ham bir to'xtamga kelinmagan. Turli tillarda antonimlarning turlari farqli ko'rsatilgan. Quyida shularni tahlil qilib chiqamiz.

Vikipediya leksik antonimlarning 3 turi mavjud deb yozadi. Ular quyidagilar:

1. Leksik antonimlar (hoch-niedrig, lang- kurz);
2. Affiksial antonimlar (suvli – suvsiz);
3. Sintaktik antonimlar (ochiq yuz – tund bashara).

Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanib ma'no kengaytiradi yoki ma'noni kuchaytiradi: *kecha-yu kunduz* (har doim). Ko'p ma'noli so'zlar haqida gap borganda, biz bu so'zning hamma ma'nolari uchun bitta antonim so'z qo'llanadi, deya olmaymiz. Bunday leksemalarning har bir ma'nosi uchun uning semantikasidan kelib chiqib, yoki kontekst bo'yicha antonim tanlanadi. Masalan: *gehen* so'ziga birinchi ma'nosi yuzasidan *kommen* fe'lini antonim sifatida berish mumkin. *Gehen* fe'lining uchinchi ma'nosi sifatida keltirilgan *einen Ort verlassen* (biror joyni tark etmoq) ma'nosi uchun *zurückkommen* fe'li mos keladi. Leksemalar o'zining har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlarning har biri bilan bir so'z antonim bo'la oladi: *schön, hübsch, bildhübsch* kabi sinonimlar qatoriga *häßlich* so'zini qarshi qo'yish mumkin. O'zbek tilidagi vikipediya saytida ham ushbu fikr o'z tasdig'ini topgan va quyidagi misollar bilan izohlangan: *qattiq – yumshoq, saxiy; tez – sekin, og'ir; chiroyli – go'zal – xushro'y – ko'hlik; xunuk – badbashara – badburush – ta'viya*. O'zbek tilida antonimik juftlar ko'chma ma'no ifodalashi mumkin: *Anvar tun-u kun ishladi* (ravishga ko'chgan) (qancha ishladi?), *bugun bir besh banka achchiq-chuchuk yopdim* (otga ko'chgan) (ovqat ma'nosida).

Antonimlarning qanday so'z turkumlaridan yasalishi haqida turli fikrlar keltirilgan. Aksariyat tilshunoslar antonimlarni turli xil o'zakli so'zlarda sodir bo'ladi, deb hisoblashadi. 1950-yilda nashr qilingan Sovet ensiklopediyasida yozilishicha, antonimlar faqat turli o'zakli so'zlardan hosil bo'ladi. Ammo, tilshunoslikda bir xil o'zakli so'zlardan ham antonim

⁸⁵ Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1970, с. 17.

tashkil bo'lishi mumkinligini yoqllovchilar ham yo'q emas. Olimlarning fikricha, affiksalar bir xil o'zakli so'zlardan ham antonimlar yasaydi. V.N.Komissarov tuzgan "Hozirgi ingliz tili antonimlar lug'ati"da *un-, in-, im-, il-, ir-, dis-* kabi old qo'shimchalari yordamida yasalgan ko'plab antonimlar berilgan. Masalan: *able- unable*. 1969-yilda Moskva shahrida nashr etilgan rus tilshunosi M.V.Zavyalovaning nemis tili bo'yicha tuzgan antonimlar lug'atida ham bir xil o'zakli so'zlardan *ab-, un-, ver-, ent-* kabi prefikslardan antonimlar yasalganini ko'rish mumkin. Masalan: *ankleiden-entkleiden, absichtlich - unabsichtlich*⁸⁶. Rus tilshunosligida ham bir xil o'zakli fe'llar va sifatlariga bag'ishlangan alohida ishlarni uchratish mumkin. Bu o'rinda, "agar affiksalar yordamida antonimlar yasalsa, ularni qanday chegaralash mumkin degan savol tug'iladi," deydi mashhur o'zbek tilshunosi R.Shukurov. Ushbu savollarga hali ham javob izlanmoqda.

Antonimlarni *mach- mach nicht, gib- gib nicht* kabi birliklardan farqlash zarur, bu birliklar fe'lining bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini ifodalaydi. Antonimlar faqat bir xil so'z turkumlariga tegishli bo'ladi: *der Morgen - der Abend* (ot), *schlau - naiv* (sifat), *weit- nah* (ravish), *aufstehen - hinsetzen* (fe'l). Nutqimizda lug'aviy antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida antonim badiiy adabiyotda tazod yaratish uchun qo'llanadi: *Yaxshi bilan yursang - yetarsan murodga, yomon bilan yursang - qolarsan uyatga*. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga *tazod* san'ati deyiladi.

Antonimlar asosan *sifat, ravish, ot va fe'l* so'z turkumiga xos so'zlardan hosil bo'ladi. R. Shukurov antonimlar leksik ma'noga ega bo'lgan boshqa so'z turkumlari, ya'ni undov so'zlarda ham bo'lishi mumkinligini aytadi va quyidagi misollar bilan fikrini izohlaydi. Mushukka ta'sir o'tkazish uchun *ma-pish-pish-pish*, tovuqlarga *ma-tu-tu-kisht*, eshakka va otga ta'sir uchun *chu-u-dir-r-r*, sigirga *mah-mah-chuv*⁸⁷ va shunga o'xshash so'zlar orasida ham zidlanish mavjudligini ko'rsatib bergan. Ba'zan *hamma, hech kim* kabi olmoshlar ham qarama-qarshi ma'nolarni ifodalaydi. Ammo *sifat, ravish, ot va fe'l*dan boshqa so'z turkumlaridagi antonimiya hodisasi kam uchraydi.

Antonimlik boshqa so'z turkumlariga qaraganda, eng ko'p sifat so'z turkumlarida uchraydi. Sifatlar orasida antonimiyani juda katta rol o'ynashi, shubhasiz, sifatlar semantikasi bilan ob'ektning xususiyatlarini turli nuqtai nazardan belgilaydigan so'zlar sifatida qaraladi: sifatga nisbatan, vaqtga nisbatan, fazoviy jihatdan ta'riflanishi va hissiy jihatlari bilan bog'liqdir. Sifatdagi o'ziga xos antonimiyani aniqlaydigan ana shunday dolzarb omillardan biri bu uning so'z yasash imkoniyatlaridir. Shubhasiz, nutqning bir qismida antonimlarga xos bo'lgan so'z yasash qonunlari boshqasi bilan bir xil bo'lmaydi. Lingvistik materiallarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, antonimik munosabatlar ildiz so'zlar (sodda) va hosilalar o'rtasida, ildiz (oddiy) va murakkab so'zlar o'rtasida paydo bo'ladi. Shunday qilib, sifat sohasidagi hosila tuzilishiga ko'ra, quyidagi antonimik juftlarni ajratish mumkin:

1. Ildiz sifatleri. Masalan: *hart- weich* (qattiq-yumshoq), *schön-häßlich* (chiroyli-chirkin), *breit- schmal* (keng tor).

2. Ildiz va prefiksli sifat. Masalan: *rein - unrein* (toza — iflos, kir).

V.M.Zavyalova nemis tilidagi antonimlarni tuzilish jihatdan 8 turga bo'ladi:

1) har ikki komponenti juft so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *arm - reich*

2) bir komponenti tub, ikkinchisi yasama so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *faul - fleißig*;

3) bir komponenti tub, ikkinchisi prefiksli so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *Frieden - Unfrieden*;

4) bir komponenti suffiksli, ikkinchi prefiksli so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *glücklich - unglücklich*;

5) har ikki komponenti prefiksli so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *bewässern - entwässern*;

6) bir komponenti suffiksli-prefiksli, ikkinchisi prefiksli so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *gebildet - ungebildet*;

7) bir komponenti suffiksli, ikkinchisi qo'shma so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *fehlerhaft - fehlerlos, fehlerfrei*;

⁸⁶ Завьялова В. М. Deutsche Antonyme. — Москва: Высшая школа, 1969, с. 28

⁸⁷ Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologiyasi. — Toshkent. 2019, 8 b.

8) har ikki komponenti qo'shma so'zlardan tashkil topgan antonimlar: *reizlos - reizvoll*⁸⁸. Keltirilgan leksik antonimlar frazeologik antonimlarning mavjudligiga ham asos bo'lishi mumkin. Leksik antonimlar orqali frazeologiyada ham antonimiya hodisasi borligini o'rganib chiqamiz. Frazeologiyada ham antonimiyaning mavjudligi tilshunoslik uchun yangilik emas, bu o'rinda nemis tilida ham frazeologik antonimlar mavjudligi tadqiq qilinadi.

Ayrim frazeologizmlarning tuzilish jihatdan bo'linish xususiyatiga ko'ra, ya'ni ular bilan bog'langan so'zlarni o'z ichiga olishi divergent sintaktik konstruksiyalar uchun keyingi imkoniyatdir, lekin bu ma'nodagi ziddiyatga ta'sir qilmaydi. Lingvistik birliklarning uslubiy belgilarining vazifasi ularning qanday qo'llanishini tushuntirishdan iborat. Bu xususiyatda ularni ma'no elementi sifatida anglab bo'lmaydi va binobarin, til birliklari orasidagi ma'lum munosabatlarni ma'no darajasida aks ettiruvchi antonimiya uchun ham tegishli emas. Konteksning roliga kelsak, Y.Shmidtning "tildagi antonimlar so'z ma'nosidagi solishtiruv mustahkamlanib qolgandagina va ma'lum bir kontekstga bog'liq bo'lmaganidagina vujudga keladi", deb ta'kidlagan fikriga qo'shilish kerak⁸⁹. Antonimlashtirish uchun semantik salohiyatga ega bo'lmagan "okkozional antonimlar" aniq chiqarib tashlanadi. Biroq, konteksning antonimiya turiga ta'sirini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak, chunki konteks individual antonimik kichik tiplar orasidagi chegaralarni olib tashlashga qodir⁹⁰. Ma'nolar qarama-qarshiligining o'ziga xos aks etishiga ko'ra, L.A.Novikov turli xil qarama-qarshilik assotsiatsiyalari asosida antonimik munosabatlarning to'rtta kichik turini ajratgan:

- 1) Kontrar antonimik munosabatlar
- 2) Komplimentar antonimik munosabatlar
- 3) Konversiv antonimik munosabatlar
- 4) Vektorial antonimik munosabatlar⁹¹

⁸⁸ Завьялова В. М. Deutsche Antonyme. Высшая школа. — Москва: 1969, с. 32.

⁸⁹ Schmidt E. Adjektivische Antonyme zur charakterisierenden Beschreibung von Personen im Russischen nach physischen Gesichtspunkten. — Magdeburg: 1986, S.40.

⁹⁰ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. — München: Otto Sagner, 1992, S.22.

⁹¹ Новиков Л.А. Русская антонимия и её лексикографическое описание. Словарь антонимов русского языка. — Москва: 1984, с. 7.

Frazeologik antonimlarni ham antonimlarning shu turlari ostida jamlashga va tahlil qilishga urinishlar bor.

Bir xil tuzilgan frazeologizmlar uchun ushbu kichik turning ahamiyati katta. Umuman frazeologizmlar o'rtasidagi kontrar antonimik munosabatlarni isbotlash uchun ma'no tarkibida juda o'ziga xos semalarni belgilovchi yuqorida aytib o'tilgan ikki qutbning belgilanishi, qarama-qarshi fazoviy, vaqt, miqdor va sifat munosabatlar ifodalanadi va o'rta maydon yoki o'tish nuqtasining mavjudligi bilan aniqlanadi. Ushbu kichik tipdagi og'zaki frazeologizmlarni vektorial frazeologizmlardan ajratish uchun ikkala omil ham juda muhimdir. Bir xil tuzilgan frazeologizmlarda kontrar munosabatlarni o'rnatishning boshlang'ich nuqtasi ularning mavjudligidagi farqli leksik tarkibiy qismlardir. Quyida ko'rib chiqiladigan misollarda o'zgaruvchan sifatli frazeologizmlar anchagina ustunlik qiladi. O'zgaruvchan predlogli, og'zaki yoki olmoshli tarkibiy qismlarga ega bo'lgan mos keluvchi frazeologik antonimlar nisbatan juda kam. Bir xil tuzilgan frazeologizmlar holatida antonimiyaning ushbu kichik turini tavsiflash uchun morfologik-sintaktik tamoyildan foydalanish mumkin, bu asosda umumlashtirilgan frazeologizmlar tegishli semantik xususiyatlarga ko'ra o'zgaruvchan tarkibiy qismlarning semantikasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ikki frazeologik birlik komponentlarining bir-biriga kontrar antonimik munosabat anglatuvchi fraeologik juftliklarni yana quyidagi turlarga ajratish mumkin: a) ot frazeologizmlar b) sifat frazeologizmlar d) ravish frazeologizmlar e) fe'l frazeologizmlar⁹². Frazeologik antonimlarning ushbu 4 turida (kontrar, komplimentar, konversiv va vektorial) ham bir xil strukturali, ham har xil strukturali frazeologik birliklar uchraydi.

Komplimentar antonim munosabat.

Komplementar munosabatlar ikki frazeologik birliklar o'rtasida agar ularning qarama-qarshi qo'yilgan ma'nolari bir-birini istisno qilsa, ya'ni hech qanday o'rta nuqta mavjud bo'lmasa shakllanadi.

Bu turkumga xos xususiyat shundan iboratki, bir sememaning ma'nosi ma'lum bir xususiyatning mavjudligini ifodalaydi, semantik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan semaning ma'nosi esa o'shaning yo'qligini

⁹² Зимина Л. П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. Учебное пособие по фразеологии. — Кемерово: 1977, с. 760.

bildiradi va shu tariqa bir leksemaning inkori ikkinchisining tasdiqlanishini bildiradi⁹³. Bu turdagi antonimik munosabatlarga xos jihati shundaki, ikkita A va B leksemalarda A leksema shakl bilan ifodalangan tasdiq B leksema tarkibida inkor operatori bilan birlashib, leksematik birlik hosil qiladi⁹⁴, ya'ni, A leksema shaklning inkori B leksemasining ma'nosiga tenglashtiriladi. O'z mos kelishi orqali inkor bilan bog'langan leksemalardagi antonimlar to'ldiruvchi antonimik munosabatlarning mavjudligi uchun zaruriy shartdir.

Masalan: *verheiratet* - *unverheiratet* = *nicht verheiratet*

Frazeologizmlar misolida: *in Betrieb sein* (ishlamoq, yaroqli bo'lmoq) - *außer Betrieb sein* (ishga yaroqsiz bo'lmoq, buzilgan bo'lmoq)

In Betrieb sein - *nicht in Betrieb sein* = *außer Betrieb sein*

Va yana aksincha, C leksemasining aniq sintaktik inkor tashuvchisi bilan birikmasi ijobiy bo'lishi kerak.

Masalan: *unverheiratet* = *nicht verheiratet*

Ins Bett kommen - *nicht ins Bett kommen* ≠ *aus dem Bett kommen* ga teng emas. Shuning uchun bu antonimik juftlik komplementar antonimga misol bo'la olmaydi. Boshqa bir frazeologik juftlikni ko'rib chiqilsa:

Auf die Palme gehen (g'azablanmoq) - *nicht auf die Palme gehen* (g'azablanmaslik) = *ruhig bleiben/ den Nerv haben/ behalten* (asabini jilovlamoq, g'azablanmaslik) juftligida birining inkori ikkinchisining tasdig'ini berayotganini ko'rish mumkin.

Inkor so'zlar bilan bog'langan antonimlarning ma'no identifikatori tegishli leksemalar bilan bir-birini to'ldiruvchi antonimik munosabatlar mavjudligining zaruriy shartini ifodalashi kerak.

Antonim yasashda inkor so'zlarning ham roli mavjud. Ushbu turdagi frazeologik juftliklar ma'nolari bir-birini istisno qiladi, bu turda o'rta maydon yoki o'tish nuqtasi bo'lmaydi. Komplementar antonimlarga tegishli frazeologik juftliklarning bir-birini to'ldiruvchi munosabatlari o'rganiladi. Masalan, *einen Bissen zu sich nehmen* (o'ziga bir chimdim luqma olmoq) - *keinen Bissen anrühren/ bekommen* (bir chimdim ham luqma olmaslik).

Tegishli antonimning tasdig'ini bildiruvchi leksemaning lingvistik inkori bu antonimik kichik tip uchun ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Dastlab faraz qilingan lingvistik inkor yordamida to'ldiruvchi leksemalar orasidagi semantik o'zaro munosabat⁹⁵ haqiqatda amalga oshishi mumkin.

Nemis olimi V.Hayneman xulosalari bo'yicha, tildagi inkorning ifodasi "aniq kommunikativ maqsadlar vositasi" sifatida ifodalanadi⁹⁶. V.N.Bondarenko komplementar antonimik munosabat psixologik va pragmatik ekanligini ta'kidlaydi. Inkor haqidagi tushuncha yetarlicha asosga ega emasligini isbotlaydi, chunki inkorning ob'ektiv voqelik tomonidan belgilanishi tan olinmaydi. Shu bilan birga, lingvistik inkorning mazmuni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan boshqa denotativ ko'rsatkichlari, masalan, kelishmovchilik, rad etish, norozilik bildirish, inkor qilish va hokazolarni ham rad etish tushunchasiga kiritish mumkinligini⁹⁷ aytadi. U. Fixning fikriga ko'ra, "Inkor faktning ayni paytdagi voqe'ligini qabul qilmasdan, uni rad qiladi."⁹⁸ "Inkor"ning ortida semantik imkoniyatlarning lingvistik antonimiyaga nisbatan cheklangan xilma-xil surati yashiringan, shu bilan "Shunday bo'lish" va "inkor" ("boshqa bo'lish") umumiy tasdiq semelari ega, ya'ni bitta tobe umumiy atama yoki semantik mos ma'nolar nuqtasi bo'ladi. Masalan: *auf Deck sein* (qayta sog'aymoq) - *nicht auf Deck sein* (o'zini yomon his qilmoq)

Sich eine Blöße geben (o'jizligini ko'rsatmoq) - *sich keine Blöße geben* (o'zini qo'lga olmoq, kuchsizligini ko'rsatmaslik)

Sich etwas gefallen lassen (biror narsaga toqat qilmoq) - *sich nichts gefallen lassen* (biror narsaga toqat qila olmaslik)

Ushbu frazeologik juftliklardan ko'rinadiki, *nicht*, *nichts*, *kein/e*, inkor so'zlari frazeologizmlarni inkor qila oladi. Ushbu komponentlarga ega frazeologik antonim juftliklar komplementar antonimik munosabatga kirishadi. Ular ushbu inkor so'zlar, qo'shimchalar orqali bir-birini to'ldiradi.

⁹³ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. - München: Otto Sagner, 1992, S. 77.

⁹⁴ Heinemann W. Negation und Negierung. Handlungstheoretische Aspekte einer linguistischen Kategorie. - Leipzig: 1983, S. 107.

⁹⁵ Bondarenko B.N. Отрицание как логико-грамматическая категория. - Москва: 1983, с. 75.

⁹⁶ Fix U. Das Verhältnis von Syntax und Semantik in Wortgruppenlexemen. - Leipzig, 1971, S. 190.

Rus tili frazeologiyasida komplementar antonimik turda ham ravish frazeologizm, sifat frazeologizm, fe'l frazeologizm kabi ko'rinishlari va mustahkam fe'lli konstruksiyalari mavjud⁹⁹ligini ko'rish mumkin, ammo komplementar ot frazeologizmga misollar keltirilmagan. Ehtimol rus tilida ular mavjud emas. Ammo mening nazarimda nemis tilida bu turda misollar mavjud, masalan, *in Ordnung* - *in Unordnung*. Bu misoldan ko'rish mumkinki, un- prefiksi qo'shilgani orqali antonimik munosabatga kirishgan ikki frazeologik juftlik tarkibidagi *Ordnung* komponenti ayni bir so'zni ifodalaydi, *un-* qo'shilishi bilan ikki leksema o'rtasida hech qanday birlashtirib turuvchi yoki itariluvchi nuqta paydo bo'lmaydi. Ikkinchi frazeologizm birinchisining ma'nosini to'ldiradi va inkor qiladi.

Konversiv antonimik munosabat.

Antonim so'zlarda ko'pincha birinchi o'ringa chiqadigan tushunchalardan biri konversiyadir. J. Lionsning ta'kidlashicha, "antonimiya" yoki "qarama-qarshi ma'no" azaldan asosiy semantik xususiyat sifatida qabul qilingan. Biroq muallif antonimiya atamasini bu tushunchalarning faqat bittasiga nisbatan qo'llaydi. Muallif konvertatsiya ta'rifini quyidagicha izohlaydi: Qarama-qarshi ma'noda izohlangan uchinchi ma'no munosabati "kaufen" va "verkaufen" so'zlari yoki "Ehemann" va "Ehefrau" so'zlarini qiyoslashda namoyon bo'ladi. Bu yondashuv konversiya deb ataladi. "kaufen" so'zi *verkaufenga*, *verkaufen* esa *kaufenga* aylantiriladi¹⁰⁰ *kaufen* va *verkaufen* fe'llarini frazeologik iboralar tarkibida ham uchratish mumkin. Ular alohida ikki frazeologizm komponentlari sifatida ham antonim munosabat hosil qiladi. Masalan, *etwas für einen Apfel und ein Ei kaufen* (suv- tekin sotib olmoq) – *etwas für einen Apfel und ein Ei verkaufen* (suv tekin sotmoq)

Konversiya bir xil denotasiyaga ega juftlarni yaratish uchun ishlatiladi. Bunda birinchi gapning predikati uning teskari korrelyatsiyasi bilan almashtiriladi. Qarama-qarshi korrelyatsiya konversiya deb ataladi. Konversivlar tilda konvergent qarama-qarshilik vazifasini bajaradi. Konversiyalar qarama-qarshilikni tashkil etuvchi ikkita so'z bo'lishi

⁹⁹ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache – München: Otto Sagner, 1992, S. 166.

¹⁰⁰ Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику/Дж Лайонз. – Москва: Прогресс, 1978, с. 485.

mumkin. Bu teskari qarama-qarshilik vazifasini ikki xil so'z bajargan holdir. Misol:

Jemand hat jemanden/ etwas in der Hand - *jemandes Händen entkommen*

Jemandem zur Hand sein - *jemandem in die Hände fallen*

Etwas bei der Hand haben - *etwas von der Hand geben*

In schlechte Hände geraten - *in guten Händen sein*

Tilshunoslikda antonimlar bilan konversiyani aniqlab, ularni antonimlardan farqlovchi tadqiqotchilar bor. Ularning, ya'ni antonim va konversiyalarning qarama-qarshi ma'noni ifodalashi yoki qarama-qarshi ma'noni ifodalashi, bir-biriga qarama-qarshi juftlik hosil qilishi aniqlashtirishga asos beradi. Biroq, bu yerda antonimiya va konversiya hodisasiga yondashish pozitsiyasi muhim rol o'ynaydi.

Konversiya va antonimlarni, umuman, konversiya antonimlari hodisasi rus va g'arb tilshunoslarining asarlarida o'z aksini topgan¹⁰¹. Boshqa tomondan, bu fe'llarni ma'no tarkibiga qarama-qarshi yoki to'ldiruvchi munosabatlarga ko'ra belgilash mumkin emas, chunki ular na gradativ va na umumiy semantik mos nuqtasi yoki o'tish nuqtasiga ega. Ular orasida konversiv antonimik munosabatlar mavjud. Ayrim fe'llarning sememasi boshqasini, ya'ni bir xil harakatni bekor qilishni anglatadi, qarama-qarshi pozitsiyalardan bir xil ifodalarni (aktantlarni) saqlab, bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Misol: *jemandes Aktien steigen* – *jemandes Aktien fallen*; *jemandem sein Herz erschließen* – *jemandem sein Herz verschließen*

Konversiv munosabatlar leksema shakllarning qarama-qarshiligidagi o'zaro bog'langan ma'nosiga asoslanadi. Ushbu turdagi munosabatlarning mustaqilligi bizga asosli ko'rinadi, chunki bir tomondan, o'zining qarama-qarshi assotsiatsiyasi orqali u *mieten-* *vermieten*, *gewinnen* - *siegen* va hokazo kabi fe'llarni o'z ichiga oladi. Levin Shaynman konversiv munosabatlar ma'no birliklariga asoslanmasligini, aksincha faqat har doim alohida sememalarga asoslanishini, chunki ko'p ma'no birligining hamma sememalarida ham tegishli antonim mavjud emasligini ilgari suradi¹⁰².

¹⁰¹ Xolilova S. R. Azərbaycan və ingilis dillərində antonimlik. – Baku: 2021, 72 b.

¹⁰² Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache – München: Otto Sagner, 1992, S. 23.

Konversiv antonimlarning frazeologiyadagi vazifaga kelsak, uning aniq chegaralanishi variantlarning frazeologik sinonimlari va bundan tashqari bir xil tuzilgan antonimlarni qarshilantirishdan iborat. Misol: *jemanden/ etwas jemandes Blicken entziehen – sich jemandes Blicken entziehen*

Vektorial antonimik munosabat.

Adabiyotlarda vektor antonimlarini tushuntirishda yo'nalish ko'pincha umumiy qabul qilinadi. Matematikaga mansub tushuncha nomida qo'llanilgan "vektor" atamasi yo'nalishning tor va keng ma'nosini qabul qilmaydi. Shubhasiz, atama bir sohadan ikkinchi sohaga o'tkazilganda uning ma'nosi o'zgarishi mumkin. Bu atamaning yangi tushunchasini ifodalashi mumkin. Matematik atamaning tilshunoslikka tarjimai biroz boshqacha shaklga ega. Lingvistik terminologiyada alohida "vektor" atamasi mavjud emas. Bu atama "vektor antonimi" terminologik birikmasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'rif ushbu ikki so'zning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Termin – so'z birikmasida terminologik yuk "antonim" atamasiga qaratilgan. Shunga qaramay, birikmadagi matematik atama tushunchaga u yoki bu ma'noda o'zining terminologik ma'nosini qo'shib beradi. Matematikada vektor yo'nalishi va qiymati bo'lgan birlikdir. Agar yo'nalish yoki narx bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmasa, vektor tushunchasi aniqlanmaydi. Chiziqli algebra atamaları bo'lgan vektorlarning har xil turlari mavjud.

Vektor – boshlang'ich va yakuniy nuqtalarni ko'rsatadigan qism. Yakuniy nuqta – o'q bilan belgilangan qismning oxiri. Vektorning ikkinchi uchi boshlang'ich nuqtasidir. Vektor antonimlari faoliyat, belgi, ijtimoiy hodisaning qarama-qarshi yo'nalishini ifodalaydi. Masalan, *kelmoq - ketmoq, ko'tarilmoq - yiqilmoq, yiqilmoq - o'chmoq, yonmoq - o'chirmoq, inqilob - aksilinqilob* va hokazo.

L.A. Novikov vektor antonimlari haqida gapirar ekan, rus tiliga quyidagi misollarni keltiradi: "*входит- выходит, начинат- переставит, склеиват- расклеиват, соединет- разединет и т.д.*"¹⁰³ Nemis tilida esa *eingehen - ausgehen, einsteigen - aussteigen, anknüpfen – ausknüpfen* kabi fe'llarni misol keltirish mumkin. Bu ikki so'zlar orasidagi yo'nalishda

chiqish va kirish nuqtasi yo'q. Qarama-qarshilik bor, lekin qarama-qarshilikning aniq yo'nalishi yo'q.

Antonimlar guruhi, vektor antonimlari uchun quyidagi farqlovchi belgilar mavjud:

- har doim qarama-qarshi sifatdagi ikkita harakatga ishora qilinadi;
- bu harakatlarda ishtirok etuvchi shaxslar bir-biriga hech qanday shartli munosabatda emas;
- harakatlar bir vaqtning o'zida bir-biridan mustaqil ravishda bajarilishi mumkin yoki ketma-ketlik bilan bajariladi¹⁰⁴.

Antonimlarning semantik-mantiqiy mohiyatini, boshqacha aytganda, qarama-qarshilik semantikasini ochib berish uchun biz quyidagi pozitsiyalardan kelib chiqishimiz mumkin:

- bir predmetga tegishli bo'lish yoki tegishli bo'lmaslik;
- harakat, sifat, holat va boshqalar;
- sifat darajasi (baholash va baholanmaslik);
- qiyoslanayotgan tomonlarning har birining ijobiy mazmuni, ularning mutlaq bir-birini to'ldirishi.

Antonimik qarama-qarshiliklarning tarkibiy va semantik imkoniyatlarini tushunish nutqda antonimlardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Nutqdan oqilona foydalanish noaniq so'zning eng ma'lumotli versiyasini tanlash bilan ham bog'liq. Bu tilning leksik boyligidan ijodiy foydalanish¹⁰⁵.

Antonim juftligining har bir a'zosining ma'nosini aniqlash, ularning lug'aviy birikma chegaralarini aniqlash uchun bu so'zlarning turli ma'noli (agar so'z ko'p ma'noli bo'lsa) munosabat xususiyatini ochib berish zarur. Ma'lumki, bir so'z bir vaqtning o'zida turli xil antonimlarga ega bo'lishi mumkin. So'z turli leksik-semantik paradigmalarining bir qismidir. Antonimlarning polisemiya bilan chambarchas bog'lanishi boshqa xususiyatlar qatorida leksik birliklarning tizimli munosabatlarini, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bunda bir juft antonim yasovchi so'zlar o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qoladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p

¹⁰³ Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – Москва: МГУ, 1973, с. 88.

¹⁰⁴ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S. 24.

¹⁰⁵ Xəlilova S. R. Azərbaycan və ingilis dillərində antonimlik. – Baku: 2021, 58 b.

ma'noli so'zlarning aksariyat ma'nolari tilda antonimlar juftligini yaratish qobiliyatiga ega.

Antonimli differensial semalar vektorning teskari harakatini ifodalaydi. *come* fe'li ish-harakatning yakuniy nuqtasidan boshlanishini, *go* fe'li esa boshlang'ich nuqtadan boshlanishini bildiradi. Ketish-kelish juftligining yarim tuzilishining bir-biriga mos keladigan parametrlari ularning semantik diapazonini tashkil qiladi. N.V.Saregorodseva semantik diapazonni har ikkala so'z uchun umumiy bo'lgan parametrlar sifatida belgilaydi, ular antonimlarning leksik ma'nosining juft sema tuzilishini tashkil qiladi¹⁰⁶. Semantik diapazonning hajmi bir-biriga mos keladigan parametrlar soni bilan belgilanadi. Antonimlik juftlik tarkibiga kiruvchi so'zlardan birining sema tuzilishiga tegishli parametr juftlikning boshqa so'zining sema tarkibida qayd etilmasa, semantik diapazon hajmi kamayadi.

Misol: *seinen Dienst antreten- aus dem Dienst scheiden*

Jemandem den Dienst kündigen- jemanden in Dienst nehmen

II.3. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning strukturasi tahlili

Antonimiya hodisasining lug'at va frazeologiyadagi o'xshashligi va farqi bu birliklarning qarama-qarshi qo'yish nutqiy tafakkur asoslarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. So'zlar va iboralar o'xshash bo'lsa-da, lekin baribir farq qiladigan ruhiy tuzilmalar, belgilangan tushunchalar va ifodalarga ega so'zlar bilan bog'liq. Aytish mumkinki, frazeologizmlar bilvosita nominativlik bilan ajralib turadi va bu ularning antonim aloqalarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi¹⁰⁷. Frazemalarning antonimini belgilash frazeologik antonimlarning to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshi qo'yilishi kam uchraydigan hodisa ekanligi bilan yanada murakkablashadi. Shu bilan birga, antonimiya ibora bilan paradigmatic munosabatlarning ko'rinishlaridan biridir.

Frazeologik antonimiyaning mohiyatini ochib berish uchun uning tildan tashqari va tegishli lingvistik omillarini birlashtirish zarur. Biz

¹⁰⁶ Саргоровцева Н.В. Антонимическая корреляция в идеографическом аспекте (на материале английских паремий). Автореф. дисс. ... кандидата фил. наук. – Екатеринбург: 2013, с. 14.

¹⁰⁷ Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремнология. Учеб. Пособие. – Москва: Флинта, 2009, с. 76.

ko'proq antonimiya qarama-qarshilik (qarshilik) va assotsiatsiyaning mantiqiy-konseptual munosabatlariga asoslanadi, deb hisoblaydigan tadqiqotchilarning fikriga qo'shilamiz. Mantiqiy-konseptual darajada: bosqichma-bosqich antonimlar, qo'shimcha (fanda ular ziddiyatli deb ataladi) va vektor antonimlari mavjud. Faqat birinchi turdagi frazeologik antonimlar umumiy tan olinadi¹⁰⁸. Bunday holda, frazeologik antonimlar faqat sifat yoki bosqichma-bosqich belgiga ega bo'lishi kerak, deb hisoblanadi. "Sifat", "bosqichma-bosqich" bandi antonimlar sinfini toraytiradi. Shuning uchun, qarama-qarshilik bilan bir qatorda, to'ldiruvchilik antonimiya mezon sifatida qaraladi. Olimlar ham vektor yoki ko'p yo'nalishli qarama-qarshiliklardan foydalanadilar. Bu hodisada mutlaq va nisbiy, antonimik inkorni ko'rib chiqish, qarama-qarshilik va ziddiyat tushunchalarini chegaralash mumkin.

Aristotel o'zining mashhur "*Kategoriyalar*" asarida bu haqda shunday yozgan: "Yaxshilikka nisbatan qarama-qarshilik, albatta, yomonlikdir." "Buni alohida holatlar asosida induksiya ko'rsatadi, masalan, sog'liq kasallikka qarama-qarshidir, boshqa hollarda esa jasorat. Barcha qarama-qarshiliklar bir xil jinsga tegishli bo'lishi yoki qarama-qarshi jinsga tegishli bo'lishi kerak. Oq va qora bir mantiqiy o'zakka tegishli, adolat va adolatsizlik qarama-qarshi turlarga tegishli (birinchi navbatda, bir tur fazilat, ikkinchidan, ular u yoki bu turga tegishli, lekin ularning o'zlari boshqasi uchun turni tashkil qiladilar."

Frazeologik antonimlarning o'ziga xosligi frazeologik antonimlarning leksikografik tavsifida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Ular turli juftlarning antonimiya darajasining bir xil emasligidan kelib chiqadi. Boshqa qiyinchiliklar frazeologik antonimlarning bir kontekstda qarama-qarshi qo'yilishi juda kam uchraydigan hodisa ekanligi bilan bog'liq. Bu rus tilining frazeologik antonimlari lug'atining yo'qligidan darak berishi mumkin¹⁰⁹.

Ma'lumki, til tizimi mustaqil va barqaror emas. Bu tizimning elementlari nutqiy tilda amalga oshiriladi. "Inson omili" deb ataladigan tushuncha tilning lug'aviy tarkibi o'zgarishiga uzluksiz sabab bo'ladi,

¹⁰⁸ Огуй О.Д. Лексикология німецької мови. – Вінниця: Нова книга, 2003, с. 57

¹⁰⁹ Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремнология. Учеб. Пособие. – Москва: Флинта, 2009, с. 77.

chunki yangi paydo bo'lgan terminlarni ko'rsatish zarur. Tilda doimiy ravishda yangi frazeologizmlar paydo bo'lib, tahlil qilinadi. Frazeologiya fani haqli ravishda zamonaviy tilshunoslikning markaziy tarmog'i hisoblanadi, chunki uning predmeti kundalik tilimizga kiradi. "Frazeologiya" atamasi: tilshunoslikning bir bo'limi, tilshunoslik fanining sohasi degan ma'noni anglatadi. Turg'un so'z majmualari bilan shug'ullanuvchi jamiyat, ya'ni so'z birikmalarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Ruxsat etilgan so'z majmualari deganda takrorlanadigan so'z turkumlari va maxsus semantikaga ega bo'lgan turg'un jumalar tushuniladi¹¹⁰. Ushbu semantikaning tashuvchisi sifatida bu komplekslar leksik-semantik tizimning bir qismidir. Turg'un so'z majmualarini ikkilamchi lingvistik belgilar sifatida tavsiflash mumkin. Ehtimol foydalanuvchilar murakkab belgilarni ishlatishi mumkin.

Frazeologizmlarning yasalishi orqali yangi leksik birliklar vujudga kelganligi sababli, birlamchi lisoniy belgilar yoki leksemalarning asosini til, uning lug'at tarkibi tashkil etadi. Shuning uchun ular u bilan boyitilgan deb ataladi. Turg'un so'z majmualari (frazeologizmlar) so'z birikmalari deb ham ataladi. So'z birikmalarining ma'nosini faqat semantik birlik sifatida ko'rib chiqilsagina tushunish mumkin. Ular sobit raqamlar bo'lib, ularning ma'nosini mexanik ravishda alohida leksik tarkibiy qismlarga ajratib bo'lmaydi, ya'ni ularni parchalab bo'lmaydi. Nutq jarayonida ular faqat takrorlanadi va qayta yaratilmaydi. Erkin so'z birikmalari predmetlarni, harakatlarni alohida bo'laklarga bo'lib ko'rsatadi (*reine Luft, kalte Luft, einen Hasen schießen, j-m den Kopf waschen*). Ular demontaj qilinishi mumkin va o'zgaruvchan.

Turg'un so'z birikmalari (frazeologizmlar) ko'pincha faqat bir predmet yoki harakatni bildiradi, ya'ni ularni alohida bo'laklarga bo'lib ko'rsatmaydi. Turg'un so'z birikmalari shu tariqa alohida so'zlarni biriktiradi, buning natijasida ularning mazmuni atamalariga mos keladi, lekin shakli erkin so'z birikmalariga mos keladi. Shuning uchun frazeologizmlar turg'un so'z turkumlari yoki sintagmalardir. Butun turuvchi so'z birikmasining umumiy ma'nosi uning tarkibiy qismi ma'nolarining yig'indisiga to'g'ri kelmaydi, xuddi erkin sintaktik

bog'lanishlarda bo'lgani kabi (ein lustiges Kind, ins Theater gehen). Turg'un so'z birikmalari yoki turg'un so'z majmualari texnik atamasi tilda mavjud bo'lgan va alohida so'zlarning vazifasida so'zlashuv jarayonida yuzaga keladigan turg'un, bo'linmas so'z turkumlarini bildiradi. Turg'un so'z birikmalari qayta talqin qilinishi mumkin ("haqiqiy" frazeologizmlar) va qayta izohlanmaydi (asosan, ular ko'p so'zli belgilar: die Vereinigten Staaten von Amerika, die Bundesrepublik Deutschland, das Schwarze Meer). Ikkinchi holatda butunning ma'nosi komponentlari ma'nolar yig'indisiga to'g'ri keladi va ular bilan solishtirganda o'zgarishsiz qoladi. Nemis tilidagi aksariyat turg'un so'z birikmalariga quyidagi xususiyatlar xosdir: Qayta talqin qilish, yaxlit umumiy ma'no, barqarorlik, xalq tarixi bilan bog'liqlik. Keltirilgan so'z majmualarining aksariyati metaforik qayta talqin bilan ifodalanadi: *es ist mir Worst* – "es ist mir einerlei, egal". Metaforik qayta talqin metaforik uzatish natijasida yuzaga keladi¹¹¹. So'z birikmalarining rivojlanishi natijasida (maqollar, ayrim qanotli so'zlardan tashqari) ma'nosiga ko'ra leksemalashuvga moyillik yuzaga kelgan, lekin tuzilishiga ko'ra ular so'z birikmalari bo'lib qolaveradi. Turg'un so'z birikmalari juda mustahkam, turg'un, tilda uzoq, asrlar davomida yashaydi.

Turg'un so'z birikmalarini tarjima qilishning to'rt turi mavjud:

1. Aynan mos kelish. Masalan: O, Tempora! O, Tores!, O, Zeiten! O, Sitten! Bu tur deyarli faqat qanotli so'zlarga xosdir;
2. Mos ekvivalent. Masalan: *aus dem Finger saugen, in die Augen fallen* – ko'zga tashlanmoq;
3. Noto'g'ri ekvivalent. Masalan: *Eulen nach Athen tragen* – bekorch yoki behuda ish qilmoq;
4. Tavsiflovchi. Masalan: *Swein haben* – omadi kelmoq, *etwas um ein Butterbrot kaufen* – arzimagan pulga sotib olmoq¹¹².

1. Bir xil strukturali frazeologizmlarning antonimik munosabatlari

Bir xil yoki har xil tuzilgan antonimik frazeologizmlar o'rtasida semantik farqlanishga yo'l qo'yilmasligi kerak, chunki frazeologizm bir xil tuzilgan va har xil tuzilgan frazeologizmlar bilan antonimik

¹¹⁰ Степанова М. Д., Чернышева И. И. Лексикология современного немецкого языка - М.: Академия, 2003, с. 176.

¹¹¹ Орыў О.Д. Лексикологія німецької мови. – Вінниця: Нова книга, 2003, с. 36.

¹¹² Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фразеология и паремиялогия. Учеб. Пособие. – Москва: Филлинта, Наука, 2009, с. 77.

munosabatlarga kirishishi mumkin¹¹³, buni quyidagi misol isbotlaydi: *ein gutes Herz haben – ein hartes Herz haben, ein gutes Herz haben* (ko'ngli ochiq bo'lmoq) – *jmdn über die Achsel sehen (nazar- pisand qilmaslik)*.

Mavjud namunaviy materialni baholash natijasida frazeologizmlar o'rtasida antonimik munosabatlarning mavjudligi ularning idiomatiklik darajasiga bog'liq emasligini, ya'ni qisman va to'liq frazeologizmga aylangan birliklarni antonim sifatida qarshi qo'yish mumkin, deb taxmin qilish mumkin. Frazeologizmlarning idiomlik darajasi bo'yicha tavsifi izchillik bilan berilmaydi, faqat o'rnatilgan, antonimik munosabatlarni tavsiflash uchun zarur bo'lib tuyulsagina qarama-qarshi ma'nolarni tegishli kontekstda ifodalashda qo'llanishi mumkin. Ammo bu borada T.Kochetova "aralash tip" to'liq antonimlarining mavjudligiga shubha qiladi¹¹⁴. Antonimik frazeologizmlar haqida gap ketganda, yuqorida aytib o'tilgan tarkibiy va semantik prinsipdan tashqari, boshqa morfologik-sintaktik prinsip, ya'ni frazeologizmlarni nutq qismlari yoki nutq sinflari vazifasiga ko'ra tasniflash qo'llaniladi. Frazeologizmlarning ma'lum morfologik – grammatik kategoriyalarni ifodalashi yoki gap vazifasini bajarishi kabi so'zga mos bo'lgan xossalari asosida oqlanadigan bu tasnif muammosiz emas. V.Flaysler buni nemis tilining frazeologik tizimi uchun juda to'g'ri ko'rsatib beradi¹¹⁵.

Bir xil strukturali frazeologik antonimlar yoki adabiyotda tilga olinganidek, strukturaviy frazeologik antonimlar tizimning paradigmatic munosabatlari doirasidagi individual hodisa emas, balki quyidagi strukturaviy variantlar va sinonimlar¹¹⁶ bilan aniqlanishi mumkin. Frazeologik tarkibiy qismlarning o'zgaruvchanligini umumlashtirish va tavsiflash zarur.

Tegishli sifatlarining ma'nosi allaqachon bir xil tuzilgan antonimik frazeologizmlar bir xil sintaktik tuzilish xususiyatini tarkibiy variantlar yoki sinonimlar bilan birlashtirganligini ko'rsatadi. Biroq, leksik zaxirasi qisman mos keladigan antonim va sinonimlardan farqli ravishda,

¹¹³ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S. 53.

¹¹⁴ Cocetova T. Antonymische Verhältnisse in der verbalen Phraseologie der deutschen Sprache der Gegenwart. A. - Halle/S., 1974, S. 146.

¹¹⁵ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig: 1982, S. 149.

¹¹⁶ Mlacek J. Zur Frage des Verständnisses der Grenzen der Phraseologie. Phraseologie und ihre Aufgaben. – Heidelberg: 1983, S. 133.

strukturaviy variantlarniki butunlay bir xil bo'lib, faqat "frazeologizmning ichki tuzilishini o'zgartirmaydigan"¹¹⁷ variatsiyalarni ko'rsatadi.

D.O.Dobrovolskiy frazeologik antonimlarni ifoda funksiyasiga ko'ra quyidagi farqlarni topgan:

- frazeologik variantlarda to'liq semantik moslik;

-struktur sinonimlarda ma'lum stilistik-konnotativ semalargacha deyarli to'liq moslik;

- bir xil strukturali antonimlarda qisman semantik moslik;¹¹⁸

Qarama-qarshi bo'lgan ko'pchilik semalar bir-biriga mos keladi va shuning uchun bir frazeologizmning umumiy ma'nosi ikkinchisining qarama-qarshi bo'ladi.

Bir xil strukturali frazeologik antonimlar ma'no strukturasi qarama-qarshi sema ko'p hollarda frazeologik komponent tarkibidagi almashuvlar bilan bog'liq. Bular nutqning juda xilma-xil bo'laklari bo'lishi mumkin:

1) sifatli tarkibiy qismlar;

2) predlogli tarkibiy qismlar;

3) fe'lli tarkibiy qismlar;

4) predlogli boshqaruvga ega tarkibiy qismlar;

5) olmoshli tarkibiy qismlar;

6) otli tarkibiy qismlar;

Frazeologik ma'noni qarama-qarshi sifatga o'zgartirishning yana bir imkoniyati – inkor qismlarini ajratish yoki *nicht, kein* inkor so'zlarini qo'shishdir. Xuddi shu sintaktik tuzilma yoki leksik inventardagi qisman kelishik natijasida kelib chiqadigan korrelyatsion semantik aloqalar ortida bir xil frazeologik sur'at, ya'ni bir xil assotsiatsiya va g'oyalar yashiringan. Bu frazeologizmlar ma'lum bir qayta izohlash yoki frazeologizatsiya jarayonidan o'tgandan keyin paydo bo'lgan¹¹⁹. L.A.Gryaznova, D.Dobrovolskiy va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida bunga ishora

¹¹⁷ Dobrovolskiy D.O. Phraseologie als Objekt der Universallinguistik. Ling. St. – Leipzig: 1988, S. 161.

¹¹⁸ Dobrovolskiy D.O. Phraseologie als Objekt der Universallinguistik. Ling. St. – Leipzig: 1988, S. 163.

¹¹⁹ Грязнова Л.А. Об определении антонимов глагольных фразеологических единиц и их классификации. – Вопросы общего романо-германского языкознания. Уч. зап., вып. XXI, пр. 9 (13). – Уфа: 1964, с. 224.

qiladilar, ular ushbu o'ziga xoslik o'zgaras xususiyat sifatida ishlatilishini tavsiflaydilar.

Bir xil strukturali frazeologik antonimlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Bu frazeologizmlar sintaktik jihatdan bir xil tuzilgan, qisman mos keladigan leksik inventarga ega bo'lgan birliklar bo'lib, ular bir xil frazeologik ko'rinishga asoslanadi. Ularning ma'lum miqdordagi bir xil semalarga ega ma'no tuzilishida qarama-qarshilik xarakteriga ega bo'lgan va shu tariqa umumiy ma'nolarning antonimiyasiga olib keladigan sema bundan mustasno. Ikkinchisining sababi ma'lum tarkibiy qismlarning almashinishi yoki *nicht, kein/e* inkor so'zlarini va un- old qo'shimchasini qo'shish yoki olib tashlashda bo'lishi mumkin. Semantik yoki tuzilish darajasidagi bu xususiyatlar bir xil strukturali frazeologik antonimlarning nutqning bir qismiga tegishli bo'lishi mumkinligini, bir xil sintaktik vazifani bajarishga qodirligini va gapda bir xil leksik muhit bilan bog'lanishini anglatadi.

2. Har xil strukturali frazeologizmlarning antonimik munosabatlari

Odatda frazeologizmlar o'rtasidagi antonimlik ularning umumiy semantik ma'nosi, yoki ular tarkibidagi komponentlarning alohida ma'nolari orqali shakllanadi. Shu sababli ular bir xil strukturali va har xil strukturali antonimlarga bo'linadi.

Frazeologizmlar o'rtasidagi antonimik munosabatlar mavjudligining zaruriy sharti sifatida strukturaviy va vizual o'ziga xoslik mezonlari bir necha bor tanqid qilingan va qayta ko'rib chiqilgan. L.P.Zimina frazeologik birliklarni qarama-qarshi qo'yishda asosiy omil strukturani emas, ma'nolarni qiyoslashdir, degan fikr bildirgan¹²⁰. Barcha bir xil strukturali, tarkibida leksik antonimi yoki inkor so'zi bo'lgan har bir frazeologik juftlik ham antonim bo'la olmaydi. Masalan, *für etwas zu haben sein* (rozilik bermoq, kelishmoq) - *für etwas nicht zu haben sein* (biror narsaga qatnashmaslik) misolini olish mumkin. *Nicht* inkor so'zini olib tashlasa bir xil strukturaga ega bo'ladi. Bir qarashda *nicht* turgani uchun antonim frazeologizmdek ko'rinadi, biroq ularning semantik ma'nolari boshqa boshqa tushunchalarni ifodalaydi.

Ko'rib chiqilayotgan birliklarning semantikasi hamisha dominant omil bo'ladi. Formal yoki strukturaviy jihatlar frazeologik antonimlarni aniq maqsadda tasniflashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yon ta'sirlardir. Frazeologik tasvirlarning mos kelishi muhim emas, chunki bitta va bir xil ma'no turli xil tasvirlar bilan bog'lanishi mumkin, ya'ni, boshqacha aytganda, frazeologiya jarayoni tugagandan keyingina semantik natija hisobga olinadi¹²¹. Shunga ko'ra turli strukturali frazeologizmlarni ham ularning semantik ma'nolaridan kelib chiqqan holda bir-biriga antonim sifatida keltirish mumkin. Masalan:

Bohnen in den Ohren haben/ (mit Absicht nicht hören)¹²², *auf den (bei den) Ohren sitzen* (ataydan eshitmaslik) frazeologizmlariga *die Ohren spitzen, lange/ spitze Ohren machen* (qulog'ini ding qilmoq), *die Ohren auf Empfang stellen* (qulog'i ...da bo'lmoq), *die Ohren aufmachen/aufsperrten/auf tun* (qulog'i ochiq bo'lmoq), *ganz Ohr sein* (butun vujudi quloq bo'lmoq), *Ohren haben wie ein Luchs* (qulog'i silovsinnikidek bo'lmoq) kabi frazeologizmlar antonim bo'la oladi.

Nemis tili frazeologizmlari orasida har xil strukturali frazeologik antonimlar ham talaygina. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Misol: *Bei Mutter Grün übernachten* (ochiq tom ostida uxlar, uysiz) – *in seinen/ eigenen vier Wänden (schlafen)* (o'z uyida uxlar, o'z uyiga ega bo'lmoq); *Den Anfang machen* (biror narsani boshlar) – *zu Ende bringen/ sein* (tugamoq, oxiriga etmoq).

Turli xil tuzilishga ega antonimik frazeologizmlar umumiy so'z komponentiga ega bo'lgan yoki butunlay boshqa komponentlar yig'indisiga ega bo'lgan, turli frazeologik obrazlar asosida tuzilgan birliklardir. Ular o'zlarining ma'no tarkibida ma'lum miqdordagi mos keladigan semalarni ko'rsatadi, bundan mustasno, qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan frazeologizmlar umumiy ma'nolarning antonimiyasiga olib keladi. Ma'nolarning bu qarama-qarshiligi tegishli frazeologizmlar tomonidan bir-biridan mustaqil ravishda kechadigan frazeologizmnining semantik natijasidir.

¹²⁰ Зими́на Л.П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. – Кемерово: Творчество, 1977, с. 14.

¹²¹ Грязнова Л.А. Об определении антонимов глагольных фразеологических единиц и их классификации. – Вопросы общего романо-германского языкознания. Уч. зап., вып. XXI, нр. 9 (13), - Уфа: 1964, с. 245.

¹²² https://de.wiktionary.org/wiki/Bohnen_in_den_Ohren_haben

Ot komponentli frazeologizmlar.

Otlarning umumiy kategorik ma'nosining leksik-grammatik ma'nosiga muvofiq otli frazeologizmlar obyektivlikni belgilaydi. Frazeologik ma'no tarkibi asosida otli frazeologizmlar ham kamdan-kam hollarda faqat ma'noning konseptual komponentlarini takrorlash vazifasini bajaradi, buni quyidagi tadqiqot natijalari ko'rsatadi.

Im Vordergrund stehen – im Hintergrund stehen

Ushbu frazeologik antonimlar tarkibidagi frazeologizmlarning *Vordergrund* va *Hintergrund* komponentlari ot so'z turkumiga mansub. Ular frazeologizmlarning ma'nosini anglashdagi asosiy komponent hisoblangani sababli, bu turdagi frazeologizmlar otli frazeologizmlar deyiladi. *Vordergrund* va *Hintergrund* so'zlari bir semantik asosga tegishli. Ularning tag zamidagi *Grund* bitta asos hamda shu asosning old va orqa tarafini ifodalovchi *Vor+der* va *Hinter* yasovchi qo'shimchalar namoyon bo'ladi. Ammo frazeologizm tarkibida ular aynan joyni emas, balki biror narsaning bajarilishi kechiktirib bo'lmazligini yoki keyingi o'rinlarda ham bajarish mumkinligini ifodalaydi. Aslida misoldagi *vor* va *hinter* old qo'shimchalari bir-biriga zid tushunchalar va shularning ta'sirida frazeologizmlar ham qarshilantiriladi.

In Ordnung bringen – in Unordnung bringen

E.Agrikolaning "Wörter und Gegenwörter" kitobida *Ordnung* so'ziga *Unordnung*, *Missordnung*, *Chaos* kabi so'zlar antonim sifatida berilgan. *Un-* prefiksining antonim yasashi ham sir emas. Ammo bu misol kontrar frazeologik antonimlar tarkibiga kirmaydi. Chunki bu yerda mantiqiy asos *Ordnung* – tartib so'zining o'zi. Bu misolda ikki otni birlashtirib turuvchi semantik asos yo'q.

Sifat komponentli frazeologizmlar.

Sifatli frazeologizmlarga leksik sifatlar kabi umumiy ma'nosi predmetning noprosessual belgisini belgilashni aks ettiruvchi birliklar kiradi. Ushbu frazeologizmlarni qo'shimcha yoki fe'ldan ajratishda imkon qadar matndagi frazeologizmlarning ishlashiga, ya'ni ularning sintaktik vazifalariga tayanish kerak. Sifatdosh frazeologizmning bir mezonini otni batafsilroq tavsiflash uchun atribut vazifasini bajarish qobiliyatidir¹²³.

Jemandes guter Geist (birovga yaxshilik ulashuvchi, foyda keltiruvchi, baxt beruvchi inson) – *jemandes böser Geist* (birovga yaxshilik ulashmaydigan, zarar yetkazuvchi, nafratga to'la odam)

Bu antonimik frazeologizmlarda qarama-qarshi munosabat *guter* va *böser* ikki sifatining semantik qarshilanishi bilan bog'liq bo'lib, ular ham erkin so'z ma'nosida kontrar antonimlar hosil qiladi. Bu sifatlar atama talqini tarkibidagi tagiga chizilgan sifatlar yoki otlarni bildiradi; Ikkinchisi boshqalar qatorida *foyda* va *zarar* bilan ifodalanadi, ular ham bir-biriga qarama-qarshi munosabatda bo'ladi. Ushbu holatda *guter*, *böser* sifatleri va baxt va nafrat/g'araz otlari hech qanday to'g'ridan to'g'ri antonimlarni hosil qilmaydi, bu holda frazeologizmlarning umumiy ma'nolarining qarama-qarshiligiga zid kelmaydi.

Frazeologizmlar tarkibidagi ayrim sinonim semalarning almashinishi tufayli antonim semalarni aniqlash mumkin, shunda ma'nolar alohida sememalar orasidagi antonimiya ehtimoli ortadi. Frazeologizmlarni tahlil qilish bilan bog'liq muammo antonimik munosabatlarning qarama-qarshi yoki to'ldiruvchi xarakterga ega ekanligini aniqlashdan iborat. Yana bir misolni tahlil qilinadigan bo'lsa, *jemand hat ein warmes Herz- jemand hat ein kaltes Herz* o'zgaruvchan tarkibiy qismlarni tashkil etuvchi *kaltes* yoki *warmes* kontrar sifatleri bilan berilgan. *Kalt* va *warm* sifatleri zamidagi bir semantik asos yotadi. Bu ikkala so'z ham harorat anglatuvchi leksika hisoblanadi. Demak, ularning kontrar antonimik munosabatga kirishishi zamidagi bir chiqish nuqtasidan ikki qarama-qarshi tomonga yo'nalgan qutblarni tasavvur qilish mumkin.

Kalt sifati *warm* sifati bilan to'liq semantik tenglikni anglatishi mumkin. *kalt* va *warm* so'zlari nemis tili yozilgan X.Agrikola, E.Agrikolalarning "Wörter und Gegenwörter"¹²⁴ hamda o'zbek tilidagi R. Shukurovning "O'zbek tilida antonimlar"¹²⁵ kitoblari simmetrik antonim sifatida tasvirlangan. Simmetrik antonimlar to'ldiruvchi, yoki nosimmetrik antonimlarga qaraganda o'z semantik o'qidan bir xil uzoqlikdagi masofada yotadi va bir biriga to'liq antonimik munosabat bildiradi.

¹²³ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S. 62.

¹²⁴ Agricola Chr., Agricola E. Wörter und Gegenwörter. Antonyme der deutschen Sprache. 5. Auflage. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1984, S. 148.

¹²⁵ Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. – Toshkent: Fan, 1977, 102 b.

Etwas mit der rechten Hand erledigen – etwas mit der linken Hand erledigen = etwas mit der linken Hand machen = etwas mit dem kleinen Finger machen.

Keltirilgan misollarda *rechten* va *linken* soʻzlari ham oldingi misolda tahlil qilingan kalt va warmga oʻxshash holatda, *rechts* va *links* ravishlari ayni misollarda *rechten* va *linken* sifatlari bir nuqtada kesishgan semantik maʼnoga – qutb tomonlari yoʻnalishi – ega. *Etwas mit der rechten Hand erledigen* frazeologizmi bir ishni sidqidildan mehr bilan bajarishni ifodalasa, *Etwas mit der linken Hand erledigen*, *Etwas mit der rechten Hand machen* hafsalasiz bajarilgan ishga ishora qiladi. *Rechte Hand* va *linke Hand* misolidagi *Hand* oti aynan bir tushunchani ifodalaydi. Chunki inson hayotda haqiqatdan ham oʻng qoʻlda maromiga yetkazib ishlaydi (oʻnqaqaylar), chap qoʻlda yozishga urinib koʻrilsa (chapaqaylardan tashqari) natija kutilgandek chiqmaydi. Qingʻir-qiyshiq, chiziqdan adashgan yozuv paydo boʻladi. *Etwas mit dem kleinen Finger machen* variantining *etwas mit der rechten Hand erledigen* varianti sifatida olinganligi biroz boʻrttirilganlikni koʻrsatadi. Chunki hayotda bir kichik barmoq bilan ish qilib boʻlmaydi.

Bu fakt va natijada bir frazeologizmning sinonimi yoki varianti bilan antonimik maʼnosining mos kelmasligi antonimik munosabatlarda yoki boʻrttirilganlikni yoki pasaytirilganlikni koʻrsatadi. Bir xil turdagi ot frazeologizmlarning qarama-qarshi qoʻyilganligi diqqatni tortadi. Yuqorida aytib oʻtilgan sifat/ravish oʻzgaruvchanligi boʻlib, natijada frazeologik maʼnolar doirasidagi maʼno qarama-qarshi xususiyatlarni ifodalaydi. Doimiy ot bu xususiyatlar orqali batafsilroq tavsiflangan tegishli vazifa bajaruvchisini bildiradi.

Ravish komponentli frazeologizmlar.

Ravishli frazeologizmlar aniq jarayonlarni batafsilroq tavsiflovchi lisoniy birliklardir. Bu tavsif sifat, miqdoriy, vaqtinchalik va mahalliy boʻlishi mumkin¹²⁶. Mavzu boʻyicha izlanishlar natijasida turli tillar frazeologiyasida ham ravishli frazeologik antonimlar mavjudligi aniqlandi.

Masalan, R.Shukurov rus tilidagi frazeologizmlar orasida ravishli frazeologik antonimlarni keltirib oʻtgan: *язык хорошо подвешан*¹²⁷.

Groß von jemandem denken – klein von jemandem denken misollaridagi *klein* va *groß* leksemalari birov haqida oʻylash darajasini aniqroq ifodalaydi. *groß von jemandem denken* birovni hurmat qilmoq, *klein von jemandem denken* birovni hurmat qilmaslik maʼnolarini anglatadi. *klein* va *groß* komponentlari leksik lugʻatlarda ham antonim sifatida keltiriladi. Ularni birlashtirib turuvchi bir semantik asos oʻlcham, hajm boʻlib, ikkala soʻz ham semantik yadrodan qarama-qarshi tomonga yoʻnaladi. Ushbu xususiyati bilan ular frazeologizmlar tarkibida ham kontrar antonimlik munosabatini kafolatlaydi.

Es leicht mit jemandem haben – es schwer mit jemandem haben antonimik juftliklarida ham faqatgina *leicht* va *schwer* komponentlari kontrar antonimik juftlik yasashiga sabab boʻlishgan. Ravish + feʼl strukturali frazeologik antonim juftliklar sifatida nemis tili frazeologiyasidan joy olgan.

Es schwer mit jemandem haben frazeologizmining semantik maʼnosi birov bilan yaxshi munosabatda boʻlmaslikni bildiradi. Ehtimol uning qilgan ishlari birovga yoqmaganidan yoki xarakteri ogʻirligidan kimdir birov bilan kelisʼha olmaydi. *Es leicht mit jemandem haben* esa kim bilandir tez til topishish mumkinligini bildiradi. Keltirilgan ushbu frazeologik antonim juftliklar bir-biriga simmetrik, yaʼni ular bir xil frazeologik komponentlardan tashkil topgani uchun simmetrik antonim hisoblanadi. Har qanday tildagi frazeologizmlarning simmetrik antonim munosabatga kirishishida faqat frazeologik birlik tarkibidagi bir komponentning qarama - qarshi qoʻyilishidan hosil qilinadi.

Feʼl komponentli frazeologizmlar.

Feʼl frazeologizmlar faoliyat, jarayon yoki holatni ifodalaydi. Frazeologik birikma tarkibida umumiy maʼnoning tashuvchisi asosiy elementni tashkil etuvchi feʼl hisoblanadi. Feʼl orqali frazeologizmlarning maʼnosi anglashiladi¹²⁸. Feʼllar asosiy frazeologik komponent sifatida ikki frazeologizm oʻrtasida bir- biriga antonimik munosabat shakllantiradi.

¹²⁶ Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S. 67.

¹²⁷ Raxmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. – Toshkent: Universitet, 1999, 29 b.

¹²⁸ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig: 1982, S.143.

Misol, *den Blick heben* (nigohini ko'tarmoq, nazar tashlamoq) – *den Blick senken* (nigohini erga qadamoq).

Ushbu xususiyat asosida qanday qilib fe'llar kontrar antonimik mavjudligini ta'minlashi mumkin, degan savol tug'iladi. Fe'llarning ko'pchiligi ma'lum bir jarayonni ifodalagani uchun ularda qutb tushunchasini aniqlash qiyinga o'xshaydi. Ushbu muammoni hal qilishda, ayniqsa, frazeologizmlarning o'ziga xos ma'nosiga hamda fe'l frazeologizmlarga I.I.Chernishevaning e'tiroficha, "nafaqat har bir tegishli jarayonlar va holatlarning ifodalanishi" balki "odatda ularni xarakterlovchi to'ldiruvchi"ga va aniqlovchiga, izohlovchiga alohida e'tibor qaratish lozim va shunda ularning kontrar antonim shartlariga javob bera olishini ko'rish mumkin¹²⁹. Misol, *den alten Adam ausziehen* (eski qiyofasini o'zgartirmoq) – *einen neuen Adam anziehen* (yangi tus/qiyofaga kirmoq). *ausziehen* va *anziehenden* tashqari *den alten* va *einen neuen* aniqlovchilari ham antonim munosabatda. Bunday holatda ko'p komponentli antonim munosabat haqida gapirish mumkin.

Bir xil strukturali fe'l frazeologizmlar antonimik munosabatda kelishi ko'plab ilmiy ishda keltirilgan va turli mezonlarga ko'ra tasvirlangan¹³⁰. Afsuski, kontrar antonimik munosabatlarni maxsus ko'rsatishga harakat qilingan hech qanday asar ma'lum emas. Biroq, keltirilgan misollar bilan antonimik juftliklar orasidagi kontrar munosabatlarni yoritishga urinib ko'riladi. Misol:

Jemandem die Zunge binden – *jemandem die Zunge lösen*

Ushbu frazeologik juftlikda qo'llangan *die Zunge* oti anglatadigan ma'no bu inson tili, ya'ni organizm. Tilni hech qachon arqonga o'xshatib bog'lab qo'yib bo'lmaydi. Bog'langan tilni tasavvur qilish qiyin. Lekin ushbu frazeologizm uchun aynan *binden* (bog'lamoq) fe'li olinganini ushbu so'zning lug'atlarda keltirilgan ma'nolari orqali izohlash mumkin. "Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache" lug'atida *binden* fe'lining 9 - ma'nosi *etwas bindet, etwas wird fest* deb tariflangan va "*dieser Zement bindet schnell*" misoli keltirilgan. Endi qotgan tilni tasavvur qilish mumkin va u qimirlamaydi. Qimirlay olmagan til bir so'z

ham deya olmaydi. Shunga nisbatan *jmdm die Zunge binden* - kimningdir tilini tiyib qo'ymoq gapira olmasligi uchun degan umumiy semantik ma'noga ega bo'ladi. Endi antonim sifatida olingan *lösen* fe'liga to'xtalsak, u leksik antonimlar lug'atlarida *bindenga* antonim juft sifatida berilgan. *Lösen* ning 2- lug'aviy ma'nosida *etwas lösen* - *etwas, was fest ist, locker machen* degan izohni ko'rish mumkin. Ko'rinadiki, qotgan narsani, ayni damda qotirilgan tilni, yumshatish ma'nosini anglatadi. Frazeologik juftlikdan anglashiladigan yaxlit semantik ma'no bu psixologik bosimdir. Psixologik hujum natijasida kimningdir tili tiyib qo'yiladi yoki gapirishga undaladi. Shu tufayli *binden* va *lösen* fe'llari kontrar antonimlikni namoyon qiladi.

Bir xil strukturali frazeologik antonimlar.

Ushbu bobda nemis tilidagi frazeologik antonimlar tadqiqi bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida to'plangan misollar tahlil qilinadi. Ikki frazeologik birlik o'rtasidagi antonimik munosabatni hosil qilayotgan leksik morfologik va semantik birliklar o'rganib chiqiladi. To'plangan misollar struktural-semantik guruhlariga ajratiladi. Misollar L.E.Binovichning nemischa - ruscha frazeologik lug'atidan va H. Shemannning "Deutsche Idiomatik. Die deutsche Redewendungen im Kontext" lug'atlaridan olindi.

L.E.Binovichning nemischa - ruscha frazeologik lug'atida 14000 frazeologik birlik – iboralar, maqollar, matallar mavjud va nemis tili frazeologik birliklarining eng to'liq to'plami hisoblanadi. Frazeologizmlar XIX-XX asrlarning eng buyuk adiblari asarlaridan parchalar bilan keng tasvirlangan.

H. Shemannning "Deutsche Idiomatik" lug'ati 33 000 nutqning eng boy xazinasini jamlagan. Har bir alohida holatda o'quvchiga idiomatik ibora qay darajada qo'llanilishi yoki kamdan-kam qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan, misollar keltirilgan. Kamdan-kam qo'llaniladigan iboralar belgilangan. Faqat ma'lum sinflar yoki ma'ruzachilar guruhlari tomonidan qo'llaniladiganlari ham ajratilgan. Ushbu lug'at ustida 25 yil turli yoshdagi tilshunolar ishlashgan.

Nemis tilining boy frazeologik elementlarini jamlagan ushbu ikki kitobdan to'plangan frazeologik antonimlarni tahlil qilib chiqamiz. Frazeologik antonimiyanning eng sodda ko'rinishida ikki frazeologik birlik

¹²⁹ Cernyeva I.I. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. – Moskau: 1980, S. 43.

¹³⁰ Gontcharova N. Zur phraseologischen Antonymie in der deutschen Gegenwartssprache. Beiträge zur Erforschung der deutschen Sprache. – Leipzig: 1983, S. 123.

o'zaro antonim juft hosil etib turadi. Bunda har ikki frazeologik birlik monosem bo'lsa o'zaro to'liq antonim munosabat shakllantiradi. Agar biri monosem ikkinchisi polisemem bo'lsa, u antonim juftida faqat bir sememasi bilan qatnashadi. Ikki frazeologik birlik ham polisemem bo'lsa, ular antonim munosabatda bir frazasememasi bilan qatnashadi¹³¹. Nemis tilidagi bir strukturali inkor so'z orqali antonim juft hosil qilgan frazeologizmlar antonimiyani eng birinchi sodda turiga mansub bo'ladi. Chunki ular aynan bir ma'noning inkorini anglatadi.

Bir xil strukturali frazeologik antonimlarning birinchi ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, frazeologik antonimlarning har qanday strukturaviy turlari uchun mavjud bo'lgan frazeologik ma'no jihatidan asosiy ichki qarama-qarshilik bilan bir qatorda, ular antonimik shakl ko'rsatkichlariga ta'riflar bo'yicha ham tas'hqi qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi, antonimlik munosabatining formal ko'rsatkichlari bo'yicha ular quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1. Leksik antonimlar. Bu turdagi antonimlar sirasiga ikki frazeologik birlik tarkibidagi aynan ma'lum bir komponent orqali antonim hosil qiluvchi birliklar kiradi. Ular ham o'z navbatida tarkibidagi ustun komponent tufayli fe'l, sifat, ot, ravish, son va olmoshli frazeologik antonimlar guruhiga bo'linadi. Ushbu tadqiqot ishida to'plangan misollarni ushbu klassifikatsiya ostida tartiblashga harakat qilinadi.

a) Fe'l komponentli frazeologik antonimlar.

Frazeologik antonimlarning ushbu turida ikki frazeologik birlikning fe'l komponentlari bir-biriga qarama-qarshi ma'no ifodalaydi va shu orqali antonim sifatida qabul qilinadi. Ba'zan faqat fe'lning o'zi ba'zan esa fe'l va frazeologik birlik tarkibidagi predlog qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday holatda ikki frazeologik birlik bir-biriga murakkab, ya'ni tarkibidagi ikki komponenti orqali antonimlik munosabatini hosil qilgan hisoblanadi.

Quyida har ikkila turga ham misollar keltirilgan.

1. jemandes Lebensgeist anregen (yashashga umidini uyg'otmoq) - **das Lebenslicht erlöschen/ jemandem das Lebenslicht ausblasen** (hayotdan umidini so'ndirmoq) har ikkala frazeologizm ham ot + fe'l strukturasiga ega. **anregen** (undamoq, jonlantirmoq, ko'nglini ko'tarmoq) fe'li **erlöschen**

(erlöschen fe'lining eski formasi) (o'chirmoq) fe'liga leksik jihatdan antonim emas. Leksik antonimlar lug'atida ular bir-biriga antonim sifatida berilmagan, biroq frazeologizm tarkibida anglatayotgan ma'nosiga ko'ra, ular antonim bo'la oladi. Sababi *Lebensgeister* (ruh)ni jonlantirish mumkin. *Lebensgeister* (hayot uchquni) ni so'ndirish mumkin. Shunga ko'ra *erlöschen* fe'li qo'llangan. Bu misoldagi **Licht** elektr chirog'i ma'nosini anglatmaydi. Ikki frazeologik ibora mantiqiy jihatdan bir-biriga konversiv antonim hisoblanadi.

2. Seiner Zunge freier Lauf lassen (tiliga erk bermoq) - **seine Zunge hüten** (tilini tishlamoq), **seine Zunge zügeln** (tilini tiymoq) juftliklari ot+fe'l strukturali sintaktik modeliga ega. Ushbu frazeologik birliklarda fe'l komponentining ustunligi ko'rinadi. **binden** (bog'lamoq) va **lösen** (yechmoq) fe'llari bir-biriga leksik antonim sifatida ham qo'llanadi. 9- chi misoldagi **freier Lauf lassen** erkin, o'z holiga qo'yimoq degan ma'noda qo'llansa, **hüten** biror kimni yoki biror narsani noxushlik sodir bo'lishidan ehtiyot qilmoq degan ma'noni va **zügeln** esa tiymoq, nazorat qilmoq, nazorat ostiga olmoq degan ma'nolarda qo'llaniladi. **Freier Lauf lassen** jumlasini fantaziya, g'oyalar, tasavvur, ko'z yoshi, his-tuyg'ular va shu kabilar uchun qo'llanadi. Tilni o'z holiga qo'ygan bilan til og'izdan chiqib keta olmaydi. Frazeologik birlik komponentlari sifatida so'zlarning individual ma'nosi singib ketadi va yo'qoladi. Shunday ekan, **Freier Lauf lassen** frazeologizm tarkibida „tiliga erk bermoq“ degan ma'noga ega bo'ladi. Frazeologik birikmada **hüten** ham asl ma'nosidan sal boshqacharoq ma'noga ega bo'lgan va noo'rin gapirib, boshiga balo-qazo yog'dirmasligi uchun „tilini tiymoq“ ma'nosiga ega bo'lgan. Chunki tilshunoslikda „tilimni ehtiyot qildim“ deyilmaydi. Shunday ekan, **binden** va **lösen** fe'llarini hamda **freier Lauf lassen** jumlasini bilan **hüten**, **zügeln** fe'llarini bir-biriga antonim deb olishga haqqimiz bor.

3. Jemandem einen Korb geben (birovga rad javobini bermoq) - **jemand einen Korb bekommen** (birovdan rad javobini olmoq), **bei jemandem abblitzen** (birovdan rad javobini olmoq) frazeologik antonim juftligi ot+fe'l sintaktik modeliga ega. Har ikkala frazeologizmning ham ikki semantik ma'nosi bor. Birinchi ma'noda, o'z leksik ma'nosida qo'llanganda, ular so'z birikmasi sanaladi va hech bir so'z o'z leksik ma'nosini yo'qotmaydi (kimgadir savatni bermoq, kimdir savatni olmoq).

¹³¹ Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. - Toshkent: Universitet, 1999. 3 b.

Ammo ikkinchi ma'noda, frazeologik ibora doirasida ularning faqat fe'llari o'z ma'nosida qoladi xolos. Biror yigit bir qizning qo'lini so'raganda, qizning unga rad javobini berishi va yigitning qizdan rad javobini olishini ifoda etadi.

Ushbu frazeologik antonim juftliklari o'rtasida mantiqiy jihatdan konversiv antonimlik munosabati shakllangan. *Geben* va *bekommen* fe'llari bir semantik asosga ega emas, yoki ulardan birining inkori ikkinchisining tasdig'ini ham ifodalamaydi. Vektorial antonimiya esa ikki harakat o'rtasida sodir bo'lib, ulardan biri ma'lum bir natijaga olib keladi, ikkinchisi esa o'sha natijani yo'q qiladi. Shuning uchun hech ikkilanmasdan bu frazeologik antonim juftligini konversiv deyish mumkin. *Bei jemandem abblitzen* ham bir xil strukturaga ega bo'lmasada, *jemandem einen Korb geben* frazeologizmiga semantik jihatdan antonim bo'la oladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, bir frazeologik iboraning ham bir xil strukturali, ham turli strukturali antonimi bo'lishi mumkin.

4. Jemandes Aktien steigen iborasi *kimningdir hurmati ortmoq* degan ma'noni anglatadi. Bu ibora *jemandes Aktien fallen* *kimningdir hurmati tushmoq* iborasiga antonimdir. Tuzilish jihatidan har ikki frazeologik antonim fe'l+ot sintaktik modeliga ega ya'ni ularning tuzilishi strukturasi bir xil. Shuning uchun ham ular bir xil strukturali frazeologizmlar sifatida ko'riladi. Bu juftlikning bir-biriga antonim sifatida ko'rilishiga sabab kimningdir biror kimsani maqtashi yoki yomonlashi orqali o'sha kimsaning obro'si ortadi yoki aksincha, bir guruh insonlar orasida qadrsizlanadi. Ushbu ikki iboraning anglatayotgan semantik ma'nosi aynan bir xil. Faqatgina ular biror kimning obrusini ortishi yoki tus'hishi jihatdan farq qiladi. Ular tarkibidagi fe'l frazeologik komponent orqali, ya'ni **steigen** yoki **fallen** fe'llari tufayli frazeologik antonim sifatida qaraladi. Aslini olganda **steigen** va **fallen** fe'llari frazeologizmdan tashqarida ham bir-biriga antonim hisoblanadi. Ular leksik antonimlar sanaladi. Shu sababdan ham ular frazeologizmlar tarkibida leksik antonimlar guruhiga kiritilgan.

5. Jemandem sein Herz erschließen/ ausschließen kimgadir bag'rini ochmoq frazeologizmi semantik jihatdan *kimnidir yoki biror narsani yaxshi ko'rmoq* degan ma'noni anglatadi. Masalan, yangi tanishgan biror kishini yoki biror narsani yaxshi ko'rish kabi. Ushbu fe'l+ot tipidagi

frazeologizm *jemandem sein Herz verschließen* kimgadir bag'rini yopmoq iborasiga antonim bo'ladi. Ushbu ibora ham fe'l+ot sintaktik modeliga ega va semantik jihatdan *kimnidir yomon ko'rmoq yoki biror narsani yoqtirmaslik* degan ma'noni anglatadi. Aslini olganda *erschließen* va *verschließen* fe'llari leksik holatda ham o'zaro antonimdir. Shuning uchun ham ular frazeologizm tarkibida bir-biriga ikki teskari ma'no anglatishi bilan frazeologik antonimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

6. Den alten Menschen ablegen/ ausziehen (eski to'nini echmoq) – **einen neuen Menschen anziehen** (yangi ko'rinishga ega bo'lmoq) frazeologik iboralari tarkibida sifat, fe'l, ot so'z turkumiga oid so'zlar mavjud, ularning asosiy komponenti fe'l va ot sanaladi. Ular fe'l+sifat+ot sintaktik modeliga tegishli. Ibra tarkibida aniq artiklning qo'llanilishi "eski odam"ni hamma tanishiga bog'liq. Mantiqan "eski odam" jamiyatda malum-u mashhur bo'ladi. Keyingi "yangi odam" qiyofasi tasvirlangan iborada noaniq artiklning qo'llanishi bu mantiqan yangi odamning hali qirralari ochilmagan mavjudligi yoki ommaga noma'lumligi sababli foydalanilgan. Semantik jihatdan bu iboralar kimningdir o'zini o'zgartirishi uchun qo'llanadi.

7. Das eigene Nest beschmutzen (uyini kir saqlamoq) – **das eigene Nest reinhalten** (uyini toza saqlamoq) Ushbu bir xil strukturali 2 ibora fe'l+ot sintaktik modeliga ega. Iboralar tarkibidagi fe'l komponentlari leksik antonimlardir. Birinchi ibora uyida tartibsizlik hukmron bo'lganlar uchun qo'llanadi. Quyida tartib va ozodalik hukmron bo'lgan insonlar uchun ikkinchi iborani qo'llash mumkin.

8. Die Beziehungen zu jemandem abbrechen (kim bilandir aloqasini uzmoq) iborasi tarkibidagi **abbrechen** fe'li *uzmoq* degan ma'noga ega. U alohida leksema sifatida *zusammenfügen, wiederaufnehmen, weiterführen, abschließen* fe'llari bilan antonim. **die Beziehungen zu jemandem anknüpfen** (kim bilandir aloqa o'rnatmoq) iborasi tarkibidagi **anknüpfen** fe'li uchun *abbrechen, aufhören* fe'llari antonim sifatida berilgan. Demak **abbrechen** va **anknüpfen** fe'llari iboradan tashqarida ham, iboralar ichida ham antonimdir. Bu iboralar, misol uchun, maktabdosh do'stlari bilan aloqasi uzilgan, ya'ni ko'rishib turmaydigan yoki aksincha, eski maktabdosh do'stlari, eski tanishlari bilan qaytadan munosabat o'rnatish ma'nosida qo'llaniladi. Har ikkala ibora fe'l+ot+predlogdan tashkil topgan.

b) Sifat komponentli frazeologik antonimlar

Frazeologik antonimlarning ushbu turida ikki frazeologik birlikning sifat komponentlari bir-biriga qarama-qarshi ma'no ifodalaydi. Ular ba'zan leksik antonim bo'lishadi, ba'zan esa frazeologik birliklarning umimiy semantikasidan qarama-qarshilik kelib chiqadi. Ularga kontekstual antonimlar sifatida qabul qilinadi. Nemis tili frazeologiyasida sifat frazeologik antonimlar ko'p uchraydi.

9. Jemandes böser Geist (ichi qora) - jemandes guter Geist (ko'ngli ochiq) Ushbu frazeologik juftlik sifat frazeologik antonimlar qatoriga tegishli. Sababi bu ikki ibora aynan bir xil tuzilishga ega. Ularning strukturasi sifat + ot ko'rinishida. Ushbu ikki frazeologizm bir-biriga sifat komponenti yuzasidan qarama-qarshi ma'no anglatadi. Birinchi ibora birovni ko'ra olmaydigan, hasadgo'y insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ikkinchi ibora esa, ochiq ko'ngilli birovga yomonlik tilamaydigan yaxshi odamlarga qo'llanadi. *gut* va *böse* sifatleri inson xususiyatlarini anglatadigan, ularning xarakterini ochib beradigan sifatlar bo'lib, ular bir semantik asosga ega.

10. Jemand hat ein gutes Herz (bag'ri keng) - jemand hat ein hartes Herz (qahri qattiq) Ushbu ikki ibora tarkibidagi sifatning bir qarashda bir-biriga frazeologizmdan tashqarida, ya'ni alohida leksema sifatida antonim munosabatga kirishmasligi anglash mumkin. Ammo iboralarning umumiy anglatayotgan semantik ma'nosidan *gut* va *hart* so'zlari tufayli antonimik munosabatda ekanligini ko'ramiz. Bu iboralarning har ikkalasi ham gapga buning birliklardir. Iboralarning o'zi yolg'iz bir gap bo'la oladi. Iboralarning ikkisi ham ayni bir sintaktik modelga - fe'l+sifat+ot tuzilishiga ega.

11. Jemand hat ein warmes Herz (mehri daryo) - jemand hat ein kaltes Herz (toshurak) Bu juftliklarning antonim ekanligini bir qarashda anglash qiyin emas. Sifat+ot tuzilishiga ega ikki frazeologizm tarkibidagi *böse* va *gut*, *kalt* va *warm* komponentlari oddiy leksema sifatida ham antonim sifatida berilgan. Sifatlarni birlashtirib turuvchi yagona semantik asos mavjud, ya'ni, inson xakteri. *gut* va *hart* sifatleri leksik antonim emas. X. Agrikola "Wörter und Gegenwörter" kitobida hart uchun hart, weich, leicht, gütig sifatlarini keltirgan. *gütig* so'zi www. dudn. de saytida bos'hqalarga mehribonlik va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish,

ularga xayrixohlik ko'rsatish yoki bu munosabatni ko'rsatish degan izoh bilan berilgan. Shuning uchun *gut* ham kontekstda *hart* sifatiga antonim sifatida ishlatish mumkin. Ammo ikki sifat qarama-qarshi tomonga yo'nalmaydi, aksincha bir tarafga yo'nalgan ketma-ket nuqtalarda yotadi.

Charakter des Menschen

<i>gut</i>	<i>böse</i>	<i>schlecht</i>
<i>gut</i>	<i>hart</i>	<i>stein</i>
<i>kalt</i>	<i>kühl</i>	<i>warm</i>

12. Guten Absatz haben/ finden (bozori chaqqon bo'lmoq) - **schlechten Absatz haben/ finden** (savdosi sust bo'lmoq)

Ushbu proportional frazeologik antonim juftlari fe'l+sifat+ot strukturasi ega bo'lib, ular bir-biriga tarkibidagi leksik antonimlar orqali teskari ma'no anglatishadi. Ushbu frazeologik antonim iqtisodda qo'llanadi. Chunki bu ibora mahsulotlarning sotilishi qay darajada ekanligini bildiradi. Masalan, *Die Lederjacke ist heutzutage in Mode und sie hat einen guten Absatz. Im Gegensatz dazu hat die Jacke aus Stoff einen schlechten Absatz.* Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, charm kurtkaning bozori materialdan tikilgan kurtkaga qaraganda chaqqon.

13. Etwas in guter Absicht tun (biror narsani yaxshi niyatda qilmoq) - **etwas in böser Absicht tun** (biror narsani yomon niyatda qilmoq) frazeologik antonimlari fe'l+predlog+sifat+ot konstruksiyaga ega va bir xil strukturali frazeologik antonim hisoblanadi. Ular bir biriga *guter* va *böser* komponentlari orqali antonim deb qaraladi. Frazeologizmlar o'rtasidagi munosabatlarda antonimlarning mavjudligi ularning idiomatiklik darajasiga bog'liq emas, ya'ni qisman va to'liq frazeologik birliklar ham bir-birining antonimi bo'lishi mumkin. Quyida ham bir qancha sifat frazeologik antonimlar keltirilgan.

14. An die richtige/ rechte Adresse kommen/ geraten (to'g'ri manzilga tushmoq) - **an die falsche/ verkehrte Adresse kommen/ geraten** (manzilidan adashmoq) Xuddi yuqoridagilar kabi bu juftlik ham tarkibidagi sifat so'z turkumiga oid komponentlar yuzasidan antonim juftlikni tashkil qilgan. Har ikkala ibora sintaktik jihatdan gap bo'lagiga to'g'ri keladi. Ularning tuzilishi predlog+sifat+ot+fe'l ko'rinishida. Bu juftlikning semantikasi biror gapning aynan so'zlovchi yo'naltirgan egasiga etib borish yoki noto'g'ri shaxsga tegib ketishi bilan bog'liq.

15. *Einen großen Aktionsradius haben* (keng harakatlanis'h radiusiga ega bo'lmoq) – *einen kleinen Aktionsradius haben* (tor harakatlanish radiusiga ega bo'lmoq) *Aktionsradius* so'zi avtomobil yoki samolyot yangi yonilg'i olmasdan bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofa ma'nosini anglatadi. Masalan, tanish-bilishi, do'sti ko'p odamning boradigan manzili ham ko'p bo'ladi. Aytaylik, kimdir yangi shaharga ko'chdi, bu yerda hali ko'p insonlarni tanimaydi. Bunday holatda uning borar manzili ham juda oz bo'ladi. Bir xil strukturali 2 frazeologik juftlik sifat+ot+fe'l tuzilishiga ega. Iboralar bir-birlariga *groß, klein* so'zlari orqali antonimlik munosabatini shakllantiradi.

16. *Jemand hat ein enges Gewissen* (dunyoqarashi tor bo'lmoq) – *jemand hat ein weites Gewissen* (dunyoqarashi keng bo'lmoq) iboralar tarkibidagi *eng* va *weit* so'zlari bir semantik maydonga ega bo'lsa-da, frazeologizmdan tashqarida antonim emas. *Eng* uchun *breit* so'zi leksik antonimlar. Biroq dunyoqarash uchun *breit* so'zi qo'llanmaydi. Ularning ikkalasi ham gapga teng frazeologik birliklardir. *Gewissen* so'zi bu iboralar tarkibida xotira emas, dunyoqarash degan ma'noda qo'llangan.

17. *Jemand hat gutes Gewissen* (xotirasi yaxshi bo'lmoq) – *jemand hat schlechtes Gewissen* (xotirasi chatoq bo'lmoq) Bu ikki antonim juftlik teskari ma'noga ega sifat komponentlari uchun antonim sifatida tanlandi. Keng va tor so'zlari frazeologizmdan tashqarida ham antonimlar sanaladi. Ikkala ibora ham gapga teng. Ular fe'l+sifat+ot strukturasiga ega. Iboralarning semantikasi biror voqea-hodisani yaxshi eslaydigan hamda yangi bilimlarni qiyinchiliksiz yodlab qoladigan va aksincha biror narsani tezda unutadigan shaxslarni tasvirlaydi.

c) Ot komponentli frazeologik antonimlar

Otli frazeologik antonimlarda ot komponenti ustunlik qiladi. Ot so'z turkumiga oid komponentlarning keyingi frazeologizmda leksik antonimi berilishi yoki inkor so'z yasovchi old qo'shimchalar qo'shilishi orqali antonim deb olinadi.

18. *Ein kluger Kopf* (aqli odam) – *eine dumme Gans* (ahmoq)

Ein wandelndes Lexikon (bilimli inson) – *ein dummes Huhn* (garang tovuq)

– *eine dumme Ziege* (tentak qo'y)

Ein kluger Kopf, ein wandelndes Lexikon frazeologik iboralari aqli insonlarga nisbatan qo'llanilishi bilan *eine dumme Gans, ein dummes Huhn, eine dumme Ziege* kabi bilimsizlik va ahmoqlikni ifodalovchi frazeologik iboralariga antonim hisoblanadi. Bir tomondan ular *klug* va *dumm* kabi leksik antonimlar bilan, ikkinchi tomondan esa semantik jihatdan ham qarama - qarshi ma'nolarni anglatadi. *ein wandelndes Lexikon* iborasining izohi - „jemand, der viel weiss, ein gebildeter Mensch, auf den verschiedensten Gebieten (fundiertes) Wissen aufweisen können, in einem bestimmten Bereich sehr viel wissen“ deb berilgan. Shunday ekan ushbu ibora ham ilmsizlikni, ahmoqlikni anglatuvchi iboralarga antonim bo'la oladi.

19. *hässliche Schönheit* iborasi olifalikni bajara olmaydigan odamga nisbatan, yoki sun'iy go'zallikka nisbatan qo'llanadi. **Bu ma'noga qarshi semantikaga ega wahre Schönheit** iborasi esa haqiqiy go'zallikni ifodalaydi. Bu frazeologizmlarning ikkalasi ham sifat+ot modelida. *Hässlich, wahr* so'zlari frazeologizmdan tashqarida antonim emas. Shuning uchun ular kontekstual antonimlar deyiladi.

20. *Öl ins Feuer gießen* olovga moy sepmoq iborasi ot+ot+fe'l tuzilishiga ega. Bu frazeologizm kimnidir birovga qarshi qilish niyatida vaziyatdan foydalanib, ba'zan haqiqat, ba'zan bo'hton bilan o'sha kimnidir gij-gijlaydigan kishilar uchun ishlatiladi. Bu iboraga antonim sifatida tanlangan *Balsam auf jemandes Wunde* yarasiga malham bo'lmoq iborasi birovni qiyin vaziyatidan foydalanmasdan, aksincha unga dalda bo'luvchi insonga nisbatan qo'llanadi. Biroq bu ibora o'z antonim sherigining tuzilishidan farq qiladi. U ot+predlog+fe'l strukturasiga ega.

d) Ravish komponentli frazeologik antonimlar

Ravishli frazeologik antonimlar ham boshqa turlar kabi frazeologizm tarkibidagi ravish komponentlari orqali namoyon bo'ladi. Ularda ham xuddi sifatli frazeologik antonimlar kabi yoki leksik antonimlar yoki kontekstual antonimlar mavjud bo'ladi.

21. *Schnell von Begriff sein* (tez tushunmoq) – *schwer von Begriff sein* (sekin tushunmoq), *schwer von Kappe sein* (sekin tushunmoq)

Frazeologik birliklarning semantikasi jamiyati vakillarining mentaliteti va madaniy an'analarning o'ziga xos aks etishi bilan bog'liq, shuning uchun ushbu hodisaning tarkibiy va semantik xususiyatlarini

o'rganish bu xususiyatlarning lingvistik ko'rinishlarini aniqlash uchun muhimdir. *schnell* va *schwer* so'zlari leksik antonimiyani hosil qilmaydi. Bu ibora *verstehen* so'ziga to'g'ri keladi. Nemis tilida *etwas langsam verstehen* degan tushuncha qobiliyatni emas, balki jarayonni ifodalaydi. Ya'ni *langsam verstehen* biror narsani insonning qiyin tushunishini emas, aksincha, asta-sekinlik bilan (vaqt o'tishi bilan) tushunishini, ushbu vaqt davomida uning fikri ijobiy tarafga o'zgarishini bildiradi. Bir tilli lug'atlardan izlangan natijalar bo'yicha *langsam verstehennig* o'zbek tilidagi "o'n marta aytasang, bir marta tushunadi" degan ma'nosiga mos keladigani topilmadi, ammo jargonda ishlatilishi aniqlandi. Takroriy ifodadan so'ng tushunish *schwer verstehen* deyiladi va shunga ko'ra ibora tarkibida ham *schnell* va *schwer* so'zlari frazeologik birlik komponenti sifatida qo'llanadi va bir-biriga teskari ma'no anglatadi. Ushbu frazeologizm I.Chernishevaning struktural-semantik klassifikatsiyasiga ko'ra, birinchi kichik guruhiga tegishli hamda Adj+Konj+S sintaktik modelga ega.

22. *Viel abbekommen* (birovga biror narsa bo'lmoq, o'z ulushini, o'ziga tegishlisini olmoq (urish, so'kish ma'nosida)), *sein Fett kriegen* (qilmishiga yarasha olmoq) – *nichts abbekommen* (birovga hech narsa bo'lmaslik) ko'pincha pragmatik tahlil bo'yicha birovga tahdid qilinganda qo'llaniladigan *viel abbekommen* (shoshmay tur, sen ham „o'z ulushingni olasan hali“ ma'nosida) qo'llaniladigan frazeologik birlikka *nichts abbekommen* frazeologizmini qarshi qo'yish mumkin. Ravis'h+fe'l sintaktik modeliga tegishli ushbu frazeologizm antonimlikning formal ko'rsatkichlari bo'yicha leksik antonimlarning kichik guruhi ravishlar vositasida qarama-qarshi qo'yiladi. Umuman olganda *viel* va *nichts* ravishlari leksik antonim emas, ammo frazeologizm tarkibidagi semantik ma'nosi orqali bir birini rad etadi. Ammo aniqroq ko'rib chiqilsa, *viel* va *nichts* ravishlari bir tekislikdagi ketma-ket o'rinlarni egallaydi.

nichts wenig viel

23. *Gut/ besser abschneiden (bei einem Examen)* (imtihonni yaxshi topshirmoq) – *schlecht abschneiden (bei einem Examen)* (imtihonni yomon topshirmoq) bu juftlik bir xil ravish+fe'l strukturaliga ega va ularning antonimlik munosabati leksik antonimlar orqali namoyon bo'ladi.

24. *Jemanden/ etwas gut abkönnen* (birovga/ nimagadir dosh bermoq, chiday olmoq) – *jemanden/ etwas schlecht abkönnen* (birovga/ nimagadir dosh bera olmaslik, chiday olmaslik) frazeologik antonim juftligi ham ravish+fe'l sintaktik modeliga ega va ular bir-biri bilan tarkibidagi leksik antonimlar orqali qarama-qarshi munosabatda turishadi. *Die neue Mathematiklehrerin gefällt meiner Tochter nicht* misolidan ushbu frazeologizmlarning semantikasini osonroq anglash mumkin. Tarjimasi: Qizimga yangi matematika o'qituvchisi yoq(a/may)di, yoki qizim yangi matematika o'qituvchisiga chiday olmayapti.

e) Son komponentli frazeologik antonimlar

Sonli frazeologik antonimlar tartib sonlar orqali amalga oshadi. Ular barmoq bilan sanarli darajada kam. Ular kontekstual antonim hisoblanadi.

25. *Die erste Geige spielen* (biror ishni birinchi bajarmoq) – *die zweite Geige spielen* (biror ishni eng oxiri bajarmoq)

26. *Aus erster/ privater Hand kaufen* (birinchi qo'ldan xarid qilmoq) – *aus zweiter Hand kaufen* (ikkinchi qo'ldan xarid qilmoq)

27. *Auf den ersten Blick* (birinchi tasavvur) – *auf den zweiten Blick* (keyingi tasavvur)

28. *Im ersten Augenblick* (bir qarashda) – *im nächsten Augenblick* (keyingi qarashda).

f) Olmosh komponentli frazeologik antonimlar

29. *Aus demselben Holz geschnitten sein* (bir sortdan bo'lmoq) – *aus anderem Holz geschnitten sein* (boshqa sort bo'lmoq)

Predloglar orqali antonim munosabatga kirishuvchi frazeologizmlar.

Ushbu turdagi frazeologik antonimlarda haqiqatdan ham predloglar orqali ikki frazeologik birlik bir semasi bilan farq qiladi va qarama-qarshi ma'no beradi. Predloglar orqali antonim juftlik sifatida qaraladigan frazeologik birliklar bir-biri bilan aynan o'xshash bo'ladi. Ular fe'lli frazeologik antonimlardan va tarkibidagi fe'l va predloglari orqali antonim munosabatda bo'lgan frazeologik iboralardan farq qiladi.

30. *In Zug kommen* (o'z chiziġiga tushmoq) – *außer Zug kommen* (yo'lidan adashmoq)

31. *In Mode kommen* (urfda bo'lmoq) – *außer Mode kommen* (urfdan chiqmoq)

32. *Von Kräften kommen* (kuchdan qolmoq) – *wieder zu Kräften kommen* (qayta kuchga kirmoq)

Predlog va fe'l orqali murakkab antonimlik.

33. *Etwas in Acht nehmen* (biror narsani e'tiborga olmoq) – *etwas außer Acht lassen* (biror narsani e'tibordan chetda qoldirmoq)

34. *Die Hände aus der Tasche nehmen* (yeng shimarmoq) – *die Hände in die Tasche stecken* (qo'lini qo'ltig'iga urmoq)

35. *An die Reihe kommen* (navbatga turmoq) – *aus der Reihe tanzen* (navbatni chetlab o'tmoq)

Inkor so'z orqali antonimik munosabatga kirishuvchi frazeologizmlar.

a) Artikel bilan

36. *Wenig abgewinnen können/ Geschmack abgewinnen können* (mijozini topmoq) – *nichts abgewinnen können/ keinen Geschmack abgewinnen können* (mijozini topa olmaslik) iboralari ham iqtisodiy sohada ishlatiladigan frazeologizmlardir. *Wenig* va *nichts abgewinnen können* ravis'h+fe'l strukturasiga ega. *Wenig* va *nichts* kontrar aloqadagi kontekstual ravish antonimlar sanaladi. Yuqoridagi misollarda qarshilantirilgan *viel* va *nichts* hamda ayni misoldagi *wenig* va *nichts* ravis'hlari o'rtasidagi bog'liqlik – bu ma'lum „o'lchov birligi“ning mavjudligidir. Bir semantik asosga ega bo'lgan ushbu frazeologik komponentlar bir nuqtadan boshlanib bir tomonga yo'nalgan chiziqli yotadi.

Menge (Kontrarität)

nichts	wenig	viel
--------	-------	------

keinen/ Geschmack abgewinnen können esa ot+fe'l sintaktik modelidir. Bu yerda faqat bir inkor so'z orqali ma'noning rad qilinishi kuzatiladi. Frazeologizmlar o'rtadagi inkor so'zlar orqali antonim yasalishi ham ko'p kuzatiladi.

37. *Einen Augenblick! (warten, aufpassen)* (bir daqiqa kutmoq), *alle Augenblicke* (har doim) – *keinen Augenblick warten/ (aufpassen)* (bir

daqiqa ham kutib tura olmaslik) birinchisi ot+fe'l strukturasiga ega bo'lsa-da, kutish ma'nosida qo'llanganda – fe'lsiz ishlatiladi. Ammo kontekstdan kutib turish zarurligi anglashiladi. „Biror narsaga ehtiyot bo'lib turish, qarab turish“ ma'nosida esa hamisha *aufpassen* fe'li bilan qo'llanadi. *Einen Augenblick!* Asosan fe'lsiz qo'llansa-da, uni *keinen Augenblick warten* iborasi bilan bir xil strukturali antonimlar qatoriga kiritish mumkin. Quyida ham inkor so'zlar bilan antonim munosabatga kirishgan frazeologik juftliklar keltirildi.

38. *Mark in den Knochen haben* (kuchi bo'lmoq) – *kein Mark in den Knochen haben* (kuchi yo'q bo'lmoq)

39. *Von etwas Ahnung haben* (biror narsadan xabari bo'lmoq, bilmoq) – *von etwas keine Ahnung haben* (hech narsadan xabari bo'lmaslik, bilmaslik)

40. *jemand hat doch Augen im Kopf* (ko'zi bo'lmoq) – *jemand hat keine Augen im Kopf* (ko'zi bo'lmoq)

b) Olmosh komponentli frazeologizmlar bilan

41. *Jemanden in Ruhe lassen* (birovni o'z holiga qo'yimoq) – *jemandem keine Ruhe lassen* (birovni o'z holiga qo'ymaslik, halal bermoq) juftligi tuzilish jihatdan ot+ fe'l formasiga mos keladi. Ular bir-biriga *kein* inkor so'zi orqali antonim munosabat shakllantirgan. Bu frazeologik juftlikni birinchi bor uchratilganda ham ularning antonimligini payqash qiyin emas. Frazeologik komponentlardan butun semantik ma'noning oson anglab olinishi ularning to'liq idiomatik shaklda emasligini ko'rsatadi. Gapda juftliklar sintaktik jihatdan kesim vazifasini bajaradi. Ammo ikkala frazeologizmning to'ldiruvchi komponentlari grammatik jihatdan bir kelishikda tura olishmaydi. *Jemanden in Ruhe lassen* **Akkuzativ** kelishigida turadi. *Jemandem keine Ruhe lassen* esa **Dativ** kelishigida qo'llanadi. Bundan ko'rinadiki, bir xil strukturali frazeologik antonim juftliklarining barcha komponentlari grammatik jihatdan bir xil tuzilishga ega bo'la olmaydi va bu antonim frazeologizmlarning aniqlanishi uchun omil emas.

42. *Die Absicht haben* (niyatida bo'lmoq) – *nicht die Absicht haben* (niyatida bo'lmaslik) ushbu frazeologik birliklar ham nicht inkor so'zi orqali antonim juftlik yasaydi. Har ikki frazeologik birlikdan so'ng ham gapda zu+ infinitivdan foydalaniladi.

43. *Nicht mehr der alte sein (Gesundheit, Stimmung)* (eski holicha bo'lmaslik) - *wieder ganz der Alte sein, ganz der Alte geblieben sein (Gesundheit, Stimmung)* (yana o'z holiga qaytmoq)

44. *Sich die Hände schmutzig machen (mit etwas)* (qo'lini biror narsa bilan kir qilmoq) - *sich die Hände nicht schmutzig machen wollen (mit etwas)* (qo'lini biror narsa bilan kir qilishni xohlamaslik)

45. *Nicht auf Deck sein* (o'zini yomon his qilmoq) - *wieder auf Deck sein* (o'zini yaxshi his qilmoq)

Har xil strukturali antonimlar

Frazeologizmlar komponentlari ma'no munosabatini hosil etmaydigan, ulardagi antonimlik leksik a'zolar asosida emas, balki frazeologik birlikdan yaxlitligicha anglashiladigan ma'no asosida gavdalanadigan antonimlar ham mavjud¹³². Ular har xil strukturali frazeologik antonim juftliklarni hosil qiladi.

46. *Viel zu tun haben* (ishi ko'p bo'lmoq) - *die Arme frei haben* (qo'li bo'sh bo'lmoq) antonim juftliklari yagona semantik asosdan kelib chiqqani uchun komplementar antonim hisoblanadi. Ularning har ikkisi ham **ish haqida** ma'lumot beradi. *Viel zu tun haben* ravish+fe'l sintaktik modeliga, *die Arme frei haben* esa ot+fe'l sintaktik modeliga misol bo'lishi mumkin. Qo'l haqiqatda bo'sh, erkin bo'lmaydi, bu yerda stilistik bo'yoqdorlik orqali kimningdir ishi yo'qligi, bo'sh ekanligi ko'rsatilgan.

47. *Den Kopf hochhalten* (boshini baland ko'tarmoq) frazeologizmi frazeologik butunlik sifatida tushkunlikka tushmaslik, jasoratini yo'qotmaslik, optimistik fikrlash kabi semantik ma'nolarga. Bu birikmani oddiy so'z birikmasi sifatidagi ma'nosi ham boshini tik tutmoq degan ma'noni bildiradi. Ammo tasviriy ifodasi anglatayotgan ma'no bilan so'z birikmasi sifatidagi ma'nolariga antonim sifatida *den Kopf in den Sand stecken* (pisib o'tirmoq) frazeologik butunligini olib bo'lmaydi. Birinchi ibora polisemem ma'noga ega bo'lib, faqat konnotativ ma'nosi doirasida keltirilgan frazeologizm bilan antonim bo'la oladi. *den Kopf in den Sand stecken* faqat bir semantik ma'noga ega bo'lib, o'zbek tilida qiyinchilikdan

¹³² Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. - Toshkent: Universitet, 1999, 196.

qo'rqmoq, jasoratini yo'qotmoq degan ma'nolarni anglatadi. Iboraning so'zma- so'z ma'nosi insonga nisbatan qo'llanilmaydi. Tabiatda faqatgina tuyaqush boshini qumga tiqishi mumkin. *Den Kopf hochhalten*ning variantlari ham mavjud bo'lib, ular ham *den Kopf in den Sand stecken* bilan antonim sifatida qo'llanishi mumkin. *Den Kopf oben behalten / den Kopf oben halten - den Kopf in den Sand stecken*

48. *Große Augen machen* (hayratdan qotib qolmoq) - *ein kalter Kaffee sein* (eski ma'lumot bo'lmoq) mazkur antonim juftlik sifat+ot strukturasiga ega. Har ikkalasida ham fe'llardan ma'no anglashilmaydi. Ular frazeologizmini shunchaki to'ldirishadi. *Große Augen machen* iborasi biror yangilik, xabar eshitgan odamning hayratini ifodalaydi. Xabar ta'sirli bo'lsa, tinglovchining ko'zlari hayratdan kattalashib, yoqa ushlaydi. Bu xabarni ilgariroq eshitgan odam uchun esa u qiziq emas va befarq bo'ladi. Yaxshiroq tasavvur hosil bo'lishi uchun keltirilayotgan misolda ikki shaxs gavdalanitirilmogda. Ammo bu bir odam ustida ikki xil xabar bilan ham bo'lishi mumkin.

aufheben - still bleiben
große Augen machen - kalter Kaffee sein

49. *Von dem nimmt kein Hund ein Stück/ ein bisschen Brot mehr* (e'tibordan chetda qolgan) - *bekannt sein wie ein bunter/ scheckiger Hund* (hamma joyda mashhur/ taniqli bo'lmoq, otning qashqasidek bo'lmoq) ushbu iboralarning ikkalasida ham *Hund* so'zi asosiy ma'no anglatuvchi hisoblanadi. Buni *it* ham yemaydi degan so'zma- so'z tarjimadagi ma'no stilistik jihatdan qo'pol, bepisandalikni ifoda etadi. Nima uchun mashhurlik ham *itga* taqqoslanganini shunchaki taxmin qilish mumkin, chunki bu frazeologizmining kelib chiqish tarixi ma'lum emas¹³³. Daydi itlarning ko'chalarda sang'ishi va ularni har kim tanishi mumkin degan fikrdan olingan bo'lsa ajab emas. *Bunt* so'zi esa *ola-bula* itlarning ko'zga tez tashlanishiga nisbatan olingan bo'lishi mumkin.

Maxsus bo'lim - to'liqsiz frazeologik antonimlar.

¹³³ https://www.huecker.com/archiv/redewendungen/bekannt_sein_wie_ein_bunter_hund.shtml

Bunda ikki frazeologik birlik bir qarashda bir-biriga antonimdek ko'rinadi. Ammo ular bir-biriga sinonim, yoki turli ma'nolarni anglatadi. Quyida ushbu misollarni ham tahlil qilib chiqiladi.

1. *Im ersten Augenblick* (dastlabki daqiqada) iborasi dastlabki tasavvurni ifodalash uchun ishlatiladi. *Ich konnte es im ersten Augenblick gar nicht glauben, dass ich überlebt habe* (dastlab men omon qolganimga ishona olmadim) misolidan ko'rinib turibdiki, *im ersten Augenblick* iborasi voqea haqidagi birinchi fikrni ochib bermoqda. Bunga bir qarashda antonim ko'ringan *im letzten Augenblick* (so'nggi daqiqada) iborasi so'nggi daqiqalarda nimadir sodir bo'lishi yoki nimagadir ulgurib qolish kabi ma'nolarda qo'llanadi. Masalan, *die Wahlgesetze wurden im letzten Augenblick geändert* (saylov qonunlari so'nggi lahzada o'zgartirildi) misolidan anglashilayotgan ma'noning semantik jihatdan *im ersten Augenblick* iborasiga sinonim ham, antonim ham emasligini anglash mumkin.

2. *sich zu schade für etwas sein* (...ga hayf bo'lmoq; ...ga mos bo'lmaslik, o'ziga ep ko'rmaslik) kimningdir nimagadir arzimastligini ko'rsatish uchun qo'llanadigan ushbu ibora *sich nicht schade für etwas sein* (talabsiz/murosa qiladigan biror narsa qilishga tayyor bo'lmoq; kamsituvchi (go'yoki) biror narsa qilishga tayyor bo'lmoq;) bilan antonimga o'xshab ko'rinadi. Biroq, ikkinchi iboraning ma'nosi kimgadir biror narsani ikkilanmasdan berish, tortiq qilishni ifodalaydi. Ikkalasiga misollar keltiramiz: „*Als er in den Ruhestand gng, überfiel ihn beim Gedanken an Segeltörns und Golfturniere das Grauen; dafür war er sich zu schade, und so gründete er mit seiner Frau das mustergültig ausgestattete Lichtensteiner Museum*“ (u nafaqaga chiqqach, uning xayoliga yelkanli sayohatlar va qariyalarning golf turnirlari keldi. U bularni o'ziga ep ko'rmasdi va ayoli bilan ajoyib Lixtenshtayn muzeyiga asos soldi.) „*Er ist sich nicht zu schade, auch einmal selbst als Chef seines Reinigungsunternehmens Schwamm und Putzlappen in die Hand zu nehmen*“ (U o'z tozalash korxonasining boshlig'i bo'lsa-da, ba'zan o'zi ham shimich va lattani qo'lga olishga uyalmaydi (o'z darajasidan past ishni ham o'ziga ep ko'rmasdi, tayyor).

Frazeologizmlarning chetdan so'z olish qobiliyatiga ularni to'ldiruvchi so'zlarga e'tibor bermasdan antonim sifatida berish ham

to'g'ri emas. Masalan, *(etwas) in die Welt setzen* (etwas veröffentlichen, barpo qilmoq, yaratmoq) iborasiga *(jemand) aus der Welt scheiden* (sterben, vafot etmoq) iborasini antonim deb qabul qilsak, ushbu frazeologizmi nutqda qo'llash paytida qavslar ichida e'tibordan chetda qolgan *etwas* va *jemand* so'zlarining o'millarida chetdan olingan so'zlarning paydo bo'lishi bilan ikki frazeologik birlikning butunlay boshqa boshqa ma'nolarda ekani oydinlashadi. Bu fikrni quyidagi gaplar ichida qo'llangan iboralar isbotlaydi. „*Neue Medien wie Blogs und Twitter ermöglichen es praktisch jedem, Artikel und Nachrichten in die Welt zu setzen*“ (Bloglar va Twitter kabi yangi media deyarli har bir kishiga maqola va yangiliklarni joylashtirish imkonini beradi). „*Als der heilige Gabriel zur Vollendung seiner Jahre kam, wurde ihm offenbart, dass er bald aus der Welt scheiden werde*“ (Avliyo Gabij umrining oxiriga kelganida, unga tez orada dunyoni tark etishi vahiy qilindi) ushbu gaplardan ko'rinib turibdiki, *in die Welt setzen* biror narsa yaratishni nazarda tutadi va *aus der Welt scheiden* esa inson umrining tugashini anglatadi. Ammo aynan manashu ikki ibora bir biriga bir vaziyatda haqiqatdan antonim bo'lishi ham mumkin. Faqat bu yerda *etwas* komponentining o'rmini *ein Kind* so'zi bilan to'ldiramiz. Shunda u *(ein Kind) in die Welt setzen* (bolani dunyoga keltirmoq) shaklidagi ko'rishga ega bo'ladi.

„*Ich habe mich in letzter Zeit gefragt, warum ich überhaupt Kinder in die Welt setzen soll*“ (Men hatto oxirgi paytlarda nega bolalarni dunyoga keltirishim kerak, deb o'ylayapman). „*Warum sollte man Eltern, diejenigen, die Kinder in die Welt setzen und sie viele Jahre lang erziehen, nicht als die wichtigsten Wirtschaftsinvestoren eines Landes ansehen?*“ (Nega bolalarni dunyoga olib keladigan va ularni uzoq yillar davomida tarbiyalayotgan ota-onalarni mamlakatning eng muhim iqtisodiy investorlari deb hisoblamaslik kerak?)

Ushbu gaplardan anglash mumkinki, *in die Welt setzen* yangi hayotga ishora qilmoqda. Yuqoridagi fikrning isboti sifatida inson umrining boshlanishi va tugashini antonim deyish mumkin.

3. *Jemanden in Bann halten* iborasi "hayratda qoldirmoq, jalb qilmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu iboraga fe'lli frazeologik antonim sifatida qarab *jemanden vom Bann lösen* iborasini antonim deb berilsa,

noto'g'ri bo'ladi, chunki uning ma'nosi butunlay boshqacha, ya'ni u (diniy) ta'qiqdan ozod qilmoq degan ma'noga ega. Misol:

"In diesem Seminar werden Sie lernen, wie Sie ganz verschiedene Zuhörerschaften mit Ihren Erzählungen in Bann halten und sogar einem Laienpublikum Ihre komplexen Ergebnisse näherbringen können. Denn... über Wissenschaft zu sprechen kann magisch wirken" (Ushbu seminarida siz o'zingizning hikoyalaringiz bilan keng auditoriyani qanday jalb qilishni va murakkab natijalaringizni oddiy auditoriyaga qanday yetkazishni o'rganasiz. Chunki... ilm-fan haqida gapirish sehrli bo'lishi mumkin).

"Von da aus erscheint es sehr fraglich, ob man nach dem Tode jemand vom Bann lösen kann, es sei denn, er habe selbst vorher Reue bewiesen, oder aber die Exkommunikation sei zu Unrecht erfolgt" (Shu nuqtai nazardan qaraganda, odam vafotidan keyin, agar uning o'zi ilgari tavba qilgan bo'lsa yoki chetlatish adolatsiz bo'lsa, la'natdan qochish mumkinmi degan savol o'ylantiradi).

„Willen zur Freundschaft zu zwingen und versteifte sich auf seinen Glauben, daß dieser Genuese ihn vom Bann lösen und ihm den Frieden bringen werde“ (Do'stlikka iroda va bu genuyalik uni afsundan ozod qilishiga va unga tinchlik olib kelishiga ishonishida turib oldi).

4. *Die Alte Welt* va *die Neue Welt* iboralari ko'hna dunyo, tarix va yangi dunyo, bugungi kunni ifoda etadigandek tuyuladi. Agar bu iboralarning ma'nosini lug'atdan ko'rib olmasak, bir semantik asosga "zamon" ega frazeologik antonim deb chalg'ish mumkin. Ushbu frazeologizmlarning ma'nosi zamon tushunchasi bilan bog'liq emas. *Die Alte Welt* Yevropani, *die Neue Welt* esa Amerikani anglatuvchi frazeologik birlikdir. Agar Yevropa va Amerika qit'a sifatida tushunilsa ham dunyo faqat ikki qit'adan iborat bo'lganida, ehtimol, ular bir-biriga antonim bo'lgan bo'lardi. Yer sharida 6 ta qit'a bor va hech qayerda qit'alarning bir-biriga antonim sifatida qo'yilgani topilmadi.

5. Yana bir misol, *eine dieselbe Sprache sprechen* va *eine andere Sprache sprechen* tarkibidagi *dieselbe* (xuddi shu) va *andere* (boshqa) leksemalari ham boshqa frazeologizmlar o'rtasida antonimlik munosabatini shakllantiradi (*Aus demselben Holz geschnitten sein - aus anderem Holz geschnitten sein*). Ammo *eine dieselbe Sprache sprechen* va *eine andere Sprache sprechen* frazeologik birliklariga qo'shimcha komponentlar

qo'shilsa, bularning bir biriga antonim emasligi oydinlashadi. (jemand) *eine dieselbe Sprache sprechen* (bir birini yaxshi tushunmoq, bir xil fikrda bolmoq; Bei ihm habe ich sogleich bemerkt, dass wir *dieselbe Sprache sprechen*.) va (etwas) *eine andere Sprache sprechen* (teskarisini ifodalamoq; Du kannst so oft du willst deine Unschuld beteuern, die Beweise sprechen *eine andere Sprache*.). Misollardan ko'rish mumkinki, ikki frazeologik birlik komponentlari sifatida turgan hamma leksik antonimlar ham semantik jihatdan bir biriga qarama-qarshi qo'yila olmaydi. Ushbu juftlik ham ko'ringanidek bir-biriga antonim emas.

II.4. Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlarning semantik xususiyati

Semantika til belgilarining ma'nosini o'rganadigan tilshunoslik va falsafaning bir tarmog'i hisoblanadi. Ushbu soha har bir tildagi mavjud til belgilarning denotativ (so'zning birinchi asl ma'nosi) va konnotativ (so'zning ikkinchi, yondosh ma'nolari) ma'nolarini o'rganadi¹³⁴.

Denotatsiya semantikaning noaniq ifodasidir. Bir tomondan, u konnotatsiyadan farqli ravishda neytral ma'noni (asosiy ma'noni) va shuning uchun so'zning asosiy mazmunini anglatadi. Asosiy ma'no har qanday sub'ektiv, hissiy va assosiativ ikkilamchi ma'noga ham ega bo'ladi.

Tilshunoslikda "denotatsiya" leksema yoki gapning bosh ma'nosi sifatida mumkin bo'lgan qo'shma ma'no, konnotatsiyadan farqlanadi. Denotat lisoniy ifodaning kontekst va vaziyatdan mustaqil asosiy ma'nosi bo'lsa, konnotatsiya o'zgaruvchan, kontekstga bog'liq va subyektivdir.

Kundalik tilda bosh ma'no (aniq ma'no) va ikkilamchi ma'no (yondosh ma'no) o'rtasida keskin chegara qo'yib bo'lmaydi. Misol: "tun" ma'nosi quyosh botishi va chiqishi o'rtasidagi vaqt oralig'idir. Kontekstga qarab, "tun" atamasining ma'nolari: qo'rquv, yolg'izlik, tahdid, ezilish, sevgi, romantika va boshqalarni anglatadi¹³⁵.

Konnotatsiya ayniqsa mantiq va tilshunoslikda noaniq ifodadir. Tilshunoslikda, aniqrog'i semantikada konnotatsiya lisoniy ifodaning

¹³⁴ Glück H. Metzler Lexikon Sprache. 4. Aufl. – Stuttgart: J.B. Metzler, 2010, S. 601

¹³⁵ <https://de.wikipedia.org/wiki/Denotation>

ikkilamchi ma'nosini bildiradi. Ko'pincha alohida so'zlarning konnotatsiyasi birinchi o'rinda turadi. Tilshunoslikda "so'z, jumla yoki matn konnotatsiyalarini tasvirlab berish"¹³⁶ ham mumkin. So'z semantikasida konnotatsiya so'zning asosiy ma'nosi bilan birga keladigan va so'zning uslubiy, emotsional, ta'sirchan tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan qo'shimcha konseptual tuzilmani tavsiflaydi, ya'ni atama qachon ongli yoki ongsiz ravishda rezonanslashsa ishlatiladi.

Konnotatsiya ba'zan oddiy assotsiatsiyadan ajratiladi. Bu konnotatsiyadan farqli o'laroq, haqiqiy ma'noga mansub emas, balki uning asosi sifatida qaralishi kerak¹³⁷. An'anaviylashtirilgan va sof individual konnotatsiya o'rtasidagi farq ham to'g'ri ko'rinadi. Konnotatsiyaning qarama-qarshi tomoni denotatsiyadir. Xususiyat nazariyasi nuqtayi nazaridan, ma'no shunga mos ravishda semantik xususiyatlar uchun konnotativ belgilar va denotativ belgilar o'rtasida farqlanadi.

Shunday ekan nafaqat leksik til birliklari semantik ma'noga ega bo'lishadi, balki alohida leksemalardan tashkil topgan frazeologik birliklar ham o'z semantikasiga ega. Masalan, *jemandem einen Korb geben* - kimgadir rad javobini bermoq frazeologik birlik komponenti *Korb* so'zining denotativ ma'nosi - *aytaylik, yog'ochdan to'qilgan, biror mahsulotni tashish yoki olib yurish uchun xizmat qiladigan idish*. Ammo bu frazeologik iboradan anglashiladigan ma'no *geben* fe'li orqali amalga oshadi. Chunki kimgadir savatini bermoq haqiqatdan ham o'zidan nimanidir soqit qilishni anglatadi. Buni qaysidir ma'noda o'zbek tilidagi *pattasini tutqazib yubormoq* frazeologik birligiga qiyoslash mumkin. Ammo bu frazeologizm turmush qurish uchun qilingan taklifni rad etmoq ma'nosini bildiradi.

Frazeologik antonimlar semantikasi haqida so'z yuritilganda frazeologik antonim juftliklarning tuzilishi va ular komponentlarining umumiy anglatadigan ma'nosi diqqat markazida bo'ladi. Ikki frazeologizm o'rtasida kuchli rasmiy o'xshashlikka doir antonim bo'lish uchun shartlar bo'lishi kerak. Umumiy holatda ularning ichki shakli inkorga yoki xattoki bir elementgacha antonim bo'lishga mos kelishi kerak¹³⁸. Bu esa

frazeologizmlar tarkibidagi mos keluvchi elementlarning semantik jihatdan kontekst yoki alohida komponentlarning nisbiy semantik avtonomiyasi tarkibiy qismlardan birini ma'no jihatidan teskarisiga "almashtirish" imkonini beradi.

Leksik va frazeologik antonimlar orasida sezilarli semantik, stilistik, strukturaviy, funksional o'xshashlik va farqlar mavjud. So'zlar va iboralar o'xshash bo'lsa-da, lekin baribir har xil shakllanishlar bilan o'zaro bog'liq bo'ladi chunki so'zlar tushunchalar va tasvirlarni ifodalasa, iboralar esa konseptlar bilan ifodalanadi. So'zlardan farqli o'laroq, iboralar tilga olingan narsaga kuchliroq, emotsionalroq baho beradi, ko'rsatilgan narsaga munosabatni majoziy va hissiy jihatdan ifodalaydi. Aytish mumkinki, frazemalar bilvosita nominativlik bilan ajralib turadi va bu ularning antonimik aloqalarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi¹³⁹. Masalan: *mit fester Hand regieren* (qattiqqo'llik bilan boshqarmoq) - *mit sanfter Hand regieren* (jilovini bo'sh qo'ymoq). *Mit fester Hand regieren* (qattiqqo'llik bilan boshqarmoq) frazeologizmi bir qarashda bu erda antonimi yo'qdek ko'inishi mumkin, chunki "fest"ga birinchi antonim sifatida hayolga keladigan "weich" so'zi bilan berilgan, yoki qo'llanadigan frazeologizm yo'q, ammo "sanft" so'zi ham leksik lug'atlarda "fest" uchun antonim sifatida berilgan.

Frazeologik antonimiyaning mohiyatini ochib berish uchun uning tildan tashqari lingvistik va ekstralingvistik omillarini uyg'unlashtirish zarur. Frazeologizmlarning antonimini belgilash frazeologik antonimlarning to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshi qo'yilishi kam uchraydigan hodisa ekanligi bilan yanada murakkablashadi. Masalan, *wie der erste Mensch* va *wie der letzte Mensch* iborasi bir qarashda bir-biriga antonimdek tuyuladi. Sababi iboralar tarkibidagi *erste* va *letzte* dastlabki va so'nggi so'zlari bir chiziqli yotuvchi boshlanish va tugash nuqtasini ko'rsatadi. Shu sabab ko'p hollarda antonim sifatida tan olinadi. Hatto boshqa frazeologik birliklar tarkibida antonimik munosabat yasaydi (*die erste Geige spielen* - *die letzte Geige spielen*). Biroq ayni misol bundan mustasno. *Wie der erste Mensch* va *wie der letzte Mensch* frazeologik birliklarining semantik ma'nosi aslida bir xil. Ular odob, axloqsiz,

¹³⁶ <https://de.wikipedia.org/wiki/Denotation>

¹³⁷ Kessd K., Reimann S. Basiswissen Deutsche Gegenwartssprache. - Tübingen: Fink, 2005. S. 163

¹³⁸ Добровольский Д. О. Семантическая членимость как фактор вариантов. Автореферат канд. дисс. филол. наук. - Киев: Азбуковник, 1991 с. 52

¹³⁹ Алифиренко Н.Ф., Семеренко Н.Н. Фразеология и паремология. Учеб. Пос. - Москва: Наука, 2009, с. 76

xushmuomalalikdan yiroq, qarovsiz, oddiy, iflos - kir ma'nolarni anglatadi. *Wie der erste Mensch* ni ibtidoiy jamoa odamlaridek tasavvur qilish mantiqan frazeologik birlikdagi semantik ma'noning to'g'riligini tasdiqlaydi. Ammo nega *wie der letzte Mensch* ham aynan shu ma'noni berishini faqat taxmin qilish mumkin xolos. Yana bir misol, *eine dieselbe Sprache sprechen* va *eine andere Sprache sprechen* tarkibidagi *dieselbe* (xuddi shu) va *andere* (boshqa) leksemalari ham boshqa frazeologizmlar o'rtasida antonimlik munosabatini shakllantiradi (*aus demselben Holz geschnitten sein* - *aus anderem Holz geschnitten sein*). Ammo *eine dieselbe Sprache sprechen* va *eine andere Sprache sprechen* frazeologik birliklariga qo'shimcha komponentlar qo'shilsa, bularning bir biriga antonim emasligi oydinlashadi. *Eine dieselbe Sprache sprechen* (bir-birini yaxshi tushunmoq, bir xil fikrda bo'lmoq; *Bei ihm habe ich sogleich bemerkt, dass wir dieselbe Sprache sprechen.*) va (etwas) *eine andere Sprache sprechen* (teskarisini ifodalamoq; *du kannst so oft du willst deine Unschuld beteuern, die Beweise sprechen eine andere Sprache.*).¹⁴⁰ Misollardan ko'rish mumkinki, ikki frazeologik birlik komponentlari sifatida turgan hamma leksik antonimlar ham semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi qo'yila olmaydi.

Frazeologiyada antonimik munosabatlarni rivojlantirish, nemis tilining frazeologik tarkibini to'ldirishga va so'z boyligini oshirishga hissa qo'shadi. Nemis tilining frazeologik antonimlarining paydo bo'lishining quyidagi yo'llarini belgilash mumkin. Frazeologik antonimlar bir vaqtning o'zida bir vaziyatda va voqelikning bir doirasidagi erkin iboralarini bir xil harakat yoki holatning ikki qarama-qarshi tomonining aksi sifatida metaforik qayta ko'rib chiqish natijasida vujudga kelishi mumkin, bu esa tushunchalar tafakkurining o'zgarish qonunining tasdig'idir, ular qoida tariqasida, juft bo'lib tug'iladi¹⁴¹. Parafraza bilan solishtirganda, frazeologizm ko'proq majoziy, jonli va ifodali ko'rinadi. Semantik ochiqligi va moslashuviga qaramay yoki aniqrog'i, u stilistik o'zini

namoyon qilish va hissiy jihatdan baholovchi munosabatni ifodalash¹⁴² uchun oldindan belgilab qo'yiladigan intensivlik bilan tavsiflanadi.

Semantik guruhning ifodalanishi ma'noni umumlashtirish natijasida yuzaga keladi, frazeologik birlikning tobe birliklari, ya'ni ularning ma'nolarining ko'pi bilan ikki/uch umumiy semaga qisqaradi. Bu sema antonimga mos keladi va butun til birligi uchun antonimning mavjudligiga asos bo'ladi¹⁴³. Bir xil strukturali ma'lum bir frazeologik birlik tarkibidagi komponentlarning ikkinchi frazeologik birlikdagi faqat bir komponentga qarama-qarshi ma'no anglatishidan frazeologik antonim juftlik hosil bo'ladi, masalan, *mit offenen Karte spielen* va *mit verdeckten Karte spielen* juftligida *offen* va *verdeckt* leksemalari bir-biriga zid tushunchalarni anglatadi.

Bir xil muhit yoki vaziyatdagi iboralar hozirgi nemis tilining frazeologik antonimiyasini to'ldirishda samarali omil hisoblanadi. Frazeologik antonimlar bir vaqtning o'zida paydo bo'lishi mumkin va ikkinchi antonim erkin iborani qayta ko'rib chiqish bosqichini chetlab o'tib tuzilishi mumkin. Frazeologik antonimik juftlikdan ikkinchi antonimning paydo bolishida bunda qarama-qarshilikdagi semantik analogiya katta rol o'ynaydi, bu bir frazeologik antonimning tarkibiy-semantik modelining boshqa frazeologik antonimning shakllanishiga ta'siridan iborat. Qarama-qarshilikdagi semantik analogiya natijasi shundan iboratki, bir tuzilmali frazeologik antonimlar juftligidagi bo'sh joy vaqt o'tishi bilan to'ldirilishi mumkin. Misol, *jemandem ein gutes Beispiel geben* (birovga yaxshi o'rnak bo'lmoq), *jemandem ein schlechtes Beispiel geben* (birovga yomon o'rnak bo'lmoq) frazeologik antonim juftligi H. Shemannning "*Deutsche Idiomatik. Die deutschen Redewendungen im Kontext*" idiomalar to'plamida bir frazeologik birlikning varianti sifatida berilgan:

(jm.) ein gutes/schlechtes/... Beispiel geben

Wenn die Erwachsenen ein schlechtes Beispiel geben, wetterte der Pastor, dürfen sie sich nicht wundern, wenn die Jugend auf Abwege gerät.

(jm.) ein warnendes Beispiel geben/sein

¹⁴² Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992, S.124.

¹⁴³ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1982, S. 221.

¹⁴⁰ https://de.wiktionary.org/wiki/eine_andere_Sprache_sprechen/eine_dieselbe_Sprache_sprechen

¹⁴¹ Зимина Л.П. Возможные пути пополнение фразеологического состава немецкого языка. http://library.isu.ru/resources/e-library/conf_works_ISU/zch2_soderzhanie/Zch-2-16.pdf

Seid vorsichtig an diesem Strand, Kinder! Der Peter ist ein warnendes Beispiel. Ihr wusst, er wäre dort fast ertrunken¹⁴⁴.

Shunga ko'ra, frazeologik birliklar tarkibiga ham qo'shimcha elementlar qo'shilishi va o'sha frazeologizm xususiyatini boshqa tarafdin yoritishi hamda antonimik munosabat hosil qilishi mumkin.

Qarama-qarshilik yo'li bilan semantik analogiya orqali paydo bo'lgan frazeologik antonimlarning hosilalari orasida leksik antonimlar yoki antonimik predloglarni almashtirish orqali hosil bo'lgan frazeologik birliklar muhim o'rinni egallaydi, masalan: *in Mode kommen* (urfga kirmoq) va *aufßer Mode kommen* (urfdan chiqmoq) frazeologik birliklari *in* va *aufßer* predloglari orqali semantik antonim maydon hosil qiladi, *ins Garn gehen* (qo'lga/ tuzoqqa tushmoq) – *durchs Gern gehen* (kimdandir yashirinmoq) frazeologik birliklarida esa *ins* va *durchs* semantik kontekstda antonimik munosabat shakllantiradi. Aslida *in* predlogi *aus* bilan antonim hisoblanadi, biroq ushbu misollarda frazeologik birliklar berayotgan umumiy ma'no orqali bir frazeologizmning antonim juftligi hosil bo'lgan.

Ikkinchi bob uchun xulosalar

Mazkur bobda nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik antonimlarning struktur-semantik xususiyatlari tizimli va qiyosiy tahlil etildi. Frazeologik birliklar tilning eng muhim komponentlaridan biri sifatida til egalarining mentaliteti, dunyoqarashi, madaniyati va tarixiy tafakkurini o'zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan frazeologik antonimlar ikki til sistemasida qanday tashkil topgani, ularning semantik qatlamlari va struktur modellari, ularning funksional hamda stilistik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida dastlab frazeologik antonimlarning nazariy asoslari ko'rib chiqildi. Ushbu birliklar oddiy antonimlardan farqli o'laroq, ma'no qarama-qarshiligini b arqaror iboralar shaklida ifodalab, ularning tarkibiy tuzilmasi, sintaktik funksiyasi va emotsional-estetik yuklamalari bilan ajralib turadi. Monografiyada frazeologik antonimlar strukturaviy

jihatdan fe'lli, otli, sifatli va predikativ birliklar shaklida uchrashi, bu birliklarning tilda qo'llanilish chastotasi va kontekstga bog'liqligi aniqlangan.

Nemis va o'zbek tillarida frazeologik antonimlar ko'pincha universal semantik qarama-qarshiliklarga (masalan: "yaxshi – yomon", "kuchli – zaif", "haqiqat – yolg'on") asoslangan bo'lsa-da, ularning ifoda shakli, obrazlilik va majoziyligi bir-biridan sezilarli farq qiladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, o'zbek tilida frazeologik antonimlar ko'proq milliy obrazlar, xalqona ifodalar, qadriyatlar bilan bogliq bo'lib, ularda didaktik va axloqiy yo'nalish kuchli bo'lsa, nemis tilidagi frazeologik antonimlar esa ko'proq ijtimoiy-falsafiy, ba'zan esa ironik va satirik mazmun kasb etadi.

Har ikki til frazeologizmlarida ham denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida bunday birliklar odatda axloqiy yoki didaktik ohangda bo'lsa, nemis tilida ular ko'proq satirik, tanqidiy, ba'zan ironik tusda bo'ladi.

Qiyosiy tahlil asosida ikki tildagi frazeologik antonimlar orasida muvofiqlik (ekvivalentlik) darajasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratildi: to'liq semantik ekvivalentlar, qisman semantik ekvivalentlar va funksional ekvivalentlar. Bu tasnif tarjimashunoslik uchun alohida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, frazeologizmlarni boshqa tilga to'g'ri, konnotativ sodiqlikni saqlagan holda tarjima qilishda foydali mezon bo'la oladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, frazeologik antonimlarning tarjimasi faqatgina ma'noviy tenglikni emas, balki madaniy moslikni ham talab qiladi.

Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik antonimlar semantik jihatdan nafaqat to'g'ridan to'g'ri ma'nodagi qarama-qarshilik, balki obraz, baho, uslub va konnotatsiya orqali ham tilda kuchli ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Ularning semantik xususiyatlari til egalarining madaniy tafakkuri va mentaliteti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bu birliklar tarjimada va madaniyatlararo kommunikatsiyada xizmat qilishi mumkin.

Monografiyada, shuningdek, frazeologik antonimlarning tilda ifoda vositasi sifatida qanday uslubiy funksiyalar bajarishi, ular orqali baholash, qarama-qarshilikni kuchaytirish, ironiyani berish, emotsional-ekspressiv ohang hosil qilish kabi funksiyalari ham alohida o'rganildi. Bu xususiyatlar

¹⁴⁴ Schemann H. Deutsche Idiomatik. Wörterbuch der deutschen Redewendungen im Kontext. 2. Aufl. – Berlin: de Gruyter, 2011, S. 67.

ularni san'at asarlarida, publitsistik matnlarda, xalq og'zaki ijodida keng qo'llanishiga sabab bo'ladi.

Ushbu tadqiqot frazeologiya, ayniqsa, frazeologik antonimiya masalalarini o'rganishga ilmiy yondashuvlarni chuqurlashtirdi, ikki til materiallari asosida kontrastiv tahlil metodikasini takomillashtirishga hissa qo'shdi. Unda aniqlangan ilmiy natijalar o'zbek va nemis tillari frazeologiyasini yanada chuqurroq o'rganish, ularni tarjima qilish va xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini boyitishda qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur monografik tadqiqot frazeologik antonimlarni struktur-semantik va funksional jihatdan har tomonlama yoritishga, ularning o'zaro tipologik farq va umumiyliklarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u frazeologiya, kontrastiv tilshunoslik, tarjimashunoslik, uslubshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi fanlar uchun nazariy va amaliy manba bo'la oladi.

UMUMIY XULOSA

1. Nemis tilshunosligida frazeologiyaning alohida soha sifatida shakllanish jarayoni davom etmoqda va ushbu sohada ko'plab yangiliklar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, frazeologiyaning yechilishi lozim bo'lgan muammoli qismlari, ushbu sohaning naqadar chuqur o'rganish kerakligini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

1. Antonimiya ham tilda sinonimiya, omonimiya, giperonimiya, giponimiya kabi lug'at boyligini oshirishga, til birliklarini - morfemalar, leksemalar, semalar va frazeologik birliklarning o'zaro qarama-qarshi munosabatlarini o'rganadi. Antonimiya muammolari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish davrida (L.R.Zinder, Y.I.Rodichyeva, M.D.Stepanova, T.V.Stroyeva-Sokolskaya, I.I.Chernisheva, N.M.Shanskiy va boshqalar) "antonim" tushunchasini talqin qilish, antonimlarni tasniflash va tizimlashtirish bo'yicha tilshunoslarning qarashlari bir xil emas degan xulosaga kelishga imkon beradi.

2. Frazeologik birliklar tilning eng ifodali vositasi hisoblanadi. Bekorga ularni "tilning gavhari" deb atashmaydi. Tilimizda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar so'zlarga qaraganda ancha keng va obrazli ma'nolarga ega. Ilmiy adabiyotlarda frazeologik birliklarning leksik tarkibi barqaror, doimiy, o'zgarmas sifatlari bilan talqin etiladi. Biroq tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ularning leksik tarkibi anchagina o'zgaruvchandir. Bundan kelib chiqadiki, umumtildagi frazeologik birliklarning o'zgaruvchanlik sabablarini o'rganish zaruriyati tug'iladi. Tabiat qonunlariga ko'ra har bir predmet, hodisa bir-birini to'ldiradi va shu bilan birgalikda bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi.

3. Frazeologiya leksik-semantik sath obyekti sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, leksik - semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma-xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi.

4. Frazeologiyada, asosan frazeologik antonimiya hodisasida ichki va tashqi kontekst ikki frazeologik birlik o'rtasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, frazeologiyadagi leksik antonimiya hodisasi ham mavjud bo'lib, u ma'lum bir frazeologik birlik tarkibida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari esa xuddi tilning leksik qatlamidagi singari leksik birliklar yordamida aks etadi. Ya'ni ot, sifat, fe'l, ravish kabi so'zlar shular jumlasidandir. Ushbu vositalar bilan ifodalanish turlari bir gap yoki ikki gap va so'zlarning o'rtasida amalga oshadigan jarayondir.

5. Nemis tili frazeologiyasida antonimiya hodisasida insonlarning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini ifodalovchi antonimik munosabatlar mavjudligi va nemischa frazeologik antonimiya hodisasi birikmalar orasidagi xuddi shunga o'xshash insonlarning ichki kechinmalari fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar bilan birikib, ko'plab frazeologik birliklarni hosil qilishi mumkinligini ta'kidlash o'rinlidir.

6. Nemis tilida antonimlarning yasallish usullari bir qancha holatlarda yuzaga keladi. Masalan: ikki so'zga bir xil suffiksning qo'shilishi, prefikslarning qo'shilishi orqali ham antonim so'zlarni hosil qilish barcha tillarga xos sermahsul usullardan birdir. Ulardan ikki hodisa o'rtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradigan bunday prefiksial va suffiksial shakllar berilgan so'zning ma'no ko'lamini o'zgartirishga xizmat qiladi.

7. Nemis frazeologiyasida sifat va ravish frazeologik antonim vositasi orqali yasalgan leksik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari belgi darajasiga asoslangan tarzda sifat jihatidan qarama-qarshi qo'yilsa, u holda frazeologik antonimlarning taraqqiyoti qarama-qarshi qo'yilgan belgilarni aniqlashtirish asosida amalga oshadi. Bunda frazeologik antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari ob'ektning alohida mavhum belgilarini ifodalovchi leksik antonimlardan farq qilgan holda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, frazeologik birlik tarkibidagi leksik antonimiya hodisasi semantik referentsiallikning qarama-qarshi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi.

8. Nemis frazeologiyasida predloglar antonim juftlikni hosil qiladi va ularning ifoda shakllari esa sifatli, ravishli hamda fe'li asosga ega bo'lishi mumkin. Frazeologik predloglar ancha yorqin semantik tuzilmaga egaligi tufayli ular bosh matndan tashqarida qo'llanilgan bo'lsa ham, antonimik munosabatlarga kirisha olish qobiliyatini namoyon etadi.

9. Antonim frazeologizmlarning strukturasi qarama-qarshi qo'yilishi ko'p hollarda frazeologizmlar tarkibidagi komponentlarning almashinishlar bilan bog'liq.

10. Frazeologik birliklar tarkibida komponent sifatida ishtirok etayotgan sifat, ravis'h, ot, olmosh, son, predloglar va fe'l orqali qarama-qarshi munosabat shakllantiradi. Frazeologik birliklar o'rtasidagi semantik qarshilantirish mantiqan kontrar, komplementar, konversiv va vektorial turlarga ajratiladi. Bu esa ularning antonimlik munosabatlari qay darajadiligini yoritib beradi. Fe'l frazeologik komponentlari o'rtasida kontrar antonimik munosabat bo'lishi uchun tasvirlanayotgan voqe'lik nafaqat faoliyat, holat va balki jarayonlarni yaqindan aks ettiradigan va xarakterlaydigan ma'no komponentlarining mavjud bo'lishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, //Xalq so'zi, 2017yil, 8- fevral.

Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2010, - 176 b.

Апресян Ю.А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке. Автореф. кандидатский дисс., - М.: 1956.

Апресян Ю.Д. Фразеологические синонимы типа «глагол+существительное» в современном английском языке. Канд. дисс., - М.: 1956.

Agricola Yohann. Wörter und Gegenwörter. Sprachpflege. Aufl.4. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1978.

Agricola Chr., Agricola Y. Wörter und Gegenwörter. Antonyme der deutschen Sprache. 5. Auflage. VEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1984, 148 S.

Алёхина А.И. К вопросу об антонимических связях фразеологических единиц а современном английском языке. – Минск: Выс. школа, 1968.

Алёхина А.И. К вопросу о разноструктурных фразеологических антонимах в современном английском языке. - М.: Уч. зап. 1-ого Моск. гос. пед. ин-та иностр. языков им. Тореца, 1969.

Алёхина А.И. К вопросу о сравнительном изучении фразеологической антонимии германских языков. Исследования по сравнительной лексикологии. – Москва: Уч. зап. Моск. гос. пед. ин-та, 1968.

Алёхина А.И. Фразеологическая антонимия в современном английском языке. Уч. пособие. – Челябинск: 1968.

Almatova Sh. O'zbek tili frazemalarining komponent tahlili. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. -Toshkent: 2008. -28 b.

Agricola Y., Gomer H., Kufner R. Wörter und Wendungen. Wörterbuch zum deutschen Sprachgebrauch. – Leipzig: 1972. – 996 S.

Aka-uka Grimm ertaklari. Yetti oqqush. Mittivoyning qalpoqchasi. X. Rahimov va Sh. Salimova tarjimasi. -T.: Cho'lpon, 1991. - 379 b.

Апресян Ю.А. Фразеологические синонимы типа глагол-существительное в современном английском языке. Автореферат канд. дисс., - М.: 1956.

Архангелский В.П. О понятии устойчивости фразы и типах фраз. Автореферат канд. дисс. - М.: 1979.

Бинович Л.Е. О многозначности идиом // - М.: Иностранные языки в школе, 1979. с. 13-17.

Бушуй А.М., Яхшиев А.А. Фразеология узбекской диалогической речи (на материале художественной прозы) // Тюркология. - Баку, 1986. - № 3. - С. 27 - 33.

Бушуй А.М. Фразеопоэтика драматургии Г.Е. Лессинга в свете современной теории речевой деятельности //Профессор-ўқитувчиларнинг илмий-назарий анжумани материаллари. – Самарканд: СамДЧТИ. - 1998. - С. 17-24.

Бушуй А.М. Организация лингвометодической работы по фразеологии с опорой на межкультурную общность // Преподавание языка и литературы. – Ташкент: 2007. - № 6. - С. 8 -12.

Бушуй Т.А. О взаимодействии фразеологической семантики и контекста (на материале английского языка) // Преподавание языка и литературы. –Ташкент: 2004. - № 5. - С. 25 -32.

Бушуй Т.А. Некоторые методические приёмы семантико-фразеологического анализа слова // Преподавание языка и литературы. –Ташкент: 2008. - № 3. - С. 3 - 10 .

Boltaeva B.I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil). Filol. fan. b. fals. dok.diss. avtoref. – Samarkand: 2019. - 49 b.;

Bartschat B., Rudi C. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termini. – Leipzig: 1985.

Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - М.: Эдиториал, 2001. - 416 с.

Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Schmidt, 1998. - 334 S.

Burger Harald unter Mitarbeit von H. Jaksche. Idiomatik des Deutschen. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1973. – 117 S.

Burger Harald/ Buhofer, Annelies/ Sialm, Ambros. Handbuch der Phraseologie. – Berlin: New York, 1982.

Burger Harald. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 5. neu bearbeitete Auflage. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2015. – 241 S.

Бабкин А.М. Русская фразеология, её развитие и источники. – Л.: Наука, 1970.

Бинович Л. Е. Немецко-русский фразеологический словарь. – Москва, Аквариум, 1995.

Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Наука, 1974.

Вольф Е. М. О синонимии глаголов и устойчивых словосочетаний. //Ин. яз. в школе, 1957, № 3.

Vafoeva M.Y. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. – Toshkent: 2009.

Гельбл Я. И. Способы выражения антонимичности в современном немецком языке. – Л.: 1965.

Görner Herbert. Redensarten. Kleine Idiomatik der deutschen Sprache. 6. Aufl. – Leipzig: 1990.

Glück H. Metzler Lexikon Sprache. 4.Aufl. Stuttgart, J.B. Metzler, 2010, 601 S.

Gontscharova N. Zur phraseologischen Antonymie in der deutschen Gegenwartssprache. Beiträge zur Erforschung der deutschen Sprache. Leipzig, 1983, 123 S.

Грязнова Л.А. Об определении антонимов глагольных фразеологических единиц и их классификации. // Вопросы общего и романо-германского языкознания. – Уфа: 1964.

Gontscharova N. Antonymische Phraseologismen unter kommunikativem Aspekt. Leipzig, KMU, 1981.

Donalies E. Basiswissen Deutsche Phraseologie. – Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag, 2009. – 301 S.

Донияров Б.Х. Проблемы лексической синонимии узбекского языка: коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: 1994.

Duden. Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Hrsg. von der Dudenredaktion. 4., neu bearb. u. aktual. Aufl. – Berlin: Dudenverlag, 2013.

Dobrovol'skij D.O. Phraseologie als Objekt der Universallinguistik. – Leipzig: 1988, 161 S.

Dobrovolskij D., Pirainen E. Zur Theorie der Phraseologie: Kognitive und kulturelle Aspekte. –Tübingen: Stauffenburg, 2009. – 298 S.

Donalies E. Basiswissen Deutsche Phraseologie. –Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag, 2009. – 301 S.

Drosdowski G. Werner: Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten. Idiomatisches Wörterbuch der deutschen Sprache. Duden Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 1992.

Duden (Band 11). Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten. Wörterbuch der deutschen Idiomatik, Duden Verlag: – Mannheim: Leipzig, Wien, Zürich: 1992.

Duden. Redewendungen und sprichwörterliche Redensarten. Bd.11. – Mannheim,Wien, Zürich: 1982.

Duden-Deutsches Universalwörterbuch. Bibliographisches Institut & F.A.Brockhaus AG. – Mannheim: 2003.

Eckert R., Günther K. Die Phraseologie der russischen Sprache. – München: Langenscheidt, 1992.

Elspaß Stephan. Phraseologie in der politischen Rede. Zur Verwendung von Phraseologismen in ausgewählten Bundestagsdebatten. – Opladen/ Wiesbaden: 1998.

Евгеньева А.П. Проект словаря синонимов. – М.: АН. Ин-т русского языка, словарный сектор. М., 1964.

Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005, 222 b.

Завьялова В. М. Deutsche Antonyme. – Москва: Высшая школа, 1969.

Зими́на Л. П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. Учеб. пособие по фразеологии. – Кемерово: 1977.

Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2011, - 80 b.

Isamuhamedova S. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida sinonimlar: filol. fan. nom. ...dis. – Toshkent: 1963.

Imyaminova Sh., Komolova Sh. Nemischa – oʻzbekcha maqol va matallar lugʻati. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010. -127 b.

Imyaminova Sh., Komolova Sh., Tyan N., Abdullaeva N. Nemischa – inglizcha - ruscha - oʻzbekcha maqol va matallar lugʻati. – Toshkent: “Nurafshon business”, 2021.

Iskos A.M. Lenkova A.F. Deutsche Lexikologie. – Leningrad: Staatsverlag, 1960

Краморенко Г.И. Фразеологические варианты в идеоматике современного нем. языка. – Смоленск: 1961. Фразеологические варианты современного нем. языка. канд. дисс., - М.: 1961.

Корнеева Л. Т. Глаголы-антонимы в современном немецком языке. Автореф. дисс.канд. фил. н. - М.: 1973.

Касландзия В.А. Синонимия в немецкой фразеологии. Справочник. – Москва: Высшая школа, 1990, -190 с.

Klappenbach R. Feste Verbindungen in der deutschen Gegenwartssprache. – Halle: 1971.

Kotschetowa T. Antonymische Verhältnisse in der verbalen Phraseologie der deutschen Sprache der Gegenwart. – Halle: 1974.

Korhonen J. Studien zur Phraseologie des Deutschen und des Finnischen II. – Bochum: 1996.

Lewin-Steinmann A. Antonymische Beziehungen zwischen Phraseologismen in der russischen Gegenwartssprache. – München: Otto Sagner, 1992.

Mamatov A.E. Oʻzbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: 2019.

Mamatov A. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – 272 b.

Mirtojiyev M.M. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: OʻzMU, 2000. – 82 b.

Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. - Алма-Ата: 1970.

Маннурова П. Г. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с антонимичными компонентами в английском и татарском языках. Автореферат. – Чебоксары: 2013.

Mamatov A.E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – T.: Fan, 1991.

Миллер Е.Н. Антонимия в лексике и фразеологии. - Алма Ата: Lpride, 1978.

Mamatov A.E. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari: Filol. fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent: 1991. – 56 b.

Михайлов. В.А. Антонимия, бинарные и градуальные оппозиции, Автореферат канд. дисс. – Ленинград: 1983.

Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. – 130 b.

Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. – Москва: МГУ, 1973.

Новиков Л.А. Русская антонимия и её лексикографическое описание. Словарь антонимов русского языка. – Москва: 1984.

Pinxasov Ya.D. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1969.

Palm Christine. Phraseologie. Eine Einführung. – Tübingen: 1997.

Pilz K.D. Phraseologie. Redensartenforschung. – Stuttgart: Metzler, 1981.

Qilichev B. Frazeologik sinonimiya xususida // Ilm sarchashmalari, 2005. -№ 3. - Urganch: UrDU, 52-54 v.

Raxmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. – Toshkent: Universitet, 1999.

Raxmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. - T.: Universitet, 2006.

Рафиев А.Р. Структурно-функциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка: Автореф.дис.канд. филол. наук. – Ташкент: 1982.

Raxmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.

Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. –T.: Fan, 1966. -131 b.

Райхштейн А.Д. Сопоставительный анализ немецкой и русской фразеологии. – М.: Высшая школа, 1980. -143 с.

Ройзензон Л. И. Лекции по общей и русской фразеологии. – Учебное пособие. – Самарканд: СамГУ, 1973. – 223 с.

Ройзензон Л.И., Малиновский Е.А., Хаяутин А.Д. Очерки по истории становления фразеологии как лингвистической дисциплины. – Самарканд: 1975.

Родичева Э.И. К проблеме антонимии. Семантические и фонологические проблемы прикладной лингвистики. – Москва: 1968.

Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: Qomuslar bosh taxririya, 1992.

Rajabova Z.I. O'zbek o'quv frazeografiyasining lingvistik aspekti: Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Qarshi: 2022. – 145 b.

Рахматуллаев Ш. Некоторые вопросы узбекской фразеологии: автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. – Ташкент: 1966. –51 с.

Савицкий В. М. Проблема моделирования во фразеологической системе языка (на материале английских глагольных фразеологических единиц): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Самара, 1996. -36 с.

Соди́кова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Т.: Главная редакция Узбекской энциклопедии, 1989.

Sodikova M. Qisqacha o'zbekcha-ruscha barqaror iboralar lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1994.

Сидоренко М.И. Антонимо-синонимический ряд фразеологических единиц. Актуальные проблемы русской фразеологии. – Ленинград: 1983.

Сидоренко М.И. О фразеологических антонимах русского языка. // – Москва: РЯШ, 1969.

Степанова М. Д., Чернышева И. И. Лексикология современного немецкого языка. –М.: Академия, 2003, 176 с.

Sočetova T. Antonymische Verhältnisse in der verbalen Phraseologie der deutschen Sprache der Gegenwart. – Halle: 1974, 146 S.

Tursunov U., Muxtorov Y., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992, 113 b.

Тожиев Е. Синонимия словообразующих аффиксов со значением и наличие отсутствие в узбекском языке: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Т.: 1974, 23 с.

Telija V.N. Die Phraseologie. In:Allgemeine Sprachwissenschaft. Von e. Autorenkollektiv unter der Leitung von B. A. Serebrennikov, Bd. 2. – Berlin: 374 S.

Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический аспект, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. -288 с.

Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. –Т.: Фан, 1983. -133 с.

Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеографии. –Т.: Фан, 1977. -103 с.

Umarxojayev M., Nazarov Q. Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at. – T.: O'qituvchi, 1994.

Умарходжаев М.И. Современные проблемы фразеографии // Вопросы языкознания. – М.: 1979. № 6. – С.48-55.

Умарходжаев М.И. Основы фразеографии. – Т.: Фан, 1983. -133 с.

Umirov I. O'zbek tili parafrazalari. Filol. fan. nom.dis. –Toshkent: 1996. – B.52.

Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Niemezer, 1997. – 339 S.

Fleischer W. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. 4. Aufl. – Leipzig: 1976.

Friedrich W. Moderne deutsche Idiomatik Alphabetisches Wörterbuch mit Defenition und Beispielen, 2. Aufl. – München: 1976.

Fritz Wurtle. Babur der Tiger.Eine begebnisreiche Erzählung. Copyright by Verlag S. Jörgl.Co.KG, – Klagenfahrt: 1947.

Frits Vyurtle. Andijon shaxzodasi. Nemischadan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasi, 2011.

Fris Vyurtle. Andijon shahzodasi. Sargusasht – qissa. Olmon tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 158 b.

Horst und Annelies Beyer. Sprichwörterlexikon. - Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1989.

Hesse H. Der Steppenwolf. - Frankfurt am Main: 1974.

Herman Hesse. Cho'l bo'risi. Mirzaali Akbarov tarjimasi. - Toshkent: Shark nashriyoti matbaa aksiadordlik kompaniyasi bosh taxririya, 2006.

Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugati. - Toshkent: O'z. mil. ensiklopediyasi, 2002, 588 b.

Hojiyev A.P, Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining imlo lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 288 b.

Хожиматов Г. Зоономик компонентли фразеологик бирликларнинг синонимик уялари. //Филология масалалари. - Тошкент: 2003. № 2.

Хазанович А.П.Синонимия во фразеологии современного немецкого языка. Канд. дисс., - Л.: 1958.

Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. - Samarqand: SamDU, 2013. - 116 b.

Yaxshiyev A.A. Nemis tili ogzaki nutki tizimida frazeologik birliklarning semantik - diskursiv maqomi. Filol. fan. dok... diss. avtoref. Samarqand, 2021. - 74 b.

G'anieva S. O'zbek frazeologizmlarining struktur tadqiqi. - Toshkent: Fan, 2013.

Shamsiddinov X. So'zlarning funksional semantik sinonimiyalari \ O'zbek tili va adabiyoti. -T.: 1995, № 1. - B.65-69;

Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. - Toshkent: Fan, 1977.

Schmidt E. Adjektivische Antonyme zur charakterisierenden Beschreibung von Personen im Russischen nach physischen Gesichtspunkten. - Magdeburg: 1986.

Schemann H. Synonym Wörterbuch der deutschen Redensarten. - Straelen: Straelen Verlag, 1989.

Чернышева И.И. Фразеология современного немецкого языка. - М.: Высшая школа, 1970. -199 с.

Чернышева И.И. Некоторые особенности фразеологии немецкого языка. - М.: Высшая школа, 1969 - 136 с.

Černysheva I.I. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. - Moskau: Vissaja skola, 1980.

Wotjak B., Richter M. Deutsche Phraseologismen. - Leipzig: VEB Verlag Enzyklopädie, 1988

Царегородцева Н.В. Антонимическая корреляция в идеографическом аспекте (на материале английских паремий): /Автoref. дисс. ...кандидата фил. наук. - Екатеринбург: 2013.

Интернет сайтлари

www.lex.uz.

<http://deutschlernerblog.de>

<http://uz.wikopediya.org/wiki/antonimlar>

https://de.wiktionary.org/wiki/Bohnen_in_den_Ohren_haben

SH.S.IMYAMINOVA

**NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA
FRAZEOLOGIK SINONIM VA
ANTONIMLARNING
LISONIY XUSUSIYATLARI**

MONOGRAFIYA

Muharrir B.D.Sa'dullayev

Bosishga ruxsat etildi 22.09.2025y. Bichimi 60X84 $\frac{1}{16}$. Bosma
tabog'i 8,75. Shartli bosma tabog'i 8,75. Adadi 20 nusxa.

Buyurtma № 077. Bahosi kelishilgan narxda.

"Ma'rifat" nashriyoti. Toshkent, Salorbo'yi ko'chasi, 35A.

O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'zMU.